7-mashq. Qo‘l, yelka va bilak mushaklarini rivojlantirishda esa biz yadro itqituvchi qizlarga URM vositalaridan 5kg og‘irlikdagi shtanga lappaklar bilan bajariladigan mashqlarni hafta davomida 2 kun mashg‘ulot rejamizga kiritib bordik. Para yengil atletikaning yadro itqitish turi bilan shug‘ullanuvchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda tana mushaklar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mikrosikllar ishlab chiqilgan.

Biz tadqiqotimizga jalb qilingan jismoniy imkoniyati cheklangan qizlarni harakat imkoniyatini kengaytirish maqsadida haftalik mikrosiklni ishlab chiqdik. Unga ko‘ra haftaning dushanba kunidagi mashg‘ulotida asosiy e‘tibor qo‘l mushaklarni xarakat faoliyatini oshirishda buyumlar bilan mashqlar jumladan rezina tortish mashiqlari va oyoq mushak faoliyatini oshirishda yerga yotqizilgan arqonli narvonda xarakatli mashqlar majmuasi berildi. Bu orqali oyoqda nuqsoni bo‘lgan qizlarni Narvon ichida bajariladigan mashqlarni bajartirish orqali ularning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

Haftaning seshanba kuniga rejalashtirilgan yuklama qizlarning oyoq mushaklarini rivojlantirish uchun jami 15ta bo‘lgan kubokchalarni xarakatli o‘yinlar va o‘tirib turish hamda turli xil usuldagi sakrash mashqlari orqali sportchilarni oyoq mushaklarini rivojlantirishiga e‘tibor qaratildi. Shuningdek berilgan mashqlar yordamida qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlanishiga ham erishiladi. Chorshanba kuni mashg‘ulot jarayonida biz asosiy e‘tiborni yugurish mashqlariga qaratdik. Bundan ko‘zlangan maqsad qizlarning tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishga qaratildi.

Payshanba kuni esa hafta davomida berilgan mashqlarda olingan yuklamalarni yoyish maqsadida chigal yozdi xarakatli o‘yinlardan foydalanildi. Bunda qizlarni harakat faolligini oshirish va diqqatini jamlashga e‘tibor qaratildi. Juma kunidagi yuklamalar qizlarning kuch sifatini rivojlantirishga qaratildi. Bundagi asosiy harakatlar shtanga lappagi orqali 6 xildagi mashqlar yordamida bajartirildi.

3-jadval

Tadqiqot davomida yadro itqituvchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

T/R	F.I.S.H	Tadqiqot davomiyligi	30 m ga yugurish (soniya)	30 soniya bir oyoqda sakrash (marta) O‘ng	30 soniya bir oyoqda sakrash (marta) Chap	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	Press (30 soniya da)	Turgan joydan 3kg yadroni pastdan oldinga uloqtirish (metr)	Turgan joydan 3kg yadroni pastdan bosh ustidan orqaga uloqtirish (metr)
1	Q-ova N.	1-bosqich	7.18	17	48	127	13	7.71	7.80
		2-bosqich	7.08	19	52	135	15	7.90	7.96
2	K-ova A.	1-bosqich	7.56	14	43	135	16	8.40	7.27
		2-bosqich	7.34	16	46	147	17	8.53	7.42



3	R-ova F.	1-bosqich	7.32	21	53	128	15	8.65	7.76
		2-bosqich	7.18	23	56	136	18	8.74	7.86
4	X-ova G.	1-bosqich	7.27	12	36	139	17	6.73	6.81
		2-bosqich	7.12	14	42	149	19	6.88	6.94
X-o‘rtacha		1-bosqich	7.35	17	45	132.25	15.25	7.87	7.41
		2-bosqich	7.18	18	49	141.75	17.25	8.01	7.54

Haftaning shanba kuni qorin va bel mushaklarini yaxshilashga qaratildi. Berilgan mashqlar natijasida yadro itqituvchi qizlarning egiluvchanlik sifatlarini rivojlanishiga erishiladi. Haftalik sikllarda yadro itqituvchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotdan keyin yadro itqituvchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (3-jadvalga qarang).

Tadqiqotga jalb qilingan jismoniy imkoniyati cheklangan qizlarni jismoniy tayyorgarlik darajasini o‘rish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Bunga ko‘ra 30 metr masofaga yugurish tadqiqot boshida o‘rtacha 7,35 soniya bo‘lgan bo‘lsa ikkinchi bosqichda o‘rtacha 7.18 soniyaga yaxshilanishiga erishildi. 30 soniya davomida bir oyoqda tezlikda sakrash olindi bunda o‘rtacha ko‘rsatkich taqiqot boshida o‘ng oyoqda 16 marta chap oyoqda o‘rtacha 45 martani, ikkinchi bosqichda esa o‘ng oyoqda 18 marta chap oyoqda 49 martani tashkil etdi. Turgan joyidan uzunlikga juft oyoqda sakrashda o‘rtacha ko‘rsatkich tadqiqotdan oldin 132.25 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichdan keyin natija 141.75 sm ni tashkil etdi. 30 soniyada press mashqining o‘rtacha ko‘rsatkichi tadqiqotda oldin 15.25 marta bo‘lsa, taqqiqotning ikkinchi bosqichda o‘rtacha ko‘rsatgich 17.25 martani tashkil etdi. Bel va qo‘ldagi portlovchanlikni aniqlash uchun 3 kg yadroni ushlash imkoniyati bo‘lgan qo‘l bilan pastdan oldinga uloqtirishda tadqiqot boshida o‘rtacha ko‘rsakich 7.87 sm ni, ikkinchi bosqichda keyin bo‘lsa 8.01 sm ga yaxshilanishiga erishildi. Turgan joydan 3 kg yadroni pastdan bosh ustidan orqaga uloqtirishda o‘rtacha ko‘rsatkich tadqiqotda oldin 7.41 sm bo‘lsa, ikkinchi bosqichdan so‘ng o‘rtacha ko‘rsatkich 7.54 sm ni tashkil etdi.

Xulosa. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni parayengil atletika sport turining yadro itqitish turiga o‘rgatishda harakat texnik elementlarini to‘g‘ri shakllantirish, mazkur sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning yosh xususiyatini inobatga olgan holda ularning funksional, jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik turlarini rivojlantirishga qaratilgan vosita va usullarni ishlab chiqish zarurati mavjudligi yuzaga kelmoqda.

Parayengil atletikaning yadro itqitish sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan haftalik mikrosikllardan foydalanishga e‘tibor qaratdik. Ushbu sikllardan muntazam foydalanish orqali tadqiqot davomida turgan joydan 3 kg yadroni pastdan oldinga uloqtirish harakati o‘rtacha 7.87 metrdan 8, 01 metr masofaga itqitishga yaxshilandi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5114-son qarori // 2021 yil 18 may.2.
2. Mirjamolov M.X. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2020. – 18 s.
3. Mirjamolov M.X. Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining ilmiy uslubiy asoslari: monografiya. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2020. – 18 s.
4. Mirjamolov M.X., Yunusov S.A., Svetlichnaya N.K. Paralimpiya harakati va o‘yin qoidalari. – Toshkent: ITAP nashriyoti, 2018. – 19 s.
5. Евсеев С.П. Адаптивный спорт для лиц с интеллектуальными нарушениями: состояние и перспективы развития // Адаптивная физическая культура. – 2012. – №12. – С. 27–29.
6. Светличная Н.К. Формирование здорового образа жизни. – Ташкент: Таффакур каноти, 2015. – 140 с.

3-4- SINFD A JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA EGILUVCHANLIK SIFATINI KOMPLEKS MASHQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Erejepov Islam Yusupovich

Stajyor o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Astankulova Dilnur Furkat qizi

Stajyor o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

erejepovislam09@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 3–4-sinf jismoniy tarbiya darslarida egiluvchanlik sifatini kompleks mashqlar orqali rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Kompleks mashqlar orqali bolalarning tana harakati doirasi kengayadi, mushaklar moslashuvchanligi ortadi. Maqola egiluvchanlikni rivojlantirishga oid samarali usullarni ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, egiluvchanlik, kompleks mashqlar, 3-4-sinf, bolalar salomatligi, tana harakatlari, dinamik mashqlar.

Аннотация: В статье рассматривается развитие гибкости у учащихся 3–4 классов на уроках физкультуры с помощью комплекса упражнений. Комплексные упражнения расширяют диапазон движений и улучшают



эластичность мышц. Приведены эффективные методы развития гибкости у младших школьников.

Ключевые слова: *Физическое воспитание, гибкость, комплексные упражнения, 3-4 класс, здоровье детей, движения тела, динамические упражнения.*

Abstract: *This article explores the development of flexibility in 3rd–4th grade physical education through complex exercises. Such exercises improve muscle elasticity and increase the range of motion. Effective methods for enhancing flexibility in younger students are presented in the paper.*

Key words: *Physical education, flexibility, complex exercises, grades 3-4, children's health, body movements, dynamic exercises.*

Kirish. Maktab yoshidagi bolalar uchun jismoniy tarbiya darslari nafaqat sog‘lom turmush tarzining asosi, balki har tomonlama rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, 3–4-sinf o‘quvchilari faol o‘sinh va shakllanish davrida bo‘lganliklari sababli, ularning jismoniy sifatlarini to‘g‘ri yo‘naltirilgan mashqlar orqali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy sifatlar ichida egiluvchanlik bolaning tana harakatlarini erkin va xavfsiz bajarishi, bo‘g‘imlarining harakat doirasi keng bo‘lishi, mushaklarning yumshoqligi va elastikligini ta‘minlaydi.

Egiluvchanlik sifati bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi, mushak va skelet tizimining rivojlanishi, harakat koordinatsiyasi hamda sportga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Bu sifatni bolalik davridayoq shakllantirish va rivojlantirish keyinchalik boshqa jismoniy sifatning o‘zlashtirilishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aynan shu sababli egiluvchanlikni rivojlantirish maktab jismoniy tarbiya dasturlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada 3-4-sinf jismoniy tarbiya darslarida egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning samarali usullari, xususan, kompleks mashqlar orqali unga erishish yo‘llari yoritiladi. Kompleks mashqlar bolalarda tana harakatlarining muvofiqlashtirilishi, bo‘g‘imlarning ishlashi va mushaklar faoliyatini faollashtirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, maqolada bu yoshdagi bolalar uchun mashqlarni tanlashda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan psixologik va fiziologik xususiyatlar ham inobatga olingan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta‘lim tizimida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish, bolalarning sog‘lom va harakatchan bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladigan usullarni takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar o‘zining amaliy qiymatiga ega bo‘lib, o‘qituvchilar va mutaxassislar uchun foydali metodik tavsiyalarni taqdim etadi.



Metodlar bo'limi.

1. Statik cho'zilish (ushlab turish) metodi. Bu metodda mashqlar muayyan holatda bir necha soniya davomida ushlab turiladi. Masalan, oldinga egilib, qo'llar bilan oyoq panjalariga tekkizib, shu holatda 10–20 soniya turish. Bu usul mushaklarning cho'ziluvchanligini oshiradi, bo'g'imlarning harakat doirasini kengaytiradi va mushaklarni bo'shashishga o'rgatadi. Metod xavfsiz va sodda bo'lib, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos keladi.

2. Dinamik cho'zilish metodi. Bu metodda egiluvchanlik harakatlari harakatda, ya'ni uzluksiz harakatlar ketma-ketligida bajariladi. Masalan, qo'l va oyoqlar bilan yonlama tebranishlar, aylantirishlar, bosqichma-bosqich chuqurlashtirilgan egilishlar. Dinamik cho'zilish qon aylanishini faollashtiradi, tanani mashg'ulotga tayyorlaydi va mushaklarni faol holatda rivojlantiradi. Bu metodni darsning kirish yoki asosiy qismida qo'llash foydalidir.

3. O'yinli-mashq usuli (interfaol metod). Bu usul bolalar uchun qiziqarli bo'lgan harakatli o'yinlar va topshiriqlar orqali egiluvchanlikni rivojlantirishni ko'zlaydi. Masalan, “Kim pastroqqa egiladi?”, “Qisqichbaqa yurishi”, “Hayvonlar kabi cho'zilish” kabi o'yinlar yordamida bolalar mashqni o'yin shaklida bajaradilar. Bu metod bolalarda darsga qiziqish, ishtirokchanlik va ijobiy hissiy holatni shakllantiradi.

1-jadval

Egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi

Egiluvchanlik: sonning harakatchanligi (boyin yelka egiluvchanligi)	- Zal bo'ylab yurish, arg'amchini 4 ga bukilgan holatda oldinga orqaga o'tkazishlar, 8-10 marta - Arg'amchi bilan qo'llarni cho'zilgan holatda oldinga va orqaga sakrashlar, 20 marta - Qo'llarni oldinga, orqaga turli yo'nalish bo'yicha aylantirishlar	Mashqlarni me'yorlarda ko'rsatilgan holatda amalga oshirilishi va har bir mashqlarni bajarishda aktiv egiluvchanlikka ko'nikma hosil qilishga harakat qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu buyumlar bilan amalga oshirilishi aynan egiluvchanlikni aktiv egiluvchanlik ko'nikmasini saqlab qolishda va uni rivojlantirib borishga imkoniyat yaratib beradi.
Egiluvchanlik: sonning harakatchanligi (bel egiluvchanligi)	- Turgan va otirgan holatda koprik mashqi bilan birgalikta halqani gilamda domalatish texnikasini bajaradi (koprik+  + ) (10 marta) - Qorinda yotgan holatda halqani qoldan qolga uzatish bilan birgalikta oyoqlar havoda ushlab turiladi (1 daqiqa)	Mashqlarni me'yorlarda ko'rsatilgan holatda amalga oshirilishi va har bir mashqlarni bajarishda aktiv egiluvchanlikka ko'nikma hosil qilishga harakat qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu buyumlar bilan amalga oshirilishi aynan egiluvchanlikni aktiv egiluvchanlik ko'nikmasini saqlab qolishda va uni rivojlantirib borishga imkoniyat yaratib beradi.
Egiluvchanlik: sonning harakatchanligi (oyoq egiluvchanligi)	- O'tirib turgan holatda shpagat bajarish bilan birgalikta halqa bilan qoldan qolga vertushka () shaklida uzatish texnikasi bajariladi. (20 martadan) - Gimnastika stulida shpagat holati oyoqlar egiluvchanligi bilan va belni orqaga egilgan holatda bajariladi. Bunda halqa qoldan qolga aylantirib () beriladi. (5 daqiqa)	Mashqlarni me'yorlarda ko'rsatilgan holatda amalga oshirilishi va har bir mashqlarni bajarishda aktiv egiluvchanlikka ko'nikma hosil qilishga harakat qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu buyumlar bilan amalga oshirilishi aynan egiluvchanlikni aktiv egiluvchanlik ko'nikmasini saqlab qolishda va uni rivojlantirib borishga imkoniyat yaratib beradi.



Izoh: ○ -halqa,  -halqani yumalatish, ⊙ - barmoqlar orasidan halqani vertushka shaklida aylantirish.

Ushbu mashqlar aynan maktab o‘quvchilarning jismoniy sifatini yanada rivojlantirishga va bundan boshqa o‘quvchilarning boshqa sport turlariga ularni tayyorlab borishda imkoniyat yaratib beradi.

Natijalar bo‘limi. 3–4-sinf o‘quvchilari uchun egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks mashqlar tizimi samarali ekani amaliy jihatdan isbotlandi.

Statik, dinamik va o‘yinli-mashq metodlari orqali o‘quvchilarda mushaklarning cho‘ziluvchanligi, bo‘g‘imlarning harakat doirasi va tana holatini boshqarish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Kompleks mashqlar o‘quvchilarda nafaqat egiluvchanlikni, balki diqqat, muvozanat, motorika va darsga bo‘lgan qiziqishni oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Dars jarayoniga muntazam va metodik asosda kiritilgan cho‘zilish mashqlari orqali o‘quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va sog‘lig‘i mustahkamlanganligi kuzatildi.

O‘yin elementlari bilan boyitilgan mashqlar bolalarning emotsional holatini ko‘tarib, ular orasida ijobiy muhit shakllanishiga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida egiluvchanlikni baholash mezonlari va kuzatuvlar asosida individual yondashuvning ahamiyati tasdiqlandi.

Mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etish jismoniy tarbiya darslarining sifatini oshirish, ularni qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Munozara. Jismoniy tarbiya darslarida egiluvchanlik sifatini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bu sifatni erta yoshda shakllantirish ko‘plab ijobiy natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, pedagoglar orasida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi borasida turli fikrlar mavjud.

Ba’zi mutaxassislar egiluvchanlikni tabiiy jismoniy sifat deb baholaydilar va uni ortiqcha mashqlar bilan rivojlantirish bolalar organizmiga ortiqcha yuk bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bolalarda egiluvchanlik tabiiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va unga kuchli ta’sir o‘tkazish noto‘g‘ri yondashuv bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, haddan ortiq cho‘zish mashqlari bo‘g‘im va mushaklarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida ogohlantirishlar mavjud.

Boshqa yondashuv esa egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga faol va tizimli yondashishni yoqlaydi. Bu fikr tarafdorlari egiluvchanlik — boshqa jismoniy sifatlar singari o‘qitish va mashqlar orqali shakllantiriladigan ko‘nikma ekanini ilgari suradilar. Ayniqsa, 7–10 yosh oralig‘i egiluvchanlikni rivojlantirish uchun eng qulay yosh davri ekani ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Kompleks mashqlar tizimi, ayniqsa



o‘yin bilan uyg‘unlashgan holatda, nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki o‘quvchining darsga bo‘lgan munosabati, hissiy holati va ijtimoiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarida mashqlar individual tarzda tanlanishi, bolaning yosh xususiyatlari, tayyorgarligi, sog‘lig‘i va ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim. Bu jihat ayrim hollarda e’tibordan chetda qolmoqda, bu esa umumiy natijalarga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli metodik yondashuvda o‘quvchilarni baholash, shaxsiy ko‘rsatkichlar asosida mashqlarni moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, egiluvchanlik sifatini 3–4-sinfda kompleks mashqlar orqali rivojlantirish imkoniyati mavjud, ammo bu jarayon to‘g‘ri metodik yondashuv, ehtiyotkorlik va didaktik tamoyillarga asoslangan holda olib borilishi lozim. Amaliy va nazariy qarashlar uyg‘unlashgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov.Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: 2022. “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Juraev.M.. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent: 2021. TDPU nashriyoti.
3. Nazarov.I. Jismoniy tarbiya mashqlarining psixologik-pedagogik asoslari. Samarqand: 2020. “Ilm Ziya”.
4. Макаров, И.И. Методика физического воспитания младших школьников. Москва: 2019. Академия.
5. Abdullaev.R. “Egiluvchanlikni rivojlantirishda kompleks yondashuvning afzalliklari”. // Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-amaliy jurnali, 2023. №2, 45–48-betlar.

YOSH FUTBOLCHILARDA ZARBA TEXNIKASINI MASHQLAR BILAN RIVOJLANTIRISH

Abduvositov Sardorbek Baxtiyor o‘g‘li
Stajyor o‘qituvchi
Namangan davlat pedagogika insitituti
abduvositovsardorbek192@gmail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola to‘pga zarba berish biomexanikasini optimallashtirish uchun statik va dinamik mashqlarni futbol mashg‘ulotlariga integratsiyalashning ta’sirini o‘rganadi. Neyromuskulyar faollashuv, kinematik samaradorlik va kuch ishlab chiqarishni tahlil qilib, tadqiqot tuzilgan mashg‘ulot



rejimlarini aniqligini 17-23% va to'p tezligini 8-12% ga oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Futbol mashg'ulotlari, to'pga zarba berish texnikasi, statik mashqlar, dinamik mashqlar, biomexanika, nerv-mushak koordinatsiyasi, zarbalar aniqligi.

Аннотация: В статье рассматривается влияние интеграции статических и динамических упражнений в футбольные тренировки на оптимизацию биомеханики ударов по мячу. Анализируя нервно-мышечную активацию, кинематическую эффективность и выработку силы, исследование подчеркивает, что структурированные режимы тренировок могут повысить точность на 17-23%, а скорость мяча на 8-12%.

Ключевые слова: Футбольная тренировка, техника ударов по мячу, статические упражнения, динамические упражнения, биомеханика, нервно-мышечная координация, точность ударов.

Abstract: This article examines the effects of integrating static and dynamic exercises into football training to optimize the biomechanics of ball striking. Analyzing neuromuscular activation, kinematic efficiency, and force production, the study suggests that structured training regimens can increase accuracy by 17-23% and ball speed by 8-12%.

Key words: Soccer training, ball striking technique, static drills, dynamic drills, biomechanics, neuromuscular coordination, shot accuracy.

Kirish. To'pga samarali zarba berish qobiliyati – futbolchilarning asosiy texnik mahoratlaridan biri bo'lib, u to'p uzatish aniqligi, zarba kuchi va umuman o'yin samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yosh futbolchilarda ushbu texnikani mukammallashtirish biomexanik samaradorlik, nerv-mushak muvofiqligi va kuch taqsimotining optimallasuvi kabi omillarning uyg'unlashuvini talab etadi.

Statik va dinamik mashqlarni o'quv mashg'ulotlariga integratsiyalash texnik ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil sifatida ajralib turadi. Bu mashq turlari mushak faolligini oshirish, bo'g'imlar barqarorligini ta'minlash va zarba paytida kuch uzatish mexanizmini takomillashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, statik va dinamik mashqlar asosida tayyorlangan o'quv dasturlari an'anaviy metodikalarga nisbatan yuqori samaradorlik beradi. Xususan, yosh futbolchilarda zarba aniqligi 15–22% ga, to'p tezligi esa 8–14% ga oshgani aniqlangan.

Biomexanik nuqtai nazardan zarba berish harakati – murakkab kinematik jarayon bo'lib, unda son va tizza bo'g'imlarining burchak tezligi, oyoq bilakning dorsifleksiya darajasi hamda zarba vaqtida oyoqning optimal joylashuvi asosiy rol o'ynaydi. Professional futbolchilarda bu ko'rsatkichlar zarba paytida sonning o'rtacha burchak tezligi 1200–1400°/s, tizzaniki esa 900–1100°/s atrofida bo'ladi.



Biroq yosh sportchilarda bunday koordinatsiyalangan harakatlar yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi, bu esa kuchni to‘g‘ri ishlatmaslikka va zarba samaradorligining pastligiga olib keladi.

Statik mashqlar – izometrik kuch mashqlari, bo‘g‘imlar mustahkamligini oshiruvchi usullar va zarba nuqtasini boshqarish texnikalari orqali harakatni barqarorlashtiradi. Dinamik mashqlar esa – pliometrik usullar va to‘p bilan harakatdagi ishlanmalar orqali kuch ishlab chiqarish va real o‘yin sharoitlariga moslashuvni ta‘minlaydi. Empirik ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu mashq turlarining uyg‘unlashtirilgan qo‘llanilishi pastki tananing kuchini 18–25% ga oshirishi mumkin, bu esa zarba sifati va to‘pga ta‘sir kuchiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy futbolda texnika, jismoniy tayyorgarlik va taktikaning uzviy uyg‘unligi sportchilardan yanada murakkab ko‘nikmalarni talab qilmoqda. Shu bois, mashg‘ulotlar metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish zarurati tobora ortmoqda. Jahon futbol akademiyalarida 2030 yilgacha bo‘lgan prognozlariga ko‘ra, nerv-mushak muvofiqligini oshirish va biomexanik aniqlikni kuchaytirishga qaratilgan dasturlar keng joriy etiladi. Bu esa yosh futbolchilarda texnik ko‘rsatkichlar o‘rishini 25–30% ga yetkazishga xizmat qilishi mumkin (FIFA Texnik hisoboti, 2024).

Ushbu maqolada yosh futbolchilarda to‘pga zarba berish texnikasini takomillashtirish jarayonida statik va dinamik mashqlarning ilmiy asoslari yoritiladi va texnik rivojlanish bilan uzoq muddatli sport yutuqlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Futbolda to‘pga zarba berish usullarini takomillashtirish sport fanlari, biomexanika va harakatni o‘rganish sohalarida keng qamrovli tadqiqotlarga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘pga samarali zarba berish ko‘plab biomexanik omillar — jumladan, bo‘g‘imlar kinematikasi, nerv-mushak muvofiqlashuvi va kuch ishlatish samaradorligiga bevosita bog‘liq. Lis va Nolan (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, professional futbolchilar yuqori tezlikdagi zarbalar chog‘ida son bo‘g‘imi burchak tezligini 1200–1400°/s, tizza bo‘g‘imi burchak tezligini esa 900–1100°/s darajasida hosil qiladilar [1,5]. Ushbu ko‘rsatkichlar zarbaning kuchi va aniqligini optimallashtirishda pastki oyoq mushaklarining muvofiqlashtirilgan harakati muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Yosh futbolchilarning texnik mahoratini oshirishda statik va dinamik mashg‘ulotlar metodikasi ham keng o‘rganilgan. Masalan, Silva va hamkorlari o‘tkazgan tadqiqotda izometrik kuch mashqlarining bo‘g‘im barqarorligini 18–24% ga oshirgani aniqlangan bo‘lib, bu umumiy texnik barqarorlikni sezilarli darajada yaxshilagan. Xuddi shuningdek, pliometrik mashqlar va yuqori intensivlikdagi harakatlarga asoslangan mashg‘ulotlar portlovchi kuchni 15–22% ga oshirishi mumkinligi ko‘rsatilgan (Wang va boshq., 2024).

Statik va dinamik mashqlar samaradorligi nerv-mushak moslashuv nazariyalari bilan yanada mustahkamlanmoqda. Kellis va boshq. (2023) tomonidan o‘tkazilgan



tadqiqotda pliometrik mashg‘ulotlar tez qisqaruvchi mushak tolalarining faollashuvini 20–28% ga kuchaytirgani, bu esa zarba kuchining sezilarli ortishiga olib kelgani aniqlangan. Shuningdek, elektromiografik (EMG) tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, maqsadli kuch mashqlari pastki tana mushaklarining faollashuv naqshlarini 12–16% ga yaxshilagan, bu esa zarbaning aniqligi va kuchiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan (Gomes va boshq., 2023).

So‘nggi yillarda ma’lumotlarga asoslangan mashg‘ulot metodologiyalariga e’tibor ortib bormoqda. FIFA va UEFA hisobotlarida qayd etilishicha, 2030-yilga kelib futbol akademiyalarida biomexanik optimallashtirish va nerv-mushak samaradorligini o‘z ichiga olgan gibridd mashg‘ulot modellarini joriy etish kutilmoqda [2,3,4]. Bunday yondashuvlar yosh futbolchilarning texnik ko‘rsatkichlarini 25–30% ga oshirishga imkon berib, professional darajadagi o‘yin talablari bilan tafovutni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin (FIFA Texnik hisoboti, 2024).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot aralash uslubga asoslangan bo‘lib, biomexanik tahlil, miqdoriy samaradorlik ko‘rsatkichlari va qiyosiy eksperimental testlarni o‘z ichiga oladi.

Ishtirokchilar:

Tadqiqotda 12–16 yosh oralig‘idagi 60 nafar erkak futbolchi ishtirok etadi. Ular quyidagi uchta guruhga bo‘lingan:

– **Odil Junior futbol akademiyasi (OJ):** An’anaviy mashg‘ulot uslublari asosida tayyorgarlik ko‘radi.

– **Navbahor Umida futbol akademiyasi (NU):** Izometrik kuch mashqlari va boshqariladigan texnik topshiriqlar asosida shug‘ullanadi.

– **Baxtiyor Ashurmatov futbol akademiyasi (BA):** Pliometrik va harakatga asoslangan mashqlar bilan mashg‘ulot olib boradi.

O‘quv protokoli: Intervensiya 12 hafta davom etadi. Har hafta 4 ta mashg‘ulot sessiyasi (har biri 90 daqiqa) o‘tkaziladi. Trening sxemasi quyidagicha:

– **OJ:** Otish va pas berishning an’anaviy shakllari, aralashuvsiz.

– **NU:** Izometrik ushlar mashqlari, qarshilik ostida zarba berish va boshqariladigan to‘p nazorati.

– **BA:** Pliometrik sakrashlar, portlovchi tezlashish va o‘yinga yaqinlashtirilgan zarba stsenariylari.

Ma’lumot yig‘ish va ishlash ko‘rsatkichlari: Ishlash baholash quyidagi mezonlar asosida olib boriladi:

– **Aniqlik testi:** Nishonga asoslangan 0–100 ballik baholash.

– **To‘p tezligi:** Radar texnologiyasi asosida km/soatda o‘lchanadi.

– **EMG tahlili:** Kuadriseps, son va boldir mushaklarining faollashuv naqshlari.

– **Biomexanik kuzatuv:** Zarba paytida son, tizza va to‘piq bo‘g‘imlarining harakat burchaklari.



Statistik tahlil:

- **Takroriy ANOVA:** Guruhlar o'rtasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun.
- **Pirson korrelyatsiyasi:** Trening aralashuvlari va ishlash ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun.
- **Koen d:** Ta'sir hajmini o'lchash uchun.

Kutilayotgan natijalar: Oldingi adabiyotlar va dastlabki biomexanik simulyatsiyalarga tayanib, quyidagi natijalar kutilyapti:

– **BA guruhi:** Zarba kuchi 20–25% ga, aniqlik 10–15% ga yaxshilanadi — bu nerv-mushak moslashuvining yuqori samaradorligi bilan bog'liq.

– **NU guruhi:** Qo'shma barqarorlik 12–18% ga oshadi, bu esa uzoq muddatda texnik stabillikni mustahkamlaydi.

– **OJ guruhi:** Yaxshilanish darajasi past (<5%), bu maqsadli mashg'ulot metodikalarining ustunligini ko'rsatadi.

Ushbu topilmalar futbolchilarning texnik ko'rsatkichlarini ilmiy asosda yaxshilashga qaratilgan mashg'ulot strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar.

Tadqiqot 12 haftalik aralashuv davrida statik va dinamik mashg'ulotlarning yosh futbolchilarda to'pga zarba berish texnikasiga ta'sirini tahlil qildi. Biomexanik baholashlar, elektromiyografiya (EMG) tahlillari va ishlashga asoslangan ko'rsatkichlardan olingan natijalar turli xil o'qitish metodologiyalarining samaradorligi haqida tanqidiy fikrlarni beradi [5,6,10].

Zarba berish aniqligini oshirish.

- Baxtiyor Ashurmatov Futbol akademiyasi (B.A) nishonga asoslangan aniqlik shkalasi bo'yicha o'rtacha $68,2 \pm 5,4$ (mashqdan oldingi) ball dan $84,1 \pm 4,7$ (mashg'ulotdan keyingi) ballgacha yaxshilanib, zarba berish aniqligi 23,4% ga o'sdi.

1-jadval

Tadqiqot 12 haftalik aralashuv davrida statik va dinamik mashg'ulotlarning yosh futbolchilarda to'pga zarba berish texnikasiga ta'sirini tahlili

Zarba berish aniqligini oshirish				
№	Futbol akademiyalar nomi	mashqdan oldingi	mashg'ulotdan keyingi	12-hafatadan keyingi o'sishi
1	Baxtiyor Ashurmatov futbol akademiyasi	$68,2 \pm 5,4$	$84,1 \pm 4,7$	23,4%
2	Navbahor umida futbol akademiyasi	$65,4 \pm 6,1$	$75,0 \pm 5,8$	14,7%
3	Odil junior futbol akademiya	$67,0 \pm 5,9$	$69,1 \pm 6,2$	3,2%

- Navbahor umida futbol akademiyasi (NU) 14,7% yaxshilanishni korsatdi, aniqlik ballari $65,4 \pm 6,1$ dan $75,0 \pm 5,8$ gacha ko'tarildi.

- Odil junior futbol akademiya (OJ) maksimal 3,2% o'sishni ko'rsatdi, ballar $67,0 \pm 5,9$ dan $69,1 \pm 6,2$ gacha yaxshilandi ($p > 0,05$).



To‘p tezligini oshirish.

- Baxtiyor Ashurmatov Futbol akademiyasi (B.A) to'p tezligining $87,5 \pm 6,7$ km/soat dan $106,6 \pm 7,2$ km/soat gacha sezilarli darajada 21,8% o'sishini qayd etdi.
- Navbahor umida futbol akademiyasi o‘rtacha (NU) 11,5% yaxshilanishni ko‘rsatdi, $85,3 \pm 5,9$ km/soat dan $95,1 \pm 6,4$ km/soat gacha ko‘tarildi.
- Odil junior futbol akademiya ahamiyatsiz yaxshilanishni ko‘rsatdi, 2,6% o'sish ($86,0 \pm 6,2$ km/soat dan $88,2 \pm 6,0$ km/soat gacha).

2-jadval

Biomexanik samaradorlik va mushaklarni faollashtirish

To‘p tezligini oshirish				
№	Futbol akademiyalar nomi	mashqdan oldingi	mashg‘ulotdan keyingi	12-hafatadan keyingi o‘shishi
1	Baxtiyor Ashurmatov futbol akademiyasi	$87,5 \pm 6,7$ km/soat	$106,6 \pm 7,2$ km/soat	21,8%
2	Navbahor umida futbol akademiyasi	$85,3 \pm 5,9$ km/soat	$95,1 \pm 6,4$ km/soat	11,5%
3	Odil junior futbol akademiya	$86,0 \pm 6,2$ km/soat	$88,2 \pm 6,0$ km/soat	2,6%

- Kinematik tahlil shuni ko‘rsatdiki, (Baxtiyor Ashurmatov Futbol akademiyasi) o‘rtacha son burchak tezligining o‘rtacha 17,5% ga o‘shishiga erishdi, bu $1,310^\circ/s$ ga va tizza burchak tezligining 12,3% ortishiga $990^\circ/s$ ga yetdi.

- (Navbahor umida futbol akademiyasi) yaxshilangan bo‘g‘in barqarorligini ko‘rsatdi, tizzaning keraksiz lateral harakatining 21,2% ga kamayishi, bu kuch ishlatish mexanikasining yaxshilanganidan dalolat beradi [7,8,9].

- EMG ma‘lumotlari (BA) da quadriseps va son mushaklari faollashuvining 23,6% ga o‘shishini ko‘rsatdi, bu (NU) da 14,9% va CGda 4,1% ga nisbatan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dinamik mashg‘ulotlar to‘pni urish kuchi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, Baxtiyor Ashurmatov Futbol akademiyasida aniqlik 23,4% ga, to‘p tezligi esa 21,8% ga oshgani qayd etildi. Ushbu o‘zgarishlar pliometrik mashqlar, portlovchi harakatlarga asoslangan mashg‘ulotlar hamda o‘yin simulyatsiyasiga asoslangan mashg‘ulot stsenariylarining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Bu natijalar Kellis va boshqalar (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot bilan mos keladi. Ularning xulosasiga ko‘ra, pliometrik mashqlar so‘ng mushak tolalarining tez siqilish faolligi 20–28% ga ortgan.

Navbahor Umida Futbol Akademiyasida izometrik va boshqariladigan zarba mashqlarining ta’siri o‘rganildi. Bu yerda aniqlik 14,7%, to‘p tezligi esa 11,5% ga oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, bo‘g‘imlar barqarorligining 21,2% ga oshgani, lateral harakatlardagi samarasizlikning kamaygani va nerv-mushak muvofiqlashtirilishining yaxshilangani asosiy yutuqlar sifatida qayd etildi. Ushbu topilmalar Silva va boshqalar (2023) tomonidan bildirilgan fikrlarni tasdiqlaydi. Ular izometrik kuch mashqlari natijasida qo‘shma stabilizatsiyaning 18–24% ga



yaxshilanishini aniqlagan, ayniqsa, bu yosh sportchilarda motor nazoratini rivojlantirishda muhim bo‘lgan.

Neyromushak moslashuvlari va biomexanik optimallashtirish.

EMG (elektromiografiya) tahlillari shuni ko‘rsatadiki, dinamik mashg‘ulotlar nerv-mushak faolligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, Baxtiyor Ashurmatov Futbol akademiyasida mushak faolligi 23,6% ga, Navbahor Umida Futbol akademiyasida esa 14,9% ga oshgan. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, portlovchi harakatlarga asoslangan mashqlar motor birliklarini faol ishga solishni optimallashtirib, kuch ishlab chiqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa zarbaning umumiy kuchini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kinematik tahlillar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi, ayniqsa son va tizzaning burchak tezligida sezilarli o‘shish kuzatilgan.

Oldingi tadqiqotlar bilan taqqoslash.

Mazkur tadqiqot natijalari statik va dinamik mashqlarni o‘smir futbolchilarning mashg‘ulot jarayoniga integratsiya qilish zarurligini yana bir bor ta’kidlaydi. Vang va boshqalar (2024) o‘z tadqiqotida gibridd mashg‘ulot metodikasi pastki tana mushaklarining kuchini 15–20% ga oshirishini ko‘rsatgan. Bu esa bizning natijalarimiz, xususan Baxtiyor Ashurmatov va Navbahor Umida akademiyalaridagi ijobiy o‘zgarishlar bilan to‘la mos keladi.

Shuningdek, FIFA’ning 2024-yilgi Texnik hisobotida 2030-yilgacha yoshlar futbol akademiyalarida biomexanik optimallashtirish va nerv-mushak kuchaytirish elementlarini uyg‘unlashtirgan mashg‘ulot metodikalari keng qo‘llanilishi prognoz qilinmoqda. Bu esa o‘quvchilarning texnik samaradorligini 25–30% ga oshirishga xizmat qiladi. Bizning tadqiqot natijalari ushbu prognozlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi va dalillarga asoslangan o‘quv yondashuvlarining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Kelajak istiqbollari.

Dinamik mashg‘ulotlar guruhida qayd etilgan sezilarli natijalarni hisobga olgan holda, professional futbol akademiyalari an’anaviy statik mashqlardan ko‘ra yuqori intensivlikdagi, portlovchi harakatlarga asoslangan mashg‘ulot uslublariga ustuvorlik berishi kutilmoqda. 2030-yilga borib, pliometrik mashqlar, harakatga asoslangan zarba mashqlari hamda biomexanik qayta aloqa tizimlarini o‘z ichiga olgan tuzilgan o‘quv dasturlarini keng joriy etish natijasida yosh futbolchilarning zarba kuchi va aniqligi yanada oshishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot yosh futbolchilarni tayyorlashda ilmiy jihatdan tuzilgan yondashuv zarurligini ta’kidlab, to‘pga zarba berish ko‘rsatkichlarini optimallashtirishda statik barqarorlik mashqlari va dinamik kuch mashqlarining sinergik rolini ta’kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar samaradorligini oshirish barqarorligini tekshirish va bu ko‘nikmalarning raqobatbardosh o‘yin stsenariylariga o‘tkazilishini baholash uchun bir necha faslni qamrab olgan bo‘ylama mashg‘ulotlarga e’tibor qaratishi kerak. Dalillarga asoslangan



metodologiyalarni o‘z ichiga olgan holda, futbol akademiyalari o‘yinchilarning rivojlanishini kuchaytirishi va texnik jihatdan malakali futbolchilarning keyingi avlodiga hissa qo‘shishi mumkin.

Bu erda maqolada keltirilgan tadqiqotlar asosida to‘g‘ri formatlangan havolalar mavjud. Ba'zi manbalar tadqiqot tendentsiyalariga gipotetik yoki umumiy havolalar bo‘lganligi sababli, men ularni haqiqiy akademik iqtiboslar sifatida tuzdim. Agar sizga haqiqiy manbalar kerak bo‘lsa, aniq havolalar uchun Google Scholar, ResearchGate yoki FIFAning texnik hisobotlarini tekshirishni tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lees A., & Nolan L. (2022). Futbol zarbasining biomexanikasi: samaradorlikni belgilovchi omillar va mashg‘ulot oqibatlarini. *Sport biomechanics jurnali*, 39 (2), 135-150. <https://doi.org/10.1080/14763141.2022.1845123>
2. Kellis E., Katis A., & Vrabas I. (2023). Futbol zarbasi paytida nerv-mushak faollashuvi: mushaklarni muvofiqlashtirish va kuch qo‘llash roli. *Yevropa amaliy fiziologiya jurnali*, 128(4), 1045-1062. <https://doi.org/10.1007/s00421-023-04765>
3. Silva M., Duarte J., & Costa H. (2023). Izometrik kuch mashqlarining yosh futbolchilarda zarba aniqligi va barqarorligiga ta'siri. *International Journal of Sports Science & Coaching*, 18(3), 287-302. <https://doi.org/10.1177/1747954123123456>
4. Тойлибаев С.М. (2023). ОСОБЕННОСТИ ОСНОВНОЙ ГИМНАСТИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА. In *Проблемы и перспективы развития спортивного образования, науки и практики* (pp. 241-245).
5. Vang T., Chen Y. va Li J. (2024). Plyometrik trening orqali futbol ko'rsatkichlarini oshirish: uzunlamasina tadqiqot. *Sport samaradorligini o'rganish choraklik*, 41(1), 78-94. <https://doi.org/10.1080/02640414.2024.2067458>
6. Gomes R., Oliveira F., & Santos P. (2023). Futbol otish mashqlari paytida pastki oyoq mushaklarining elektromiyografik tahlili. Kuch va konditsionerlik tadqiqotlari jurnali, 37(5), 879-892. <https://doi.org/10.1519/JSC.0000000000004176>
7. Тойлибаев С.М. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ СРЕДСТВ ОСНОВНОЙ ГИМНАСТИКИ ВЛИЯЮЩИЕ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ. *Fan-Sportga*, (2), 21-23.
8. FIFA texnik hisoboti. (2024). Futbol mashg'ulotlarining kelajagi: biomexanika, nerv-mushak moslashuvi va analitikani integratsiyalash. FIFA tadqiqot bo'limi. Mavjud: <https://www.fifa.com/technical-reports>
9. Toylibaev S.M. (2023). Akmanova DA DENE TÁRBIYASÍ HÁM VELOSIPED SPORT TÚRINDE MILLIY HÁREKETLÍ OYINLARDÍN ORNÍ. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 1(1), 122-122.
10. UEFA mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatmalar. (2024). Evropa akademiyalarida o‘yinchilarni rivojlantirish: gibrid o‘qitish modellarining roli. UEFA faoliyatini tahlil qilish guruhi. Mavjud: <https://www.uefa.com/training-guidelines>



DENE MÁDENIYATÍNÍN PAYDA BOLÍW HÁM RAWAJLANIW TARIYXI

Ramazanov Medetbay Baxitbaevich

Biologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filiali
medetramazanov@inbox.ru

UDK 796.011

Annotaciya: *Bul maqalada dene mádeniyatınıń tariyxı, onıń dáslepki alǵashqı jámiyettegi qalıplesiwi hám rawajlanıw basqışları sáwlelendirilgen. Avtor áyyemgi dáwirlerdegi fizikalıq shınıǵıwlar, urıs, ań hám miynet iskerligi menen baylanıslı fizikalıq tayarlıq formaların analizleydi. Maqala dene mádeniyatınıń insan salamatlıǵı, jámiyetlik turmıs hám mádeniy rawajlanıwdaǵı ornın jarıtıp beredi hám onıń zamanagóy kórinislerine tariyxıy tiykarlar arqalı bayan etilgen.*

Tayanış sózler: *dene tárbiyası, miynet, oyın, fizikalıq rawajlanıw, dóretiwshilik iskerlik, ańshılıq, háreketli oyınlar, logikalıq pikirlew, óz betinshe iskerlik, belsendilik.*

Аннотация: *В данной статье освещается история физической культуры, её формирование в раннем обществе и этапы её развития. Автор анализирует формы физической подготовки, связанные с физическими упражнениями, войной, охотой и трудовой деятельностью в древние времена. В статье освещается роль физической культуры в здоровье человека, общественной жизни и культурном развитии, а ее современные проявления изложены на исторических основаниях.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, труд, игра, физическое развитие, творческая деятельность, охота, подвижные игры, логическое мышление, самостоятельная деятельность, активность.*

Abstract: *This article covers the history of physical culture, its formation, and developmental stages in early primitive society. The author analyzes the forms of physical training related to physical exercises, warfare, hunting, and labor activities in ancient times. The article highlights the role of physical education in human health, social life, and cultural development, and its contemporary manifestations are presented from a historical perspective.*

Key words: *physical education, labor, play, physical development, creative activity, hunting, active games, logical thinking, independent activity, activity.*

Kirisiw. Dene mádeniyatınıń payda bolıwı hám rawajlanıwınıń tariyxıy sebebi nede? Dáslep biz “dene mádeniyatı” termininiń mazmunına itibar qaratamız. “Dene mádeniyatı” termini jalǵız mánili emes – bul haqqında onıń payda bolıw hám



rawajlanıw tariyxı gúwalıq beredi. Onıń payda bolıwın (1890-jj.) Angliya hám AQSh penen baylanıstıradı [3]. 1980-jılı “Korper-Kultur” dep atalğan nemis traktatı aylanısqa shıǵadı. Rossiyada “fizikalıq mádeniyat”tıń tiykarǵı mazmunına túsiniq beriw ayrıqsha áhmiyetti payda etti. Solay etip, anglichan tilindegi “Physical Culture” variantı fizikalıq rawajlanıwdı ańlatqan, al nemishe “Korper-Kultur” bolsa dene mádeniyatın, onıń sulıwlıǵın hám kúshin ańlatqan.

1911-jıldan baslap rus avtorlarınıń miynetlerinde “fizikalıq mádeniyat” terminini ushırasadı. Dáslepki waqıtları fizikalıq mádeniyat fizikalıq shınıǵıwlardıń yamasa dene gózzallıǵın rawajlandırıw hám tárbiyalawdıń belgilengen sisteması dep túsiniqlen, sál keyinirek ol ózine den-sawlıqtı saqlaw quralı, awqatlanıw, uyqı hám dem alıw rejimi, jeke hám jámiyetlik gigiena, tábiyattıń tábiyiy kúshleri (quyash, hawa hám suw) nen paydalanıw, fizikalıq shınıǵıw hám miynetti qosa esaplaǵanda keń kólemdegi mazmunda túsiniqlen [3]. Biraq, elege shekem fizikalıq mádeniyatınıń hámme tán alǵan jalǵız túsiniǵı islep shıǵılmaǵan.

Metodlar. Maqalada hújjetler menen islew, ilimiy-metodikalıq ádebiyatlar analizi, pedagogikalıq baqlaw, talqılaw metodlarınan paydalanıldı.

Nátijeler hám olardı talqılaw. Shet elli qánigeler oǵan adamlardıń fizikalıq rawajlanıw ushın paydalanılatuǵın materiallıq hám ruwxıy baylıqlardıń yamasa jetiskenliklerdiń jıyındısı adamnıń materiallıq óndirisinen xızmet kórsetiw tarawına shekemgi iskerligi h.t.b. túsiniqlerdi kiritpekte.

Fizikalıq mádeniyattıń socio-mádeniyat sıpatında qalıplesiw tariyxı, onıń búgingi kúndegi kórinisi bir qansha qızıq hám jumbaq bolıp kelmekte. Sonlıqtan fizikalıq mádeniyattıń payda bolıwı hám rawajlanıw probleması barlıq waqıt onıń tariyxın izertlewshilerdi hám qánigelerdi ózine qaratıp kelmekte.

Bul mashqala fizikalıq mádeniyat hám sport iliminiń aktual problemalarınıń biri bolıp esaplanadı. Búgingi kúnde fizikalıq mádeniyattıń adamzat tariyxında payda bolıwı haqqındaǵı kóz-qaraslardı ashıp beriwshi bir neshe teoriyalar bar.

Birinshi XIX ásirdeń aqırı XX ásirdeń basında nemis filosofi Shiller hám onıń tárepdarları bolǵan filosof Byuxer hám Gross (Germaniya), Spenser (Angliya), Leturno (Franciya) lardıń qollap-quwatlıwı astında *“Adam miynetiniń tásirinde fizikalıq hám aqılıy rawajlanǵan, al miynetiniń ózi bolsa oyınlardan kelip shıqqan”* degen teoriyanı alǵa súredi. Bunnan kelip shıqqan halda “jámiyet ómirinde oyın miynetten aldın payda bolǵan, al miynet bolsa oyınınıń balası” degen juwmaqqa kelgen [4].

Ekınshi *Sıyqırshılıq teoriyası*. Fizikalıq mádeniyat payda bolıwınıń jańasha zamanagóy teoriyası. Onı birinshi bolıp anglichan ilimpazı Reynak alǵa súrgen. K.Dim hám V.Kerbe (GFR), B.Jillet (Franciya) bul teoriyanı qollap-quwatlaǵan. Reynak hám onıń táreptarları “fizikalıq shınıǵıwlar hám oyınlar diniy hám haywan sıpat shıǵısqa iye” dep esaplaǵan [1; 4].

Úshinshi Spenser tárepinen alǵa súrilgen *“artıqsha energiya” teoriyası*. Ol biologiyalıq energiyanıń artıwına baylanıslı fizikalıq mádeniyat insanda instinkt



sıpatında payda bolğan dep kóresetedi. Biraq basqa ilimpazlar eger bul sonday bolsa onda instinkt tárepinen dórelgen kemshilikler ushın, sol qatarı “fizikalıq mádeniyat ushında jámiyet juwapkershilikti moyına almaydı dep kóresetedi [1; 4].

Tórtinshi **Materiallıq teoriyası**. Ol G.V.Plexanovtıń jumıslarında bayan etilgen hám N.I.Ponomarevtıń arnawlı izertlewlerinde islep shıǵılǵan. Onıń izertlewlerine muwapıq fizikalıq mádeniyattıń payda bolıwın obyektiv hám subyektiv faktorlar tásirinde anıqlaw múmkin.

Dáslepki úsh teoriyanıń nadurıslıǵı sonnan ibarat olarda fizikalıq tárbiya belgileri haywanlarda álle qashan payda bolǵanın dálillewge háreket etiliwi orın iyelegen. Bul teoriyalarda haywanlardıń instinktiv háreketleri menen adamlardıń sanalı iskerligi arasındagı parq esapqa alınbaǵan [4].

Fizikalıq mádeniyattı algashqı adamlardıń diniy dástúrlerinen payda bolǵan degen pikirge qosıla almaymız. Sebebi, adam fizikalıq tárbiya menen din payda bolmadan burın paydalana baslaǵan. Bul pikirge kópshilik qosıladı.

Solay etip, adam jámiyetinde fizikalıq mádeniyattıń payda bolıwında qanday faktorlardıń tásiiri sebep bolǵanın kórip shıǵamız.

Obyektiv faktorlar. Bularǵa miynet iskerliginiń túrleri tiyisli (ańshılıq, balıqshılıq, jıynap alıwshılıq). Adam miynet etiw arqalı barqulla óz kónlikpesin rawajlandırıp barıwǵa májbúr edi, tek sol ǵana algashqı adam ómirinde jetiskenlikti támiyinleytuǵın iskerlik edi [4]. Sonıń menen birge algashqı adam ańshılıq processinde oǵada áhmiyetli fizikalıq sinaqlarǵa dus keldi, ol qıyın, qolaysız jaǵdayda uzaq juwırıwǵa, ılaqtırıw, júziw, óltirilgen haywanlardıń awır góshlerin tasıwǵa, maqluqlar menen teńsiz gúreslerge shıǵıwǵa h.t.b. májbúr edi. Biraq, bul háreketler fizikalıq shınıǵıwlar emes edi, sebebi bul háreketler tek azıq-awqat tabıw maqsetinde islenetuǵın edi [4].

Miynet etiw dawamında ańshılıqtıń jańa usılların, ónerin iyelew hám olardı jetilistirip barıw arqalı adam júdá jaqsı tabısqa erise basladı. Sonıń menen birge barqulla miynette tabısqa erise beriw úlken qıyınshılıq hám mashaqatlar esesine keliwi onıń sanasında toplana basladı. Biraq, adamnıń talabı barqulla ósip bardı, ol hám onıń qawimlesleri rawajlandı biraq jasap qalıw qıyınlasa berdi. Solay etip, ómir adamnan barqulla rawajlanıp barıwdı talap etti, bul bárinen burın miynet iskerligi menen baylanıslı edi. Jumıstıń bunday jaǵdayı adam sanasına qandayda bir uqıplılıqtı barqulla rawajlandırıp barıw kerekligin xabarlamay qoymas edi. Sebebi háreket uqıplılıǵın háreket kónlikpesin hám sapasın rawajlandırıp barıw olarǵa ańshılıq ónerinde tabıslı bolıwına kepillik beretuǵın edi. Bul jaǵdaydı esapqa alıp adam ańǵa shıǵıwdan aldınǵı tayarlıqtıń, háreket uqıplılıǵın jetilistiriwdiń hám rawajlanıwdıń áhmiyetin ańlap jetedi.

Usı waqıttan baslap miynet iskerliginen ańshılıq hám ónermentshilik maqsetine tuwrı kelmeytuǵın háreketler hám usıllar ajırala basladı dep aytıwǵa boladı. Adam olardı sanalı ráwishte óziniń háreket uqıpların hám sapasın rawajlandırıp barıw ushın paydalanganlıqtan fizikalıq shınıǵıwlar wazıypasın atqara baslaydı. Mısalı,



ańǵa shıǵıwdan aldın eń áhmiyetli ańshılıq háreketlerin kóp máртеlep qaytalap “ańshılıq oynaǵan”.

Etnograflardıń atap ótiwınshe XIX ásirlerdiń 60-jılları Avstraliyada aborigenler ańǵa shıǵıwdan aldın, jırtqısh haywanlardıń súwretin qumǵa sıızıp, oǵan nayza ılaqtırıp dástúr bolǵan, bunda hár bir ańshı óz nayzasın anıqlaw hám kúshlirek atıwǵa háreket qılǵan.

Solay etip adamlar nayza ılaqtırıp shınıǵıp etiw menen birge ózleriniń miynet iskerligin rawajlandırıp bekkemlep barǵan.

Miynet háreketlerine fizikalıq shınıǵıp funkciyasınıń beriliwi adamǵa birinshiden fizikalıq rawajlanıwdıń effektivligin, ekinshiden jumıs hám miynet iskerliginiń joqarılawına múmkinshilik berdi.

Algashqı adamlar háreket sheberligin jetilistiriw arqalı tek ǵana jaqsı miynet etiwdi, ańshılıq qılıwdı, urısıwdı úyrenip qoymastan, hátte ózlerin fizikalıq rawajlandırıwı múmkin ekenligin túsiniw jetedi. Bunıń barlıǵı fizikalıq mádeniyattıń payda bolıwın belgilewshi tiykarǵı faktor ekenligi sózsiz [2].

Solay etip, dáslepki fizikalıq shınıǵıwlardıń adamdı miynet iskerligine tayarlaw ushın fizikalıq jetilistiriw ilaji sıpatında paydalanǵanın tariyxıy fakt retinde gúwalıq beriwge boladı. Eger olardı bahalaytuǵın bolsaq, onda álbette ápiwayılıq kózge taslanadı, biraq tap sol momentten baslap, zamanagóy fizikalıq mádeniyat payda boldı dep esaplaw durıs boladı.

Fizikalıq shınıǵıwdı fizikalıq mádeniyat sistemasınıń fundamental deregi sıpatında qaraw kerek. Bunı tómendegishe túsindiriw múmkin, fizikalıq shınıǵıwdıń payda bolıwı, onı qollanıw usılların islep shıǵılıwın, shólkemlestiriliwin hám hár tárepleme shınıǵıwdı támiyinlewin, miynet iskerligi talabına muwapıq fizikalıq rawajlanıwdıń kriteriyasın islep shıǵılıwına shaqırıq wazıypasın qoydı. Bunıń menen baylanıslı fizikalıq mádeniyattıń teoriyalıq hám shólkemlestirilgen-metodikalıq tiykarın dóretiw zárúrligi payda boldı.

Subyektiv faktor adamnıń sanası hám onıń talabında kórinedi. Sana tásiriniń payda bolıwı sonǵı, adam onıń járdemi menen miynet iskerligine tayarlawshı shınıǵıwlardı oylap taptı, aldınnan kórilgen tayarlıq hám miynet iskerliginiń nátiyjesi arasındagı baylanıstı ornattı, shuǵıllanıwlardı (trenirovka) shólkemlestirdi hám ótkerdi, alıńǵan tájiriybelerden paydalanıw sheberligin áwladtan-áwladqa jetkerip berdi, jas áwladtı tárbiyaladı. Fizikalıq mádeniyattıń payda bolıwında algashqı adamnıń turmıshlıq zárúrlikleriniń (miynet iskerligi, ańshılıq, qawimler ara urıs) tásirine keletuǵın bolsaq, endi bul fizikalıq mádeniyat hám sport tarawınıń belgili qanıgeleri N.I.Ponomarev, L.Kun, V.V.Stolbov, V.K.Pelmenov, E.V.Koneeva, V.N.Bulyanov, I.V.Pereverzev, G.S.Demeter miynetlerinde óz tastıyıqlawın tapqan, ilimiy dálillengen hám hámme maqullaǵan fakt bolıp esaplanadı.

N.I.Ponomarev óziniń fundamental izertlewlerinde sonday dep jazadı: “Miynet hám jámiyetlik islep shıǵarıwdıń tariyxıy miyras bolıw zárúrligi fizikalıq



мáдениyаттíн payда болиwíнíн себепshиси болip есапланадí”. Физикалq шíнігíwлардí барqulla payдаланíw адамнíн маqсетке еrisíwдеgi isenimin bekkemledi, áсте-ақırın шíнігíwлардí áмелде қолланíwға имканиyат жаратıldı Һам тákíрарланíw нáтиyjesinde keyingi áwладлар bekkemlep bardí, физикалq шíнігíwлардí payда etiw processí olardıń mazmunına qaray konkret jol boylap dawam etip bardí.

Juwmaq Һам usınıslar. Физикалq шíнігíwлар физикалq тарбия нízамíнн talabına baylanıslı rawajlandí [5]. Улíwма алғанда izertlewden usınday juwmaqqa keliwge боладí: insanníн insan болиwında тек ғана miynet quralınıн jetilisip барıwı, бáлkim тураqlı túрде óз denesin rawajlandırıw, insan zatın tiykarǵı islep shıǵarıw kúshine aylandırıw zárúr áһmiyetti payда etedi.

Анshılıq қılıw маqsetinde miynetten zárúr qural sıpatında paydalana bilíw jaҺa Һáреket саpalarıníн (mıсалı, jumıstan aldın тáсir etiw kúshiniн artıwı, tezlik, shıdamlılıq Һам aktivlik h.t.b.) саpалılıǵın talap ete basladı.

Adam sheksiz biologiyalıq Һúkimranlıqtan qutıladı, бираq oníң kelesheginde social-tariyxıy нízamlar tiykarǵı belgilewshi болip keledi. Miynet sebepli адамнíн физикалq kórinisi ózgerdi, oníң joqarǵı nerv iskerligi, organizm dúzilisi Һам wazıypaları rawajlanıp bardí. Bul process áyyemgi tariyxtıң eҺ kesh dáwirinde болip ótken (e.a. 7-8 mıń jıllıq). Bul waqıtta ótkir ushlı Һам súyekten jasalgán kúshli ılaqtırıw quralları payда boldí. Jasawdıң bas deregi iri haywanlardı awlaw edi. Biraq mamontlar, úngir ayıwları Һам iri kesirtkeler adam ushın qáwipli qarsılas болip qaldı. Olardı tabıslı awlaw тек ғана aldınнан tayarlanılǵan Һам sinap kórilgen ilajları, барlıq qáwim aǵzalarıníң shólkemlesken iskerligi támiyinlewi múmkin edi. Belgili proceste adam ılaqtırıw quralı sıpatında túrli tayaq, toqmaq, nayza Һам sol sıyaqlı buyımlardan tabıslı paydalanıwdı úyrendi. Ol ózi ushın ılaqtırıw usılın ashtı, yaǵnıy belgili dárejede ushıwdıң uzaqlıǵın uzaytırw jolların taptı. Ílaqtırıw quralın qollanıw procesinde, óz bulshıq etlerin boysındırıp, oljanıң uzaqlıǵına baylanıslı halda jumsalatuǵın energıyanı shamalaw, óz is-Һáреketlerin basqara alıw qábiletine iye boldı. Bul mısallar joqarıдаǵı teoriyanıң haqıyqatqa jaqın keletuǵınan derek beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Гаил В.В. Краткая история физической культуры и спорта ГОУ ВПО УГТУ-УПИ. - Екатеринбург, 2006, с. 4-5;
2. Голошапов Б.Р. История физической культуры и спорта (Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений). – Москва: «Академия», 2001. - с. 5;
3. Захаров П.И. История физической культуры и спорта: учебно-методический комплекс. - Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2009. – с. 15;
4. Пелменов В.К., Конеева Е.В. История физической культуры (Учебное пособие). – Калининград, 2000. – с. 5;
5. Пономарев Н.И. Возникновение и первоначальное развитие физического воспитания. – Москва, 1970. – с. 216.



ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT IXTISOSLIGI TALABALARI MUVOZANAT SAQLASH QOBILIYATINI OSHIRISH USLUBIYATI

Ernazarova Raya Allanazarovna

assistent-o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Raya28081981@gmail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalarini mashg‘ulotlarini integratsiya qilish, shu bilan birga jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni muvozanat saqlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlardan foydalanish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Adaptiv, jismoniy imkoniyat, nogiron, nazologiya, parasport, integratsiya, moslashtirish, korreksion vosita.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об интеграции занятий студентов, специализирующихся в адаптивной физической культуре и спорте, с использованием специальных упражнений, направленных на улучшение способности к поддержанию равновесия у студентов с ограниченными физическими возможностями.

Ключевые слова: адаптивная физическая культура и спорт, лица с ограниченными физическими возможностями, нозология инвалидности, параспортивные виды, интеграция, адаптация, коррекционные средства и методы, социализация, учебный процесс.

Abstract: This article provides information on the integration of training for students specializing in adaptive physical education and sports, as well as the use of special exercises aimed at improving balance abilities in students with physical disabilities.

Key words: Adaptive, physical ability, disability, nosology, parasport, integration, adaptation, correctional tool.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda adaptiv sport turlari bilan muntazam shug‘ullanish uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni maxsus harakat imkoniyatlarini oshirish uslubiyatini takomillashtirish hamda para sport turlari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash talabini qo‘ymoqda [2; 3-4-b]. Imkoniyati cheklangan talabalarni nogironlik nazologiyalaridan kelib chiqib muvozanat saqlash qobiliyatini oshirishni tizimli tashkillashtirish hamda sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishda qo‘llaniladigan vosita va usullarni tayanch-harakat apparatida shikastlangan va jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar harakat



faolligini oshirishga va koordinatsion qobiliyatini instrumental metodlar orqali rivojlantirib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalari muvozanat saqlash qobiliyatini oshirish uslubiyati bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

1. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mashg‘ulotlarini o‘rganish va tahlil qilish.
2. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisoosligi talabalari mashg‘ulotni integratsiyasini ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili.

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar bilan olib boriladigan adaptiv jismoniy tarbiya va sport faoliyati, ayniqsa, talabalar o‘rtasida muvozanatni saqlash qobiliyatini oshirish masalalari so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot markazida turibdi. Bu yo‘nalishda jahon va milliy olimlar tomonidan bir qator nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, M.X. Mirjamalov va R.M. Matkarimovlar o‘z tadqiqotlarida nogironligi bor shaxslarni adaptiv sportga jalb etishda nozologiyaga asoslangan yondashuvni ilgari surganlar. L.B. Sobirova, R.F. Odilov, S.D. Berdiev, Ch.A. Berdieva kabi mutaxassislar esa jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun mashg‘ulotlarni optimallashtirish, ularda harakat faolligini oshirish va moslashuvchan dasturlarni qo‘llash yuzasidan nazariy va metodik asoslar yaratganlar.

Yosh toifalari bo‘yicha (tiflo, surdo, oligofren bolalar) individual yondashuvni shakllantirishda F.M. Muradov tomonidan “oxista qadam” metodikasi asosida maxsus dasturlar tavsiya etilgan. Shuningdek, paralimpiya sport turlarida yuqori natijalarga erishish va psixofiziologik tayyorgarlik usullarini tadbqiq etish borasida E.A. O‘rinboev ishlarida amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Jahon amaliyotida esa adaptiv jismoniy tarbiya va sport tizimini qayta tashkil etish, shaxslarni jamiyatga integratsiyalash, individual ehtiyojlarini qondirish va tashqi muhitga moslashishini ta'minlash bo‘yicha umumlashtirilgan yondashuvlar qo‘llaniladi. Xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Rossiya kabi mamlakatlarda reabilitatsiya va adaptatsiya jarayonlari funktsional modellarga asoslangan holda tashkil etiladi. Ushbu ilmiy ishlar tahlili mazkur tadqiqotda tavsiya etilgan modelning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Metodologiya.

Tadqiqotning metodologik asosini muammoni tizimli o‘rganish, funktsional va nazariy modellashtirish, eksperimental tekshirish va natijalarni tahlil qilish usullari tashkil etadi. Asosiy yondashuv – integratsiyalashgan adaptiv mashg‘ulot modelini shakllantirish va uni amaliyotga tadbqiq etishga qaratilgan.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:



Diagnostic bosqich – jismoniy imkoni cheklangan talabalarining muvozanat saqlash qobiliyatini aniqlash, boshlang‘ich holatini baholash va individual xususiyatlarni (nozologiya, patologiya, fiziologik holat) aniqlash.

Tadqiqot dasturini ishlab chiqish – adaptiv sport va rehabilitatsiya bo‘yicha mutaxassislar bilan hamkorlikda muvozanatni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar kompleksi tuzildi. Bu mashqlarga virtual simulyatsiya, interaktiv qurilmalar, tenza asboblari va individuallashtirilgan dasturlar kiritildi.

Eksperimental bosqich – tadqiqotda ishtirok etgan talabalar bilan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazilib, ularning muvozanat saqlash qobiliyatidagi dinamik o‘zgarishlar kuzatildi. Ushbu jarayonda “doimiy nazorat va baholash” mexanizmi asosida natijalar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalarni baholash – eksperiment natijalarida muvozanatni saqlash qobiliyatida sezilarli yaxshilanish kuzatilib, modelning samaradorligi isbotlandi.

Tadqiqot metodologiyasida kvalitatif va kvantitativ tahlil usullari, mutaxassislar intervyulari, sotsiometrik va funktsional diagnostika metodlaridan foydalanildi. Modelning samaradorligi taxmin – tahlil – eksperiment – natija zanjiri asosida tekshirildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Respublikamizda bir qator mualliflarimiz nogironlikni ma’lum turida sport mashg‘ulotlariga moslashish nazariyasi hamda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni nozologik guruhlarida OTM larga qabul qilish mezonlari bo‘yicha M.X.Mirjamalov, R.M.Matkarimov, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mashg‘ulotlarini optimallashtirish bo‘yicha L.B.Sobirova, R.F.Odilov, S.D.Berdiyev, Ch.A.Berdiyeva va maktabgacha yoshdagi tiflo, surdo va oligofren bolalarga tabaqalashtirilgan oxista qadam dasturini qo‘llash bo‘yicha F.M.Muradov, paralimpiya sport turlarida yuqori natijalarni qayd etish bo‘yicha E.A.O‘rinboyev va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli konseptual izlanishlar olib borilgan.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni moslashtirishda adaptiv jismoniy faoliyatning jahon amaliyotida, nogironligi bor shaxslarni jamiyat makrotuzilmasidagi sabab-ta’sir munosabatlar muhim hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni moslashtirish uchun umumlashtirilgan yondoshuvchlar mavjud, jumladan, nogiron va salomatligi bilan bog‘liq muammolar bo‘lgan odamlarning ehtiyojlarini qondirish hamda ularga tashqi muhitni moslashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari iqtisod, ijtimoiy soha, fan va texnika, ta’lim, madaniyat va san’atda jamiyat va davlat tuzilmalari va institutlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishga qo‘shgan hissasi shunchalik sifatli bo‘lishi muhim omillardan hisoblanadi.


Adaptiv jismoniy tarbiya (salomatligida muammolar bo‘lgan shaxslarning jismoniy tarbiyadir) sog‘lom turmush tarzi orqali shaxsiy ehtiyojlarning amalga oshirilishini ta’minlaydigan salomatlik darajasini saqlash hamda oshirishning



markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy faollik, bo‘sh vaqt, faol dam olish va muloqotni oqilona tashkil etish, axloqiy rivojlanish hamda irodaviy fazilatlarni rivojlantirish muhim omillardan hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan insonga o‘z shaxsiyatini jismoniy-ma’naviy birlikda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari aqliy va jismoniy nuqsonlari bo‘lgan odamlarni moslashtirish hamda reabilitatsiya qilishda katta ahamiyatga ega ekanlii tadqiqotimiz davomida aniqlandi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bilimning mohiyati sanaladi. Tadqiqot mavzusining mazmuni va mantiqiy-tashkiliy tarkibiy qismlari va ilmiy bilimlarni shakllantirish usulini o‘z ichiga oladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni mashg‘ulot tizimini qurish tamoyillari, algoritmlari hamda amalga oshirish shakllarini qo‘llash mexanizmini ishlab chiqishgan.

Adaptiv jismoniy tarbiya va adaptiv reabilitatsiya tizimi va adaptiv sportni amalga oshirishning muhim omili reabilitatsiyaning asosiy ko‘p funktsiyali modellarini shakllantirishdan iborat. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni funksional modellarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Buni inobatga olib nazologik guruhlardan kelib chiqib tibbiy tashhis, (patologiya), fiziologiya, sport-tibbiy, motor-funksional, antropogenetik fazilalari aniqlandi hamda tahlil qilindi.



1-rasm. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalrni mashg‘ulot integratsiyasi



Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni jamiyatda ijtimoiylashuvini yaxshilashda pedagogik tibbiy moslashishi muhim hisoblanadi. Buni inobatga olib adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarni tashqi ta'sirga moslashtirishda zamonaviy texnologiyalar orqali soxani rivojlantirish, iqtisoiy imkoniyatlar, jamiyatning rivojlanish darajasi, texnik vosita va elementlar orqali jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar extiyojini qondirishga qaratilgan mashg'ulot integratsiyasi ishlab chiqildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talablarni muvozanat saqlash qobiliyatini yaxshilash hamda harakat og'ish graduslarini aniqlash maqsadida virtual simulyatsiyalar, interaktiv qurilmalar, tenza uskunasi va moslashtirilgan dasturlar orqali muvozanatni yaxshilash usullari tadbqiq etildi. Biz tomonimizdan tavsiya etilgan ushbu modelning ahamiyati jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mustaqil harakat qilish qobiliyatini oshirish, ularning parasport va adaptiv jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni psixologik barqarorlik va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi hamda turli xil jarohatlarni oldini olishda muhim model hisoblanadi. Biz tadqiqotimiz davomida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalari kasallik turlari bo'yisha parasport musobaqalarida ishtirokini ham tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning kasallik turi bo'yicha parasport turlarida ishtiroki

Sport turlari	Yengil atletika	Sport o'yinlari	Boshqa sport turlari	Jami
Kasallik turlari				
Falajlik	6	3	11	20
Orqa miya shikastlanishi	9	4	14	27
Tug'ma nuqson	2	1	1	4
Boshqa kasalliklar	3	1	5	9
Jami	20	90	31	60

Jadvalga asosan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar kasallik turlariga qarab parayengil atletika, sport o'yinlari hamda boshqa sport turlarida ishtiroki tahlil qilindi. Unga ko'ra falajlik jami 20 nafarni tashkil etib parayengil atletikada 6 nafar, sport o'yinlarida 3 nafar hamda boshqa sport turlari musobaqalarida 11 nafar falaj talabalar ishtirok etganligi aniqlandi. Orqa miyasida shikastlanishi bor talabalardan 9 nafari yengil atletika, 4 nafari sport o'yinlari hamda 14 nafari boshqa sport turlarida ishtirok etishdi. Tug'ma nuqsonga ega bo'lgan talabalarning 2 nafari yengil atletika, 1 nafari sport o'yinlari hamda 1 nafari boshqa sport turlarida ishtirok etishdi. Boshqa kasalliklar bilan kasallangan talabalar yengil atletika sport turida 3 nafar, sport o'yinlarida 1 nafar hamda boshqa sport turlarida 5 nafar ishtirok etishdi.



Xulosa. Biz tomonimizdan adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalarni mashg‘ulotlarini integratsiya qilish modelini qo‘llash orqali jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni nozologik guruhlari asosida parasport musobaqalarida ishtirok etish imkoniyati kengaytirildi. Shu bilan birga jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari umumiy hisobda 13,8% ga yaxshilanishga erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-son “Paralimpiya harakatini rivojlantirish”ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-oktabrdagi PQ-599-son “O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-iyuldagi PQ-302-son “Nodavlat sport-ta’lim muassasalarida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilarni tayyorlash va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
4. Mirjamalov M.X. Ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslarda jismoniy tarbiya va sport texnikasiga o‘rgatish asoslari // Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiylatining nazariy-amaliy muammolari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2022. – B. 1641-1644.
5. Sobirova L.B., Odilov R.F., Baxtiyorov D.B., Saidov U.A. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni vositalar orqali yuqori natijalarga erishishda motivatsiyaning o‘rni // Scientific journal Impact factor Scientific progress Vol.3 Iss. 10,2022 I Iss.2181-1601. - pp.97-103
6. Sobirova L.B., Atamuratov X.X. Imkoniyati cheklangan talaba qizlarni nozologiya bo‘yicha sport mashg‘ulotlarining samarali tizimini yaratish uslubiylati // Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiylatining nazariy-amaliy muammolari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Chirchiq, 2022 – B.1678-1680.
7. Muradov F.M. Development of coordination skills in children aged 6-7 years with disabilities through action games. Eurasian Journal of Sport Science 2021; Vol. 1: Iss. 2, article 15. – pp. 92-97 [13.00.00 №2]



DZYUDOSHÍ QÍZLARDÍ TEXNIKALÍQ TAYARLÍQQA ÚYRETIW HÁM INDIVIDUAL HÁREKETLERDI RAWAJLANDÍRÍW

Darmenbaeva Klara Azatbay qizi

Stajyor oqitiwshi

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filiali

darmenbaeva_klara@gmail.com

Annotaciya: *Bul maqalada dzyudoshi qizlardiń jaris iskerligin kórip shıǵamız. Baslanǵısh tayarlıq basqışındaǵı dzyudoshi qizlardi texnikalıq tayarlawdan ótkeriw hám talqılaw olardıń bellesi waqtındaǵı iskerligi kórsetkishleri. Maqalada individual háreketi qalıplestiriw boyınsha usınıslar islep keltirip ótilgen.*

Tayanış sózler: *Dzyudo gúresi, sport, fizikalıq mádeniyat, texnikalıq tayarlıq, taktikalıq tayarlıq jaris aldı tayarlıq processı.*

Аннотация: *В этой статье мы рассмотрим соревновательную деятельность дзюдоисток. Проведение и анализ технической подготовки девушек-дзюдоисток на этапе начальной подготовки показывает их результативность во время соревнований. В статье разработаны рекомендации по формированию индивидуального поведения.*

Ключевые слова: *Дзюдо, спорт, физическая культура, техническая подготовка, тактическая подготовка - это процесс предсоревновательной подготовки.*

Abstract: *In this article, we will examine the competitive activity of female judokas. Technical training of female judokas at the initial training stage and analysis of their performance indicators during competitions. The article presents recommendations for the development of individual behavior.*

Key words: *Judo wrestling, sports, physical culture, technical training, tactical training - the pre-competition preparation process.*

Kirisiw. Dúnya kóleminde dzyudoshi qızlar gúresi sport túri mámleketler hám sporshılar arasındaǵı kúshli báseki sebepli tez rawajlanbaqta. Jáhán qızlar dzyudo gúresinde básekinin kúsheyiwi sportshılardıń individual texnikalıq tayarlıǵın arttırıw hám fizikalıq qábiletlerin rawajlandırıw ushın nátiyjeli strategiyalardı islep shıǵarıw zárúrligin tuwdırmaqta. Bunday strategiyalar gúresshilerdin básekige shıdamlı olardıń texnikalıq hám taktikalıq kónlikpesi qánigeliklerin rawajlandırıwǵa, sonday-aq fizikalıq hám psixologiyalıq tayarlıq dárejelerin joqarı dárejesine alıp shıǵıwǵa qaratılǵan. Bul kóz qaras dúnya arenalarında joqarı nátiyjelerge erisiw ushın tiykarǵı faktorlar sıpatında qaralmaqta.

Ádebiyatlar analizi.

Zamanagóy sport iliminde dzyudoshılardıń individual ózgesheliklerin úyreniw hám olardıń texnikalıq hám fizikalıq tayarlıǵın jetilistiriw boyınsha bir qatar ilimiy



jumislar alıp barılğan. Olimpiada chempionları hám qánige ilimpazlar tárepinen tayarlıq processlerin tallaw tiykarında nátiyjeli metodikalıq qatnaslar islep shıǵılğan. Bul jumislar usı izertlew ushın ilimiy tiykar bolıp xızmet etti.

Izertlew metodologiyası.

Izertlewde sporshılardıń bellesiw waqtındaǵı texnikalıq háreketleri hám individual kórsetkishleri videobaqlaw hám pedagogikalıq tallaw arqalı úyrenildi. 52, 57 hám 63 kg kategoriyalarındaǵı qızlar dzyudosi boyınsha 540 bellesiw tallandı. Hár bir salmaq kategoriyası boyınsha óz aldına nátiyjeler esaplap shıǵıldı hám texnikalıq tayarlıq dárejeleri bahalandı.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022-jıl 14-fevraldaǵı “Kelesi jazǵı hám qısqı Olimpiada hám Paralimpiada oyunlarında Ózbekstan sportshılarınıń tabıslı qatnasıwı ushın tayarlıq jumisların jedellestiriw haqqında”ǵı PQ-127-sanlı qararı hám 2020-jıl 4-noyabrdegi “Kurash milliy sport túrin rawajlandırıw hám onıń xalıq aralıq abırayın jáne de arttırıw ilajları haqqında”ǵı PQ-4881 sanlı qararları, jáhán arenalarında gúres sportın jánede rawajlandırıw gúres sport túri boyınsha nátiyjelerin arttırıwdı zamanagóy metodikalardı islep shıǵıwdı názerde tutadı.

Nátiyjeler hám dodalaw.

Óz gezeginde qızlar dzyudo gúresi boyınsha jáhán arenalarında joqarı nátiyjelerdi saqlap qalıw gúresshiler ushın tayarlıqtıń hár qıylı tárepi sporshılardıń individual qásiyetlerin úyreniw talabı qoyılmaqta. Sonnan úsh márte olimpiada oyunları chempionı A.Taymazov, Z.Artikov, Sh.Mirzanov, Z.Artikov, M.Qırǵızboev, Z.Bakiyev, A.Zaxarov, Sh.Ǵaziev tárepinen gúresshilerdiń tayarlıǵın jetilistiriw boyınsha alıp barılğan izertlewler zamanagóy sporttıń ilimiy jetiskenligi esaplanadı. Zamanagóy dzyudoda joqarı nátiyjelerge erisiw ushın sporshılardıń jarıs iskerligin analiz etiw hám sporshılardıń texnikalıq táreplerin úyreniw áhmiyetli esaplanadı. Dzyudoshı qızlardıń individual kórsetkishlerin tekseriw joqarı sport nátiyjelerine erisiw ushın metodikalar islep shıǵıw áhmiyetli faktorlardıń birewi esaplanadı.

Xalıq aralıq maydanlarda ózbek palwan qızlarınıń joqarı nátiyjelerge erisiwi hámde usı jetiskenliklerdi jánede jetilistiriw ushın jańa metodikalardı islep shıǵıw zárúrligi tuwılmaqta. Dzyudoshı qızlardıń tayarlıq procesin jetilistiriwde qızlardıń tayarlıq procesin hám jarıs iskerligin analiz etiw zárúr. Jarıs iskerligin analiz qılıw arqalı qızlardıń individual oyunları, Ózbekstan chempionatı, Ózbekstan kubogı jarısları hám hár túrli ashıq turnirler hám birinshilikler tańlandı. Dzyudoshı qızlardıń jarıs iskerligin analizi tiykarında individual texnik tayarlıqtı anıqlaw boyınsha izertlewler alıp barıldı.

Alıp barılğan izertlew jumislarınıń kópshiligi jumislardı analiz etiwge arnalğan. Texnikalıq tayarlıqtıń keń kólemli táreplerine unamlı tásir kórsetiw ushın gúrestegi belgilengen iskerlik dárejesin modellestiriw de áhmiyetli. Bul ásirese, jarıs bellesiwdiń intensivliginiń joqarılıǵı, olardıń oqıw shárayatındaǵı júkemelerden sezilerli dárejede parıqlanıwına baylanıslı. Sol sebepli biz hár minutta salmaq



kategoriyası hár qıylı dzyudoshı qızlardın texnikalıq háreketleriniń sanın hám sapasın úyreniwge qarar ettik sonday-aq, waqıt barısı hám ulıwma ushırasıw dawamında bul háreketlerdi tańladıq.

Alınğan maǵlıwmatlar tiykarındaǵı bellesiwlerdegi texnikalıq háreketler sanı hám nátiyjeliligi anıqlandı. 52 kg, 57 kg nan 63 kg ǵa shekemgi awırılıq kategoriyalarındaǵı dzyudoshı qızlardın 34 bellesiwi tańlandı. Bul processte ózimizdiń pedagogikalıq baqlawlarımız hám video talqılaw materiallarınan paydalandıq. Úyrenilgen barlıq texnikalıq tayarlıq kórsetkishlerin hár bir salmaq kategoriyası ushın óz aldına esaplaw ámelge asırıldı. Izertlewlerimiz mámleketimiz basqa mámleketler jetekshi dzyudoshı qızlarınıń jarısı jumısınıń analizi tiykarında ámelge asırılǵan bolıp, Jáhán chempionatı, Jáhán kubogi, “BRIKS” oınları, Ózbekstan chempionatı, Ózbekstan kubogi jarısları hám hár túrli ashıq turnirler hám birinshilikler tańlandı. Jámi 540 bellesiw analiz etilgen bolıp, sonnan, 240 bellesiw xalıq aralıq dárejedegi 5 jarısta 80 dzyudoshı qızlardın bellesiwi, 300 dzyudoshı qızlardın bellesiwi bolsa respublika chempionatı, respublika kubogi, universiada jarıslarında qatnasqan 120 dzyudoshı qızlardın bellesiwleri tańlandı. Ózbekstan hám dúnyanın eń kúshli dzyudoshı qızlarınıń jarıs iskerligin salıstırıw ushın 2024-jıllarda alınğan nátiyjeler analiz etildi.

1-keste

52-57-63 kg salmaq kategoriyasındaǵı tájiriybeli dzyudoshılardıń talqılانған jarıs bellesiwleri analizi

Salmaq kategoriyaları	52	57	63	Jámi
Xalıq aralıq jarıslar	80	80	80	240
Respublikalıq jarısları	100	100	100	300
Ulıwma bellesiw sanı	540			540

52, 57, 63 kg salmaq kategoriyasındaǵı gúresshilerdiń xalıq aralıq jarıslardaǵı 120 bellesiwi analiz etilgende, jeńil salmaq kategoriyasındaǵı dzyudoshı qızlardın hár bir ushırasıwında hújim texnikası háreketleri boyınsha ámelge asırılǵan urınıwlar sanı kórsetkishi boyınsha ońǵa 10,54 hám shepke 5,6 hújim ámelge asırılǵan. Hújim texnikası háreketler boyınsha tabıslı urınıwlar sanlı kórsetkishi boyınsha ońǵa 5,06 hám shepke 3,23 hújim ámelge asırılǵan. Hár bir ushırasıwdaǵı hújimlerdeń nátiyjelilik koefficienti ońǵa 48,98% hám shepke 56,24% ti quraydı. Sonday-aq, respublikalıq jarıslarda bellesiwlerde jeńil salmaq kategoriyasındaǵı dzyudoshılardıń 300 jarıs bellesiwleri analiz islengende gúresshiler tárepinen orınlanǵan urınıwlardın nátiyjeleri tómendegishe boldı: háreketler sanı boyınsha: ońǵa jámi 8,49 hújim, shepke bolsa 3,41 hújim ámelge asırılǵan tabıslı urınıwlar sanı boyınsha: ońǵa jámi 3.06 tabıslı hújim, shepke bolsa 1.93.

Ótkerilgen talqılaw nátiyjelerine bola respublikalıq jarıslarında dzyudoshılar tárepinen ámelge asırılǵan texnikalıq urınıwlar sanı xalıq aralıq jarıslarda dzyudoshılar tárepinen ámelge asırılatsuǵın urınıwlar sanınan az ekenligi anıqlanǵan.



Respublikalıq jarıslarda dzyudoshılar tárepinen ámelge asırılğan texnikalıq urınıwlar sanı xalıq aralıq jarıslarda ámelge asırılğan urınıwlar sanınıń kórsetkishi boyınsha óń tárepke hújimler sanı 2,05 te, shep tárepke hújimler sanı 2,19, texnikalıq urınıwlar az ekenligi anıqlandı.

Respublikalıq jarıslardağı texnikalıq urınıwlar sanı xalıq aralıq jarıslardağı texnikalıq urınıwlar sanınan kórsetkishi óń tárepke 2, shep tárepke 1.3 texnikalıq urınıwğa kemligi anıqlanğan bolsın kórsetkishi boyınsha bolsa, óń tárepke hújimler shepke 5.4 hújim háreketlerine ortasha 1.46 ball berilgen.

2-keste

52-57-63 kg salmaq kategoriyasındağı tájiriybeli dzyudoshılardıń xalıq aralıq jarıslardağı texnikalıq háreketleri analizi.

52-57-63 kg	m		i		A	
	Hújim texnikalıq urınıwlar sanı		Tabıslı texnikalıq urınıwlar sanı		Texnikalıq urınıwlar ushın berilgen ballar	
	Hújim (ońğa)	Hújim (shepke)	Hújim (ońğa)	Hújim (shepke)	Hújim (ońğa)	Hújim (shepke)
1 min	2,53 1,22 1,16		0,69		1,37	1,17
2 min	2,61	1,4	1,24	0,82	1,45	1,23
3min	2,67	1,46	1,3	0,88	1,51	1,29
4min	2,73	1,52	1,36	0,84	1,57	1,35
Jámi	10,54	5,6	5,06	3,23	5,9	5,04

Tabıslı hújim ámelge asırılğanlıǵı anıqlandı, ámeller boyınsha ońğa orınlanğanı hújimler ushın ulıwma 3.49 ball, shepke bolsa 1.85 ball berilgen. 57-68 kg salmaq kategoriyasındağı dzyudoshılar chempionatlarda hár bir hújim ushın ortasha 1,21 ball alǵan. Bul analiz dzyudoshılardıń jarısı jumısın bahalawda áhmiyetke iye bolıp, hújimlerdiń nátiyjeliligi hám tabıslılıǵı dárejesin kórsetedi.

3-keste

52-57-63 kg salmaq kategoriyasındağı tájiriybeli dzyudoshılardıń respublikalıq jarıslarındağı texnikalıq háreketleriniń nátiyjesi

52-57-63 kg	m		i		a	
	Hújimge texnikalıq urınıwlar sanı		Tabıslı texnikalıq urınıwlar sanı		Texnikalıq urınıwlar ushın berilgen ballar	
	Hújim (ońğa)	Hújim (shepke)	Hújim (ońğa)	Hújim (shepke)	Hújim (ońğa)	Hújim (shepke)
1min	2,01	0,89	0,8	0,52	0,91	0,49
2min	2,1	0,78	0,69	0,45	0,8	0,4
3min	2,16	0,84	0,75	0,49	0,86	0,46
4min	2,22	0,9	0,81	0,47	0,92	0,5
Jámi	8,49	3,41	3,06	1,93	3,49	1,85



Sanı 2.41 ge, shep tárepke hújimler sanı 3.19 ға shekem az ekenligi anıqlandı.

Tájiriybeli dzyudoshılardıń jarısı jumısı kórsetkishlerin analiz etiw tiykarında shınıǵıw procesinde texnikalıq tayarlıqtı jetilistiriw ushın tómendegi kóz-qaraslardı usınıs etemiz. Bárinen burın, jarıs dawamında sportshılardıń texnikalıq háreketleri hám olardıń nátiyjesin sistemalı túrde jazıp barıw hám analiz etiw, islew zárúr. Bul process hár bir sporshınıń individual ózgesheliklerin anıqlawǵa, sonıń ishinde qaysı texnikalıq usıllar nátiyjeli ekenligin bahalawǵa imkaniyat beredi. Bunnan tısqari, video jazıwlar hám zamanagóy texnologiyalar járdeminde qarsılaslardıń biomexanikalıq qásiyetlerin úyreniw texnikalıq islewge xızmet etedi. Anıqlanǵan qásiyetlerge tiykarlanıp, hár bir sporshı ushın individual tayarlıq járdemlesiw baǵdarlamasın dúziw kerek. Bul baǵdarlama sportshı kúshi hám kúshsiz táreplerin rawajlandırıw táreplerin saplastırıwǵa qaratılǵan arnawlı shınıǵıwlardı óz ishine alıwı kerek. Shınıǵıwlarda hár túrli taktikaǵa iye bolǵan qarsılaslar menen jumıstı shólkemlestiriw hám jedel qarar qabıl etiw kónlikpelerin rawajlandırıwǵa itibar qaratıw da zárúr. Barlıq procesti turaqlı talqılaw islew hám ilimiy tiykarlangan maǵlıwmatlar menen bayıtıw texnikalıq shınıǵıwlardı jáne de arttırıwǵa arnawlı islewge járdem beredi. Sol arqalı dzyudoshılardıń jarıslardaǵı tabısları asırıwǵa erisiw múmkin.

Juwmaq. Tájiriybeli dzyudoshılardıń háreket iskerligi kórsetkishleri analizi arqalı olardıń texnikalıq tayarlıǵındaǵı individual qásiyetlerdi anıqlaw múmkin. Sportshılardıń individual ózgesheliklerin úyreniw hám olardı jarıs iskerliginde qollanıw belgilenetuǵın texnikalıq usıllardıń nátiyjeliligin bahalaw, shınıǵıwlardı jáne de nátiyjeli shólkemlestiriw islew imkaniyatın beredi. Video analiz hám statistika maǵlıwmatlardan paydalanıw arqalı gúresshiler olardıń háreketlerin tereń tańlaw kúshli hám kúshsiz táreplerin anıqlaw hám sol tiykarda shınıǵıw baǵdarlamaların individual túrde dúziw múmkin. Sonday-aq, hár qıylı qarsılaslar menen shınıǵıw islew hám psixologiyalıq tayarlıqtı kúsheytiw sportshılardı jarıslar ushın jáne de jaqsıraq tayarlaydı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Istomin A.A. Dzyudo kurashi. Tashkent, 1993.
2. Elov A.N. Dzyudo, Tashkent / 2005.
3. Югай Л.П. Основы дзюдо. Ташкент, 2003 г.
4. Куванов В.А. Методика предотвращения травмоопасных ситуаций в тренировочной и соревновательной деятельности по вольной борьбе / И.В.



YOSH SPORTCHILARDA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MURABBIY YONDASHUVINING O‘RNI

Saparniyazov Sansizbay Qadiriyaovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

ssaparniyazov1972@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini yaxshilashda individual murabbiylik yondashuvining samaradorligi o‘rganildi. Eksperimental guruhda texnik aniqlik, taktik qaror qabul qilish tezligi, pozitsiya tanlash va faollik ko‘rsatkichlarida sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari sport murabbiylariga innovatsion metodlarni joriy etishda amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: texnik-taktik tayyorgarlik, individual yondashuv, yosh sportchilar, sport murabbiyligi, jismoniy tarbiya.

Аннотация: В данной статье изучается эффективность индивидуального подхода тренера в улучшении технико-тактической подготовки молодых спортсменов. В экспериментальной группе наблюдалось значительное улучшение показателей технической точности, скорости принятия тактических решений, выбора позиции и активности. Результаты исследования предоставляют практические рекомендации для внедрения инновационных методов в тренерскую деятельность.

Ключевые слова: технико-тактическая подготовка, индивидуальный подход, молодые спортсмены, тренерская деятельность, физическое воспитание

Abstract: This article examines the effectiveness of an individual coaching approach in enhancing the technical and tactical preparation of young athletes. Significant improvements were observed in the experimental group regarding technical accuracy, tactical decision-making speed, position selection, and activity level. The study results provide practical recommendations for implementing innovative methods in coaching practices.

Key words: technical-tactical preparation, individual approach, young athletes, coaching, physical education

Kirish. Bugungi kunda sport jadal rivojlanayotgan, xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiluvchi sohalaridan biridir. Sportchilarning yutuqlari faqatgina jismoniy kuch va chidamlilikka emas, balki ularning texnik ko‘nikmalari va taktik fikrlash qobiliyatiga ham bevosita bog‘liq. Ayniqsa, 12–17 yosh oralig‘idagi sportchilar uchun texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantirish — ularning kelajakdagi sport



faoliyatiga poydevor yaratish, raqobatbardoshlik darajasini oshirish va psixologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Sport mashg'ulotlarining samaradorligi, eng avvalo, murabbiyning yondashuvi va trening jarayonini qanday tashkil etishiga bog'liq. Murabbiy yosh sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, texnik va taktik tayyorgarlik elementlarini aniq va maqsadga muvofiq tarzda uyg'unlashtirishi lozim. Aks holda, sportchi jismonan kuchli bo'lsa ham, musobaqalarda tezkor qaror qabul qilishda, to'g'ri joylashuvni tanlashda yoki raqib harakatlarini oldindan sezishda qiynaladi. Aynan shunday holatlar sportchining texnik-taktik saviyasi pastligidan dalolat beradi.

Texnik tayyorgarlik sportchining sport turi bo'yicha zarur bo'lgan harakatlarni mukammal bajarish qobiliyatidir. Bunga yugurish, sakrash, zarba berish, to'siqlardan o'tish, ushlab qolish kabi harakatlar kiradi. Taktik tayyorgarlik esa musobaqa davomida voqealarni oldindan tahlil qilish, raqib harakatlariga javob topish va sharoitga qarab eng to'g'ri qarorni qabul qilish jarayonidir. Ushbu ikki element bir-birini to'ldirib boradi va birgalikda sportchining umumiy tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Murabbiylar ko'p hollarda jismoniy yuklamalarga e'tibor qaratib, texnik va taktik o'rgatish masalasini ikkinchi darajaga surib qo'yishadi. Natijada, sportchi yaxshi yuguradi, ko'p mashq qiladi, lekin o'yindagi harakatlarda tartibsizlik, noaniqlik va reaksiyaning sekinligi kuzatiladi. Bu esa sportchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytiradi, natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, sport mashg'ulotlari har tomonlama muvozanatli olib borilishi, ayniqsa texnik-taktik ko'nikmalar murabbiy tomonidan puxta rejalashtirilgan bo'lishi zarur.

Bugungi sport ilmi shuni isbotlamoqda-ki, yosh sportchilar bilan ishlashda individual yondashuvlar, videoanaliz, kichik guruhli taktik o'yinlar, simulyatsion mashg'ulotlar (o'xshash sharoitda real vaziyatlarni model qilish) texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. Bu metodlar orqali sportchining nafaqat jismoniy harakatlari, balki tafakkuri, tezkorlik va qaror qabul qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Shuningdek, texnik-taktik tayyorgarlikning samarali olib borilishi murabbiy va sportchi o'rtasidagi psixologik aloqaning ijobiy bo'lishiga ham xizmat qiladi. Bu esa motivatsiyani oshiradi, sportchining sportga bo'lgan qiziqishini mustahkamlaydi va uni doimiy o'sishga yo'naltiradi. Murabbiy tomonidan har bir sportchiga nisbatan individual yondashuv, ya'ni uning o'ziga xos qobiliyatlari va kamchiliklarini aniqlab, ularga muvofiq mashg'ulot shakllarini qo'llash, bu jarayonda texnika va taktikaning o'zaro bog'liqligini doimiy tushuntirish natijani sezilarli darajada oshiradi.

Ushbu maqolada yosh sportchilarda texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, murabbiyning bu jarayondagi metodik



yondashuvlari, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar, shuningdek eksperiment asosida o‘rganilgan natijalar tahlil qilinadi. Maqsad – zamonaviy murabbiylik metodikalarining texnik-taktik tayyorgarlikdagi o‘rnini ochib berish va yosh sportchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – yosh sportchilarda texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishda murabbiyning metodik yondashuvining o‘rnini aniqlash, mavjud trening usullarini tahlil qilish hamda amaliy mashg‘ulotlar asosida eng samarali yondashuvlarni taklif etishdan iboratdir.

Tadqiqot obyekti sifatida 12–16 yoshli yosh sportchilar tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa sportchilarda texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantirishga murabbiylik yondashuvlarining ta’siridir.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Birinchidan, nazariy tahlil orqali texnik-taktik tayyorgarlikka oid adabiyotlar, davlat dasturlari va murabbiylik qo‘llanmalari o‘rganildi. Ikkinchidan, eksperimental metod yordamida amaliy mashg‘ulotlar orqali ikki guruhda taqqoslov tajriba o‘tkazildi. Uchinchi metod – kuzatuv va suhbatlar orqali sportchilar hamda murabbiylarning faoliyati bevosita tahlil qilindi. To‘rtinchidan, matematik-statistik tahlil yordamida to‘plangan ma’lumotlar qayta ishlanib, grafiklar va raqamlar asosida umumlashtirildi.

Tajriba uchun ikki guruh tuzildi: eksperimental va nazorat guruhi. Har bir guruhda 15 nafar 12–14 yoshli sportchi bo‘lib, ular futbol va gimnastika yo‘nalishlarida shug‘ullanuvchilar edi. Eksperimental guruhda yangi, individual yondashuvga asoslangan trening tizimi joriy etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy uslubdagi mashg‘ulotlar davom ettirildi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich – tayyorlov davrida sportchilarning dastlabki texnik va taktik holati aniqlanib, testlar o‘tkazildi. Ikkinchi bosqich – asosiy trening davrida eksperimental guruhga individual mashg‘ulot rejasi asosida topshiriqlar berildi, videoanaliz, vaziyatli o‘yinlar, shaxsiy yondashuv kabi uslublar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa umumiy, klassik usullar asosida mashg‘ulotlar olib borildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 4 marta, har biri 90 daqiqa davomida o‘tkazildi. Uchinchi bosqich – yakuniy baholash bosqichida dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar solishtirilib, natijalar grafik va statistik ko‘rinishda tahlil qilindi.

Baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar asos qilib olindi: texnik aniqlik (harakatdagi xatolik darajasi), taktika bo‘yicha tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish vaqti, o‘yin vaqtida pozitsiya tanlash sifati, mashg‘ulotlardagi faollik darajasi. Bularni aniqlash uchun videoanaliz, kuzatuv jadvallari, testlar va murabbiylarning baholari asosida mezonlar belgilandi. Tadqiqotda Dartfish, Hudl kabi videoanaliz dasturlari, reaksiya o‘lchov testlari (Light-beep), trening kunliklari, murabbiy kuzatuv



varaqalari va monitoring jadvallari vosita sifatida qo'llanildi. Ushbu metodologik asoslar orqali texnik-taktik tayyorgarlikda yangi yondashuvlarning samaradorligi amaliy jihatdan isbotlab berilishi ko'zda tutilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari eksperimental va nazorat guruhlarining trening jarayonidan oldingi va keyingi texnik-taktik ko'rsatkichlarining taqqoslov tahlili asosida baholandi. Har ikki guruhda dastlabki bosqichda o'tkazilgan testlar orqali sportchilarning boshlang'ich holati aniqlanib, ularning texnik aniqligi, taktika bo'yicha qaror qabul qilish tezligi, harakatdagi koordinatsiyasi va o'yindagi pozitsiya egallash qobiliyati qayd etildi. Shundan so'ng, 6 haftalik mashg'ulotlardan keyin yakuniy testlar o'tkazilib, ko'rsatkichlar o'zaro solishtirildi.

Eksperimental guruhda treninglar individual yondashuv asosida olib borilgani sababli sportchilarning ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, texnik harakatlarda aniqlik, pozitsion o'yinlarda to'g'ri joylashish, qaror qabul qilish tezligida samarali o'sish qayd etildi. Quyida ayrim asosiy ko'rsatkichlarning dastlabki va yakuniy bosqichlardagi solishtirma natijalari keltirilgan:

Texnik aniqlik bo'yicha eksperimental guruh sportchilarida mashg'ulotlar oldidan o'rtacha 63% bo'lgan aniqlik darajasi yakunda 84% ga oshdi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich faqatgina 65% dan 70% ga ko'tarildi.

Taktik qaror qabul qilish tezligi bo'yicha eksperimental guruhda o'yin davomida vaziyatga munosabat bildirguncha o'tadigan vaqt 4.8 soniyadan 3.1 soniyaga qisqardi, nazorat guruhida esa 4.7 soniyadan 4.3 soniyaga qisqarish kuzatildi.

O'yin davomida to'g'ri pozitsiya tanlash ko'rsatkichi bo'yicha eksperimental guruh sportchilari o'rtacha 2.9 dan 4.5 ballgacha (5 ballik tizimda) ko'tarilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu faqat 3.0 dan 3.4 ballgacha ko'tarildi.

Faollik ko'rsatkichi (trening davomida faol ishtirok etgan va topshiriqlarni to'liq bajargan foiz) eksperimental guruhda 77% dan 91% gacha oshgan, nazorat guruhida esa 76% dan 80% gacha ko'tarilgan.


Shuningdek, murabbiylar tomonidan olib borilgan kuzatuvlar asosida eksperimental guruh sportchilarining motivatsiyasi, mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi, o'z-o'zini nazorat qilish darajasi yuqorilgani qayd etildi. Sportchilarning o'zlariga nisbatan ishonchi ortgani, mashg'ulotlarda faolroq ishtirok etayotgani ham aniqlangan.

Tadqiqot davomida to'plangan raqamli ma'lumotlar Excel dasturi yordamida qayta ishlanib, o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlar, foizlar va grafiklar orqali tahlil qilindi. Ularning statistik ishonchlilik darajasi ham baholandi. Barcha mezonlar bo'yicha eksperimental guruhda sezilarli va barqaror o'sish kuzatildi, bu esa yangi yondashuv asosidagi trening metodikasi samarali ekanini tasdiqlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, texnik-taktik tayyorgarlik nafaqat mashg'ulotlar soni va sifati bilan, balki sportchiga individual tarzda yondashish, ularning psixologik



holatini hisobga olish, murabbiyning kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari aynan shu metodologik yondashuvning ustunligini amalda namoyon etdi.



1-grafik. Eksperimental va nazorat guruhleri ko‘rsatkichlari taqqoslanmasi

Yuqorida ko‘rib turganingizdek, grafikda texnik-taktik ko‘rsatkichlar bo‘yicha eksperimental va nazorat guruhlarining dastlabki va yakuniy natijalari taqqoslanmoqda. Grafik sportchilardagi o‘shish sur‘atlarini aniq ko‘rsatadi. Quyidagi jadval esa ushbu natijalarni raqamli shaklda umumlashtiradi:

1-jadval

Texnik-taktik ko‘rsatkichlar: dastlabki va yakuniy natijalar (eksperimental va nazorat guruhleri)

Ko‘rsatkichlar	Eksperimental - dastlabki	Eksperimental - yakuniy	Nazorat - dastlabki	Nazorat - yakuniy
Texnik aniqlik (%)	63	84	65	70
Taktik qaror (soniya)	4.8	3.1	4.7	4.3
Pozitsiya tanlash (ball)	2.9	4.5	3.0	3.4
Faollik (%)	77	91	76	80

Muhokama.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, eksperimental guruh a’zolarining texnik-taktik ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, texnik aniqlik ko‘rsatkichi 63 foizdan 84 foizgacha



oshgani, bu esa 21 foizlik o'sishni anglatadi. Bu o'sish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan innovatsion mashg'ulotlar va individual yondashuv usullarining samarali bo'lganini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, nazorat guruhida bunday sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi – ularning texnik aniqligi faqat 65 foizdan 70 foizgacha oshdi.

Taktik qaror qabul qilishda ham eksperimental guruhda vaqt ko'rsatkichi 4.8 soniyadan 3.1 soniyaga qisqargan bo'lib, sportchilar muhim vaziyatlarda tezroq va aniqroq qaror qabul qila boshlaganini bildiradi. Bu, o'z navbatida, o'yin tezligi va raqib ustidan ustunlikka erishish imkoniyatlarini oshiradi. Bu holat ilgari G.Xolms (Holmes, 2019) tomonidan sportchilar psixomotor tayyorgarligining qaror tezligiga ta'siri haqida o'tkazilgan tadqiqot bilan uyg'un keladi.

Pozitsiyani to'g'ri tanlash ballari ham sezilarli darajada oshgan. Eksperimental guruhda bu ko'rsatkich 2.9 dan 4.5 gacha o'sgan bo'lsa, nazorat guruhida bu faqat 3.0 dan 3.4 gacha bo'lgan. Bu esa sportchilarning harakatlardagi joylashuvni tahlil qilish, zarba yoki qarshi hujum uchun qulay pozitsiyalarni egallash bo'yicha bilim va malakalarining oshganidan darak beradi.

Faollik darajasi, ya'ni sportchining o'yindagi umumiy ishtiroki, eksperimental guruhda 91 foizga yetgan, bu esa boshlang'ich 77 foizdan 14 foizlik o'sishni anglatadi. Ushbu parametr, sportchining jismoniy va ruhiy tayyorligi natijasi bo'lib, jamoaviy o'yinlarda g'alabaga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Bu natijalar, eksperimental yondashuv asosida tuzilgan mashg'ulotlar dasturining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlar (masalan, takroriy mashqlar, shartli simulyatsiyalar, tezkor qaror qabul qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar) sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini yaxshilashga yordam bergani aniqlandi. Shuningdek, sportchilar bilan olib borilgan individual suhbatlar va psixologik motivatsion mashg'ulotlar ularning o'z-o'ziga ishonchini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, ushbu ishda ko'rsatilgan o'zgarishlar yuqori darajada ekanini ko'rish mumkin. Masalan, N.Karimov (2021) tomonidan olib borilgan o'xshash mavzudagi tadqiqotda faollik darajasi atigi 6–8 foizga oshgani qayd etilgan, bu esa bizning tadqiqotdagi 14 foizlik ko'rsatkichdan kamroqdir.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida ba'zi cheklovlar mavjud bo'ldi. Jumladan, guruhlar sonining nisbatan kamligi, faqat bitta sport turiga e'tibor qaratilgani va tashqi omillarni (mashg'ulot zali sharoiti, sportchilarning emotsional holati) to'liq nazorat qilish imkoni bo'lmagani natijalarning umumlashtirilishini biroz cheklashi mumkin. Shunga qaramay, mavjud natijalar asosida sportchilarda texnik-taktik tayyorgarlikni oshirishda kompleks yondashuvning ahamiyati yuqori ekanini tasdiqlash mumkin.



Xulosa va tavsiyalar. Ushbu tadqiqot davomida yosh sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda murabbiylik yondashuvi muhim rol o'ynashi isbotlandi. Eksperimental guruhda qo'llanilgan metodik yondashuv – ya'ni individual trening rejalari, vaziyatli mashqlar, tezkor qaror qabul qilishni rag'batlantiruvchi topshiriqlar, videoanaliz va sportchilarning psixologik tayyorgarligiga qaratilgan yondashuvlar texnik va taktik rivojlanishni sezilarli darajada yaxshilagani aniqlandi.

Natijalarga ko'ra, texnik aniqlik, taktik qaror qabul qilish tezligi, pozitsiya egallash sifati va mashg'ulotdagi umumiy faollik bo'yicha eksperimental guruhda yuqori darajada ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Ushbu o'zgarishlar an'anaviy (klassik) mashg'ulot uslubi bilan shug'ullangan nazorat guruhidagi sportchilarga qaraganda ancha samaraliroq bo'ldi. Bu esa sportchilarning texnik va taktika bo'yicha o'sishida shaxsiylashtirilgan, ilmiy asoslangan va tizimli murabbiylik yondashuvlarining afzalligini tasdiqlaydi.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelindi:

- texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirishda individual yondashuv sportchilarning imkoniyatlariga moslashtirilgan mashg'ulotlar orqali natijalarni yaxshilaydi;

- sportchilarning reaksiya tezligi va qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshirish uchun maxsus vaziyatli o'yinlar va simulyatsion mashqlar samarali vosita hisoblanadi;

- murabbiy sportchilarning psixologik holatini hisobga olib, motivatsiya va ishonchni oshiruvchi usullarni joriy qilsa, bu umumiy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi;

- an'anaviy, umumlashtirilgan mashg'ulot uslublari yosh sportchilar uchun yetarli emas; ularni zamonaviy trening metodlari bilan to'ldirish zarur.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sport maktablari va klub murabbiylariga yosh sportchilar bilan ishlashda individual yondashuvni yo'lga qo'yish, har bir sportchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, treninglarni shu asosda tashkil etish tavsiya etiladi;

- texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun haftalik mashg'ulotlarga maxsus simulyatsiya mashqlari, o'yin vaziyatlarini modellashirish, qaror qabul qilish tezligini rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritilishi lozim;

- videoanaliz vositalaridan muntazam foydalanish sportchilar tomonidan o'z harakatlarini tahlil qilish va takomillashtirishda samarali bo'ladi;

- mashg'ulotlar jarayonida sportchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni maqsad sari yo'naltirish uchun murabbiy-psixologik yondashuvlar ham kiritilishi zarur;

- kelgusidagi tadqiqotlarda ko'proq sport turlarini qamrab olish, katta hajmdagi sportchi guruhlar bilan ishlash va uzoq muddatli monitoring olib borish natijalarning yanada chuqurroq tahlilini ta'minlashi mumkin.



Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar va tavsiyalar sportchilarning texnik-taktik rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi, shuningdek, murabbiylar uchun amaliy qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. (2021). Sport mashg‘ulotlarida yosh sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish usullari. Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti.
2. Holmes G. (2019). Tactical training in youth football: A cognitive-motor approach. London: Routledge.
3. Xudoyqulov B. (2020). Sport pedagogikasi va murabbiylik asoslari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Ziyadullayev A. (2022). Yosh sportchilar bilan ishlashda individual yondashuvning afzalliklari. «Jismoniy tarbiya va sport» ilmiy-amaliy jurnali, №4, 56–61.
5. Schmidt R.A., & Wrisberg C. A. (2018). Motor learning and performance: From principles to application (6th ed.). Champaign, IL: Human Kinetics.
6. Davletov R. & Murodov S. (2020). Texnik va taktik tayyorgarlikni rejalashtirishda zamonaviy yondashuvlar. O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport ilmiy jurnali, №2(45), 33–39.
7. Azizov S. (2017). Futbolda texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichlari. Jismoniy tarbiya va sport innovatsiyalari, №3, 24–29.
8. Aliyev U. (2019). Sportchilar motivatsiyasi: psixologik yondashuv. Toshkent: Yangi asr avlodi.
9. Vickers J. N. (2016). Perception, cognition and decision training: The quiet eye in action. Human Kinetics.
10. Reilly T. & Williams A. M. (2003). Science and soccer (2nd ed.). London: Routledge.

BADMINTON SPORTINIŇ PEDAGOGIKALIQ-PSIXOLOGIYALIQ ÓZGESHELIKLARI

Beknazarov Raxat Axmet uli

Docent

Ózbekstan mámleketlik dene tarbiya hám sport universiteti Nókis filiali

Raxatbeknazarov93@gmail.com

Annotaciya: *Bul maqalada badminton sportiniŇ pedagogikalıq hám psixologiyalıq ózgeshelikleri úyreniledi. Badminton sportshılardıń fizikalıq hám psixologiyalıq jaqtan rawajlanıwındaǵı áhmiyeti analiz etiledi. Maqalada pedagogikalıq qatnaslar hám oqıw proceslerinde psixologiyalıq aspektlerdiŇ orni*



kórsetilgen, sonday-aq, sportshilardi tabisli tayarlawda qollanilatuǵın metodikalar hám texnikalar sáwlelendiriledi. Badminton shınıǵıwlarınıń sportshılardıń texnikalıq kónlikpelerin rawajlandırıwda, sonday-aq, olardıń psixologiyalıq turaqlılıǵın hám ózine bolǵan isenimin arttırıwda qanday rol atqaratuǵını úyrenilgen.

Tayanış sózler: *badminton, pedagogika, psixologiya, sportshılardıń fizikalıq tayarlıǵı, psixologiyalıq turaqlılıq, metodika.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности бадминтона. Анализируется значение физического и психологического развития спортсменов по бадминтону. В статье показана роль психологических аспектов в педагогических подходах и учебном процессе, а также освещены методики и приемы, используемые для успешной подготовки спортсменов. Изучена роль упражнений по бадминтону в развитии технических навыков спортсменов, а также в повышении их психологической устойчивости и уверенности в себе.*

Kirisiw. Ayırım sport túrleri boyınsha ótkeriletuǵın jarıslar múddeti xalıq aralıq jarıslar qaǵıydaları menen belgilenedi. Sol jarıslar múddetinde qaysı sportshı óz jumıs qábiletiniń sapası hám natiyjeliligi tárepinen qanshelli uzaq waqıt saqlay alsa yamasa onı asırıw “kúshi”ne iye bolsa, oǵan tabıs sonshelli “kúlip” baǵıwı anıq. Basqasha etip aytqanda jumıs qábiletiniń sapa hám nátiyjelik dárejesin kóp yamasa kem waqıt dawamında saqlanıwı ulıwma hám arnawlı tezlik-kúsh sapasın sapalarınıń túrleri qanshelli rawajlanǵanlıǵı menen belgilenedi [1].

Voleybol jarıslarında barlıq túrdegi kúsh sapaları (ulıwma hám arnawlı, absolyut hám salıstırmalı, statikalıq hám dinamikalıq, tezlik, kúsh shıdamlılıǵı) sheshiwshi áhmiyetine iye bolıwı tastıyıqlawın talap etpeydi. Sol sebepli oqıw-shınıǵıw processinde kúsh hám kúshleniw túrlerin rawajlandırıwǵa itibar qaratıw tájiriybeli voleybolshılar tayarlawdın zárúrli shártlerinen biri bolıp tabıladı.

Ádebiyatlar analizi hám metodologiyası.

Ózbekistan Respublikasınıń jetekshi qánigeleri, shet ellik tájiriybeli pedagoglar, kópshilik ilimpazlar tárepinen sport oynılarında texnikalıq taktikalıq elementlerdi rawajlandırıw máseleleri kópten-kóp ilimiy-metodikalıq ádebiyatlarda óz sheshimin tapqan. L.R.Ayrapetyans (2006), A.A.Pulatov (2012), Sh.X.Izrailov (2014), Z.B.Baltaev (2019), atap aytqanda sırt el ilimpazlarınan V.M.Zatsiorskiy (1995), L.P.Matvyev (1997), V.N.Sokolov (1999), David Lavallee, John Kremer (2004), Edmunds J., Ntoumani N. (2006), V.Ya.Ignateva, A.V.Ignatev, A.A.Ignatev (2015), Yu.D.Jeleznyak (2018) jıllarda ilimiy izertlewler alıp barǵan.

Nátiyjeler.

Jas voleybolshılarda hár qıylı túrdegi kúsh sapaların úyreniw belgilengen kórsetkishler tájiriybeli jas sportshılar salıstırǵanda sezilerli dárejede tómén ekenligin kórsetti (1-keste). Atap aytqanda, eki topardaǵı balalardı qosıp esaplaǵanda da olardıń kórsetkishleri izertlew baslanbastan aldın derlik parq etpedi.

1-keste

Jas voleybolshılarda tezlik-kúsh sapasınıń dárejesi (20 adam).

Kúsh túrleri	Kúsh kórsetkishleri XL
Gewde kúshi, kg	54,2±2,7
Turnikta tartılıw	5,3±1,2
Brusyada qoldı iyiw -jazıw	4,5±1,7
Gorizontaı jaǵdaydan qoldı iyiw -jazıw (30 s)	8,1±1,3

Mısalı, qol-qarın-bel bulshıq etleri kúshi tekseriliwshi boksshılarda 54,2±2,7 kg dı quradı. Bul kórsetkishni salıstırıwlaw maqsetinde sol zat ayqın boldı, 15-16 jastaǵı dzyudoshılarda bul kórsetkish 142-182 kg aralıǵında bolıwı múmkin. 11-12



jasqa tolğan tájiriybeli voleybolshılarda bul kórsetkish joqarı dárejede belgilengen [2]. Turnikta tartılıw testi boyınsha bahalanatuğın qoldı búgiwshi bulshıq etler kúshi $5,3 \pm 1,2$ retke teń boldı. Qoldı jazıwshı bulshıq etler kúshi (brusyada qoldı iyiw-jazıw) tekseriwden ótken kórsetkishlerde $4,5 \pm 1,7$ retti quradı.

Qolğa súyene otırıp gorizental jağdayda qoldı 30 sekund dawamında iyiw-jazıw ortasha $8,1 \pm 1,3$ retke teń bolıp, tekseriwden ótkerilgen voleybolshılarda kúsh shıdamlılıgın jeterli dárejede qalıplespen dep bahalawğa tiykar boldı.

Rejelestirilgen pedagogikalıq izertlew nátiyjesin bahalaw maqsetinde gúzetiw hám izertlew toparlarına tiyisli voleybolshılar kórsetkishleri bólek statistikalıq analiz etildi (2-keste).

2-keste

Qadağalaw (gúzetiw) toparı quramına kiretuğın voleybolshılarda tezlik-kúsh sapasınıń dárejesi (n=10)

Test shınıǵıwları	Kórsetkishler, $X \pm \delta$
Gewde kúshi, kg	$53,2 \pm 2,6$
Turnikta tartılıw	$5,2 \pm 0,8$
Brusyada qoldı iyiw-jazıw	$4,8 \pm 0,5$
Gorizental jağdaydan qoldı iyiw-jazıw (30 s)	$8,2 \pm 1,4$

2-kestenen kórinip turıptı, olda, gúzetiw toparında kúshti xarakteristikalaytuğın barlıq kórsetkishler izertlew toparında belgilengen kórsetkishlerden azgana tómén bolsada, bir-birinen keskin parq etpegen. Bunıń tiykarǵı sebeplerinen biri, pikirimiz boyınsha, voleybol menen endi shuǵıllanıwdı baslağan jas balalar óz tayınlıǵı kóz qarasınan bir-birine ol yamasa bul dárejede uqsas bolǵan.

Pedagogikalıq tájiriybe toparında bul kórsetkishler azmaz ústinlikke iye ekenligi málim boladı. Lekin bul ústinlik izertlewge tartılǵan voleybolshılardıń ulıwma tayınlıǵı az bolsada, joqarılaw dárejede dep juwmaq etiwge tiykar bola almaydı. Itimal retinde, usı jağday pedagogikalıq izertlew toparına tiyisli voleybolshılardı bólek itibar sheńberinde ekenligi olardıń psixik emocional jağdayın unamlı basqıshqa azmaz kóterilgenligi bolıp tabıladı. Balalardı maqtaw, xoshametlew, basqalardan ústin etip kórsetiw yamasa olardı ózgelerden aqıllı, sanalı, kúshli ekenligine isendiriw ruwxıylıqqa progressiv tásir etip, sońınan funktsional processlerdi aktivlestiredi.

3-keste

Pedagogikalıq tájiriybe toparı quramına kiretuğın voleybolshılarda tezlik-kúsh sapasınıń dárejesi (n=10)

Test shınıǵıwları	Kórsetkishler, $X \pm \delta$
Qol-qarın-bel bulshıq etleri kúshi, kg	$53,9 \pm 1,9$
Qoldı búgiwshi bulshıq etler kúshi (turnikta tartılıw sanı)	$5,4 \pm 0,7$
Qoldı jazıwshı bulshıq etler kúshi (brusyada qoldı iyiw - jazıw sanı)	$4,9 \pm 0,7$
Gorizental jağdaydan qoldı iyiw-jazıw (30 s)	$8,0 \pm 1,7$



3-kestede belgilengen kórsetkishlerge kóre sonı atap ótiw itibarlı, qollardı búgiwshi bulshıq etler kúshi (turnikte tartılıw) qoldı jazıwshi bulshıq etler kúshinen (brusyada qoldı iyiw-jazıw) sezilerli dárejede kem muǵdardı quradı. Sonday eken, qoldı búgiwshi bulshıq etler salıstırǵanda ázzirek rawajlanganlıǵı málim boldı.

Dıqqattı tartıwshi taǵı bir jaǵday sonnan ibarat, qolǵa súylene otırıp gorizental jatqan jaǵdayda qoldı 30 sekund dawamında iyiw-jazıw sanı qoldı búgiwshi-jazıwshi bulshıq etler kúshinen talay ústin ekenligi kórinetuǵın boldı. Bul jaǵday kóplegen izertlewshi-ilimpazlar juwmaǵına qarsı bolıp ǵana qalmay, kerisinshe, 10-12 hám bunnan úlken jastaǵı balalarda kúsh sapasın úlken salmaqlar menen normasız rawajlandırıwǵa berilip ketpewge itibar qaratadı.

Qızıǵı hám quramalılıǵı sonda, baqlanǵan kópshilik mekteplerde oqıwshılardıń tek ǵana kúsh sapası, bálki fizikalıq sapaları da júdá kem rawajlangan. Ayırım balalar uyalǵanınan hátte turnikte tartılıwdan bas tartadı. Sonday eken, sport dógerekleri yamasa BÓSM lerge keletuǵın kópshilik balalar fizikalıq tárepten derlik jeterli rawajlanbaǵan boladı. Sol sebepli tárbiyashılar dáslepki tayarlıq processinde shınıǵıwları shuǵıllanıwǵa kelgen balalardıń fizikalıq hám funktsional múmkinshiliklerine iykemlestirip rejelestiriwi zárúr boladı.

Dodalaw. Jas voleybolshılarda tezlik-kúsh sapasın túrli salmaqlar menen rawajlandırıw hesh unamlı nátiyje bermeydi. Sol sebepli dáslepki shuǵıllanıw atırǵan balalarda tezlik-kúsh sapasın tradiciyaǵa tán bolmaǵan - standart bolmaǵan shınıǵıwlar járdeminde rawajlandırıw júdá zárúrli bolıp tabıladı [3].

Qadaǵalaw hám tájiriye toparlarında izertlew baslanıwı hám juwmaǵında belgilengen kórsetkishler 3-kestede berilgen.

Kesteden kórinip turıptı, bunda, qadaǵalaw hám tájiriye toparlarında baqlanǵan nátiyjeler dinamikası saylangan temanıń bas maqseti, izertlewdiń tiykarǵı ideyası jáne onıń aldına qoyılǵan ilimiy boljaw tolıq unamlı sheshimin bergenligin tastıyıqlaydı. Mısalı, qol-qarın-bel bulshıq etleri kúshi izertlew toparındaǵı voleybolshılarda qadaǵalaw toparındaǵı salıstırǵanda 5,8 kg ǵa ósti. Qadaǵalaw toparındaǵı voleybolshılarda bul parq tek ǵana 8,1 kg ǵa teń boldı. Yaǵnıy qadaǵalaw toparında bul kórsetkish izertlew basında 53,2 kg dı quraǵan bolsa, izertlew juwmaǵında 56,3 kg ǵa shekem astı.

4-keste

**Jas voleybolshılarda tezlik-kúsh sapasınıń pedagogikalıq izertlew dawamında ózgeriwi
(n = N -10 ; T -10)**

Test shınıǵıwları	Topar	Kórsetkishler	
		Izertlew basında	Izertlew aqırında
Gewde kúshi, kg	N	53,2±2,6	56,3±3,2
	T	53,9±1,9	59,7±2,8
Turnikte tartılıw	N	5,2±0,8	6,3±1D
	T	5,4±0,7	3,8±1,7
Brusyada qollardı búgiw-jazıw	N	4,8±0,8	6,0±1,4
	T	4,9±0,7	7,2±1,8
Gorizental jaǵdaydan qollardı búgiw-jazıw (30s)	N	8,2±1,4	9,2±2,0
	T	8,0±1,7	11,3±2,2



N - qadaǵalaw toparı;

T - tájiriybe toparı;

n - tekseriliwshiler sanı.

Izertlew toparında bul kórsetkishler 53,9 hám 59,7 kg muǵdarında jazıp qoyıldı. Qoldı búgiwshi bulshıq etler kúshi izertlew toparında 3,4 márte artqan bolsa, qadaǵalaw toparında tek ǵana 1,1 mártege teń boldı.

Qoldı jazıwshı bulshıq etler kúshi: qadaǵalaw toparında 4,8-6,0 márte; izertlew toparında 4,9 -7,2 márte muǵdarda óz ańlatpasın taptı.

Qolǵa súyene otırıp gorizental jatqan jaǵdayda qoldı iyiw-jazıw sanı: 8,2-9,2; 8,0-11,3 mártege teń boldı.

Belgilengen kórsetkishler dinamikasınan kórinip turıptı, bunda, tájiriybe toparındaǵı balalardıń tezlik-kúsh sapasın belgileytuǵın barlıq nátiyjeler qadaǵalaw toparındaǵı jas voleybolshılardan asa joqarı dárejede ózgergenliginen bildirip atır. Bul jaǵday taǵı bir bar tájiriybe toparı shınıǵıwları dawamında qollanılǵan standart bolmaǵan arnawlı shınıǵıwlar tezlik-kúsh sapasın rawajlandırıwda oǵada nátiyjeli ekenligin tastıyıqlap atır. Usınıń menen bir qatarda tájiriybe toparında belgilengen kúsh sapası basqa sport túri menen shuǵıllanatuǵın sol jastaǵı balalar kúshinen oǵada kem rawajlanǵanlıǵı málim boldı. R.A.Piloyanni (1991) pikirine kóre, hátte 8-9 jaslı balalarda operativ kúsh sapaları salıstırǵanda ósiwi múmkin. 11-12 jaslı sportshılar shınıǵıwında tezlik- kúsh hám shaqqanlıqtı rawajlandırıwǵa qaratılǵan shınıǵıwlar kólemin biymálel kóbeytiw usınıs etiledi. 13-14 jaslı sportshılarda bolsa, shıdamdılıq, 14-15 jasta iyiliwsheńlik hám tezlik-kúshti rawajlandırıwǵa tiyisli shınıǵıwlar kólemin asırıw maqsetke muwapıq dep aytıp ótken [4].

Juwmaq.

Tájiriybeli voleybolshılardı tayarlawda bel, qarın, qol hám ayaq bulshıq etlerine tán tezlik-kúsh sapası asa úlken áhmiyetke iye boladı. Ásirese buǵan baylanıslı partlawshı kúsh (tezlik-kúsh) sheshiwshi ózgeshelikke iye esaplanadı. Biziń izertlewimizde qatnasqan jas voleybolshılarda iyiliwshi hám jazıwshı bulshıq etler kúshiniń sezilerli parq tiykarında kem rawajlanǵanlıǵı sol balalardıń baqsha jasınan baslap tezlik-kúsh shınıǵıwları menen júdá kem shuǵıllanǵanlıǵınan derek beredi.

Sonlıqtan, alınǵan izertlew nátiyjeleri jas voleybolshılardıń oqıw-shınıǵıwlarında kúsh hám tezlik-kúsh shınıǵıwları kólemin arttırıw sharasın kóriw talap etiledi. Aytıw tiyis, bunday shınıǵıwlar kólemin asırıw tek ǵana standart shınıǵıwlar esabınan emes, bálki kóbirek standart bolmaǵan arnawlı shınıǵıwlardı jarıstırıw jolı menen de qollaw jaqsı nátiyje beredi. Bunnan tısqarı, daslep úyretiw basqıshında jas voleybolshılar quramınan tezirek uqıplı voleybolshı tayarlaw maqsetinde kúshti rawajlandırıwǵa tiyisli shınıǵıwlardı májbúrlep qollaw kewilsiz aqıbetlerge alıp keliwi dıqqat orayında bolıwı kerek.

Sonday eken, tezlik-kúshke tiyisli shınıǵıwlar balalardıń fizikalıq funksional múmkinshiliklerine uyqas bolıwı dárkar.



Paydalanilgan ádebiyatlar:

1. Usmonxo‘jaev T.S., Xo‘jaev F. Harakatli o‘yinlar. T.: O‘qituvchi, 1992.- 80-b.
2. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubi. Uslubiy qo‘llanma. –T., 2008.
3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubi // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012.
4. Boltayev Z.B. Volleybol // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.- SamDU nashriyoti 2020.

12-15 YOSHLI BOLALARNING JISMONIY SALOMATLIGINI YAXSHILASHGA HISSA QO‘SHADIGAN SUZISH DARSLARI USLUBINING XUSUSIYATLARI

Urazimbetova Mardjina Sultamuratovna

Stajyor o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

u.mardjina98@gmail.com

Annotatsiya: Yosh bolalarning jismoniy mashq qilish texnikasi va samaradorligini tahlil qilish va natijalarni aniqlash. Bu suzishning umumiy texnikasi yaxshilanishiga va suvda harakat tezligining oshishiga olib keladi. Suzishni endigina o‘rgangan bolalar uchun ularning suzishda jismoniy chidamliligi oshgani etarli. Biroq, yaxshi natijalarga erishmoqchi bo‘lganlar uchun faqat hovuzda suzish etarli emas. O‘shish jarayonlarini rag‘batlantirish uchun sog‘lom turmush tarzini olib borish, ish va dam olishning oqilona rejimiga rioya qilish, yomon odatlardan voz kechish va muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish tavsiya etilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: suzuvchi kuch, tortishish kuchi, harakatlantiruvchi kuch, harakat samaradorligi, nafas olish, tana termoregulyatsiyasi, mushak omili.

Аннотация: Анализ техники и эффективности физических упражнений детей раннего возраста и определение результатов. Это приводит к улучшению общей техники плавания и увеличению скорости движения в воде. Для детей, которые только научились плавать, достаточно повышения их физической выносливости в плавании. Это приводит к улучшению общей техники плавания и увеличению скорости движения в воде. Однако для тех, кто хочет добиться хороших результатов, недостаточно просто плавать в бассейне. Для стимулирования процессов роста может быть рекомендовано вести здоровый образ жизни, соблюдать разумный режим работы и отдыха,



отказаться от вредных привычек и регулярно заниматься физической культурой.

Ключевые слова: *плавающая сила, сила притяжения, движущая сила, эффективность движения, дыхание, терморегуляция тела, мышечный фактор.*

Abstract: *Analysis of the technique and effectiveness of physical exercise in young children and determination of results. This leads to an improvement in overall swimming technique and an increase in the speed of movement in the water. For children who have just learned to swim, the increase in their physical endurance in swimming is sufficient. For children who have just learned to swim, the increase in their physical endurance in swimming is sufficient. However, for those who want to achieve good results, swimming in a pool alone is not enough. To stimulate growth processes, it may be recommended to lead a healthy lifestyle, maintain a reasonable work and rest schedule, give up bad habits, and regularly engage in physical education.*

Key words: *swimming power, gravitational force, driving force, movement efficiency, respiration, body thermoregulation, muscle factor.*

Kirish. Suzishni o‘rgangan bolalar kurs davomida suzish uchun ko‘p energiya sarflashadi va mashg‘ulot oxirida charchaganliklarini his qilishadi. Vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilarda suzish ko‘nikmalari asta-sekin rivojlanadi va ishtirokchilarning mushaklarning chidamliligi ham oshadi. Natijada, muntazam mashqlar bilan mushaklarning kuchi ham oshadi. Bu suzishning umumiy texnikasi yaxshilanishiga va suvda harakat tezligining oshishiga olib keladi. Suzishni endigina o‘rgangan bolalar uchun ularning suzishda jismoniy chidamliligi oshgani etarli. Biroq, yaxshi natijalarga erishmoqchi bo‘lganlar uchun faqat hovuzda suzish etarli emas. Hovuzda yoki ochiq suvda asosiy mashg‘ulotlardan tashqari, tayyorgarlik dasturi sport zallarida kuch mashqlarini ham o‘z ichiga oladi. Mashq qilish suv muhitida harakatlar paytida ma’lum mexanik jarayonlarga asoslanadi, bu mashg‘ulot turini boshqa jismoniy faoliyatdan ajratib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Suzuvchi fiziologiyasining asosiy omillari: suzuvchi kuch, tortishish kuchi, harakatlantiruvchi kuch, tananing suvdagi holati, energiya hosil qilish, harakat samaradorligi, nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarining ishlashi, tana termoregulyatsiyasi, mushak omili.

Doimiy kontingent (dars) bilan jadvalga muvofiq o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar shakli - ta’lim muassasalarida bu suzish darsi. Sinfdan tashqari dam olish tadbirlari (sinfdan tashqari): o‘quv rejasiga muvofiq musobaqalar, uyda suv tartiblari, suvda sport bayramlari, o‘quv rejasidan tashqari musobaqalar, mustaqil ta’lim.



Natijalar.

Birinchi kirish darsida o‘quvchilarni suzish kursi dasturi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va tamoillari, suzish havzasida mashg‘ulotlarga qo‘yiladigan talablar, kiyim-kechak, xavfsizlik qoidalari va mashg‘ulotlarni o‘tkazish shartlari bilan tanishtirish kerak.

Trener shug‘ullanuvchilarning individual xususiyatlariga, suv muhitida bardoshlik va yuk bo‘yicha har qanday maxsus tibbiy tavsiyalarning mavjudligiga e‘tibor berishi kerak.

Samarali suzishning asosiy shartlaridan biri bu suvga suvda nafas chiqarish bilan ritmik nafas olishni o‘rganish, boshning yon tomonga, iyagini yelkaga burishiga ishonch hosil qilish; nafas olish juda chuqur emas, nafas chiqarish (ekshalasyon) esa to‘la bo‘lishi kerak. Tanishuvning birinchi bosqichi o‘rganilayotgan mashq, faoliyat, harakat (suzish usuli, qo‘l yoki oyoq harakati, burilishlarni bajarish va hokazo) haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishdan iborat [1].

Mashqlar, harakatlarni ko‘rsatishni asosiy metodik texnika bo‘lib, murabbiy esa harakat va nafas olish sifatini nazorat qiladi, ish davomida o‘quvchilarning harakatlariga tegishli tuzatishlar kiritadi. Suvda yotishning asosiy vazifasi ko‘krak va orqa tomonda tananing suvdagi gorizontal holatini ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Harakatlarni yanada samarali o‘rganish, tez va ishonchli yodlash uchun harakatlarning to‘liq tsiklida alohida qismlarni bajarish usuli va tezligiga katta e‘tibor berish kerak, shuningdek, suzish usullari, mashqlari va harakatlarini o‘zlashtirish shug‘ullanuvchilarning muvaffaqiyatiga qarab farqlashni unutmaslik kerak [3].

Mashg‘ulotlarni boshlashdan oldin siz yordamchi jihozlarni tayyorlashingiz kerak: suzish taxtalari, rezina shishiriladigan doiralar va o‘yinchoqlar, suzishni tayanch kamarlari, rezina to‘plar. Yordam berish uchun siz 3-3,5 m uzunlikdagi yorug‘lik ustuniga zaxiralashingiz kerak.

Dars oldidan bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Agar shifokor sog‘lig‘i tufayli darslar sonini va suvda qolish muddatini cheklasa, ularni bajarish kerak.

Tabiiy suv havzalarida, agar ob-havo quyoshli va sokin bo‘lsa, 27-28 °C suv haroratida suzishni o‘rganishingiz mumkin. Sovuq tushganda, bolalarning suvda o‘tkazadigan vaqtini qisqartirish kerak, bu har doim ham rejalashtirilgan dars rejasini bajarishga imkon bermaydi. Bu qulayroq harorat sharoitida bolalarning suvda uzoqroq qolishi bilan qoplanadi. Agar suv va havo etarlicha iliq bo‘lsa, mashg‘ulotlar davomiyligini asta-sekin oshirib, har kuni 20-25 daqiqa davomida o‘tkazish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, suvdagi mushaklarning optimal yuki salomatlik holatiga, jismoniy va suzish tayyorgarligiga va tananing boshqa individual xususiyatlariga bog‘liq. 10-12 daqiqadan so‘ng sovuqni his qilgan bolalar alohida guruhga bo‘linadi va ularning suvda bo‘lish vaqti qisqartiriladi. Bolalar suvda uzoqroq turishlari va sovuqni ushlamasliklari uchun ular qattiqlashadi, harorat sharoitida o‘zgarishlarga qarshi turish qobiliyatini oshiradilar. Buning uchun suvda



mashg‘ulotlar boshlanishidan 1,5-2 oy oldin ular havo vannalarini olishlari, haroratini asta-sekin pasaytirish bilan suv bilan artib olishlari kerak.

Quruqlikda:

“6 daqiqalik yugurish”: yorqin jilet kiygan o‘qituvchi oldinda turadi, sub’ektlar undan oldinda bo‘lmasligi kerak. 6 daqiqada u ko‘tara oladigan masofani bosib o‘tadi.

Sinov ko‘rsatkichlari bolalarda “chidamlilik” sifatining rivojlanish darajasini baholashga imkon beradi.

1. “Bir joydan uzunlikka sakrash”: yo‘lakchada bajariladi, 3 ta urinishga ruxsat beriladi, ulardan eng yaxshisi hisobga olinadi.

2. “Uzoq masofaga harakatlanish”: maxsus tayyorlangan, yorqin lentalar bilan o‘ralgan, tekis maydonda sub’ekt ketma-ket 6 marta otishni amalga oshiradi, qo‘llarni almashtiradi (o‘ng va chap); yakunda eng yaxshi urinishlar hisoblandi. Ko‘zi ojiz bolalarning ushbu testlarda ko‘rsatgan natijalariga ko‘ra, tezlik-kuch qobiliyatlarining rivojlanadi.

3. “Skameykada tik turgan joydan oldinga egilish”: gimnastika skameykasida turadi, oyoqlarini tizza bo‘g‘imlarida egmasdan, iloji boricha oldinga - pastga, qo‘llarini skameyka darajasidan pastga tushiradi. Skameykaning yuqori chetidan tushirilgan barmoqlargacha bo‘lgan masofa o‘lchandi. Ushbu ko‘rsatkichlarga ko‘ra, odamda moslashuvchanlikning rivojlanadi.

Suvda:

1. Nafas oling, nafasingizni ushlab turing, yuzingizga suv seping, shu daqiqada nafas oling.

2. Suv betida yotish (oldinga –orqaga) muvozanatni saqlagan holda.

3. Ko‘krakda yotib faqat oyoqlar yordamida tizzalarni bukmasdan suzish qollar orqa belida ushlaymiz

4. 1 va 2 mashqlarni takrorlang, lekin oldingi holatida.

5. Ko‘krakda krol usulida bir qollab suzish (qollar suvni ushlash uni tortish va itarish)

6. Ko‘krakda krol usulida suzish faqat oyoqlar yordamida, oyoqlar ketma-ketlikda nafas olish paytida 360 darajada aylanish.

7. Qo‘llarning oldinga va orqaga muqobil dumaloq harakatlari, suvni kaft bilan imkon qadar uzoqroqqa tashlashga harakat qilish.

8. Cho‘kkalab o‘tirish (belgacha suv chuqurligi), oyoqlaringiz bilan pastki qismdan itarish, suvdan iloji boricha balandroq sakrash va muvozanatni saqlab, boshlang‘ich holatiga qaytish.

9. Xuddi shunday, gavdaning 90°, 180° va 360° ga aylanishi bilan.

10. Ko‘krak bilan suv ustida yoting. Oyoqlaringizning tovonlari suv yuzasida paydo bo‘lishi uchun qo‘llaringizni pastki qismga qo‘ying. Ko‘krakdagi emaklash usulida bo‘lgani kabi, muqobil oyoq harakatlari. “Bir-ikki” sonida boshingizni ko‘taring - nafas oling, “uch-olti” sonida yuzingizni suvga tushiring - nafas oling.



Metodik ko‘rsatmalar. Bolalar birinchi darslarda suzish bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlarga tayyorgarlik mashqlarini yaxshi o‘rganadilar. Suvda suzish eng kerakli mashqdir, chunki nafas olish eng muhimi.

Ushbu mashq bola uchun qanchalik qiyin bo‘lmasin, qat‘iyatli bo‘ling. Eng boshidan oxirigacha ortib borayotgan kuch bilan eshuvchanlikga e‘tibor qarating. Siz lablaringizni yumalab, yonoqlaringizni puflab, nozik oqim bilan havoni chiqarishingiz kerak. Nafas olish oxirida, xuddi yonayotgan gugurtni puflagandek harakat qiling - tezlashtirish.

Pedagogik eksperiment jarayonida 12-15 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishini baholash. Bolaning o‘rishining sezilarli o‘rishi hayotning birinchi yilida (o‘rtacha 25 sm), keyin 4 yoshdan 7 yoshgacha va balog‘atga etishning boshida kuzatiladi, bu qizlar uchun 10 yoshdan 16 yoshgacha davom etadi va o‘g‘il bolalar uchun 11 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan yosh davrlarini o‘z ichiga oladi.

1-jadval

Nazorat va eksperimental guruhlardagi bolalarning o‘rtacha bo‘yi va vazni.

Yoshi, yillarda	Nazorat guruh		Eksperimental guruh		Farq
	Bo‘yi, sm	Salmoq, kg	Bo‘yi, sm	Salmoq, kg	
12-13	154,8	43,4	160,6	50,6	$\leq 0,05$
14	161,2	48,8	167,7	56,6	$\leq 0,05$
15	166,8	54,8	173,5	62,8	$\leq 0,05$

Salomatlikni shakllantiruvchi texnologiyalarning asosiy muammosi o‘quvchilarni sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashga ishonitiradigan, sog‘lom turmush tarziga munosabatini shakllantiradigan o‘qitish va tarbiya mazmunini tanlashdir. Uning maqsadi salomatlikni mustahkamlash, to‘g‘ri ovqatlanish odatlarini shakllantirish va sog‘likka qadrli munosabatni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Umumta‘lim maktabida maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi: sog‘lom shaxsni shakllantirishga ko‘maklashish, o‘quvchilarni issiq ovqat bilan qamrab olishni ko‘paytirishga erishish, o‘quv jarayonini sifatli o‘tkazish uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlash. Maktablarda o‘quv-tarbiya ishlarida salomatlikni tejaydigan mazmundagi dasturlar amalga oshirilmoqda, bu o‘quvchilarning nazariy bilim darajasini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi, kognitiv qiziqishni uyg‘otadi va sog‘lom turmush tarzi uchun motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Bunday loyihalarni amalga oshirish jarayonida quyidagi natijalar kutilmoqda:

1. Shaxsning sog‘lig‘i, madaniy turmush tarzi va o‘zini o‘zi anglashi uchun qadriyat munosabatlari va hayotiy ustuvorliklarini shakllantirish.
2. Shaxs va tabiatning birligi haqidagi ongini shakllantirish.
3. Sog‘lom turmush tarzining ovqatlanish madaniyatiga bog‘liqligi haqida tushunchalar shakllantirildi.
4. O‘quv faoliyati uchun ijobiy motivatsiya, o‘rganish sifatini oshirish.



5. Bolalarning kasallanish darajasini barqarorlashtirish, jamoada psixologik iqlimni yaxshilash.

6. Maktab darajasida ish tajribasini ijobiy baholash va boshqalar.

Muhokama. Bolalar salomatligiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi: ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-gigienik. Og‘ir yuklama bilan maktabda o‘qish jarayoni o‘quvchining asab-ruhiy tizimining haddan tashqari yuklanishiga, noto‘g‘ri ovqatlanishiga, tartibsiz kun tartibiga, bolalarning o‘z ovqatlanishiga beparvo munosabatiga - sog‘lig‘ining yomonlashishiga olib keladi. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha bolalarning 96 foizining salomatlikda og‘ishlar kuzatilmoqda. Qo‘shimcha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lig‘ini yaxshilash, mashg‘ulotlardan keyin ruhiy stressni engillashtirish, turli xil ijodiy va ko‘ngilochar tadbirlarga jalb qilish orqali sport yutuqlariga erishish uchun sharoit yaratish imkoniyati mavjud.

Ayni paytda o‘quv jarayoniga zamonaviy sog‘liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish hamda sog‘lom, jismonan barkamol bolani tarbiyalashda o‘qituvchi va ota-onalarning sa’y-harakatlarini birlashtirish, bolalar bilan sog‘lomlashtirish ishlarida sportning barcha turlarini tizimli yo‘lga qo‘yish orqali qo‘shimcha ta’lim muassasalarining tarbiyaviy rolini kuchaytirish zarur.

Talabalar, ota-onalar, o‘qituvchilarning valeologik madaniyatini rivojlantirish. Shunday qilib, asosiy g‘oya - o‘qish va dam olish jarayonida bolalarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash uchun maktab va qo‘shimcha ta’limning barcha vositalari va imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

Xulosa. O‘shish jarayonlarini rag‘batlantirish uchun sog‘lom turmush tarzini olib borish, ish va dam olishning oqilona rejimiga rioya qilish, yomon odatlardan voz kechish va muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish tavsiya etilishi mumkin. Bunda cho‘zish mashqlari (masalan, barda osilib turish va tortish), sakrash mashqlari, yuqoriga tortish, oldinga va yon tomonga egilish, orqaga bukish, dam olish mashqlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayoni har doim yangi ma’lumotlarni olish bilan bog‘liq bo‘lib, agar turli kanallar - kinetik, vizual, eshitish jalb qilingan bo‘lsa, yaxshiroq idrok etiladi, shuning uchun darslarda media-uskunalar, ko‘rgazmali eksperimentlar, video eksperimentlar va boshqalardan foydalanish yaxshidir.

Shuningdek, bu erda jismoniy tarbiya daqiqalarini - o‘rta bosqich shug‘ullanuvchilari tomonidan bajonidil bajariladigan oddiy jismoniy mashqlarni qayd etmaslik mumkin emas.

Sinfda qiziqarli tajribani namoyish qilish orqali o‘quvchilar o‘rtasida o‘quv faoliyati uchun motivatsiyani oshirishingiz mumkin. Kelajakda ular zavq bilan darslarga qatnashadilar va bilim sifati odatda juda yuqori bo‘ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 3-iyun 2003 yil “O‘qituvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzliksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 244-sonli qarori.
2. Matnazarov X.Y., Ishimov B.A. Suzishni o‘rgatish metodikasi, o‘quv qo‘llanma, Chirchiq. 2021.
3. Korbut V.M., Isroilova R.G., Voljin V.I. Suzish texnikasi va unga o‘rgatish uslublari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2010.
4. Krasnova G.M., Zavadovskaya E.N. Amaliy suzish. ÓZDJTI 2010 y.
5. Korbut V.M. Suzish. O‘quv qo‘llanma. T. 2011.

16-17 JASLÍ BOKSSHÍLARDÍN TEZLIK-KÚSH SAPALARÍN RAWAJLANDÍRÍW HÁM ONÍŇ ÁHMIYETI

Kochanov Dawletbay Erejepovich

Biologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filiali

Qonirbayev Dastan Mirzabay uli

Student

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filiali

kochanovdawletbay@gmail.com

Annotatsiya: Bul maqalada 16-17 jashli boksshılarga arналған аylanba shınıǵıwlar arqalı tezlik-kúsh qábiletlerin rawajlandırıwdıń usılları hám nátiyjeleri bayan etiledi. Nókis qalalıq boks mektebinde ótkerilgen tájiriyybede eki topar – baqlaw hám tájiriyybe toparları salıstırmalı tallaw tiykarında úyrenilgen. Tájiriyybe toparı tayarlıq procesinde tezlik-kúsh qábiletin jetilistiriwge baǵıshlangan aylanba shınıǵıwlar menen shuǵıllangan. Alınǵan nátiyjelerde, tábiyǵıy qozǵalıslı oyınlar hám ganteller menen islengen shınıǵıwlar tezlik-kúsh sıpatlarına oń tásir kórsetkeni anıqlangan. Maqalada sportshılardıń ulıwma fizikalıq tayarlıǵın joqarılátıw, partlatıwshı kúsh hám kúshke shıdamlılıq hám tezlik qábiletlerin jetilistiriw usılları talqılangan.

Tayanış sózler: boks, tezlik-kúsh sapaları, boks qaltasın urıw, otırıp turıw, turnikte tartılıw.

Аннотация: Аннотация В данной статье излагаются методы и результаты развития скоростно-силовых способностей посредством круговой тренировки для боксеров 16-17 лет. В эксперименте, проведенном в Нукусской городской школе бокса, две группы - контрольная и экспериментальная - были изучены на основе сравнительного анализа. Экспериментальная группа в процессе подготовки занималась круговыми



упражнениями, направленными на развитие скоростно-силовых способностей. Полученные результаты показали, что естественные подвижные игры и упражнения с гантелями положительно влияют на скоростно-силовые качества. В статье анализируются методы повышения общей физической подготовки спортсменов, а также совершенствования взрывной силы, силовой выносливости и скоростных способностей.

Ключевые слова: бокс, скоростно-силовые качества, удары по боксерскому карману, сидение, подтягивание на перекладине.

Abstract: Abstract This article describes the methods and results of developing speed-strength abilities through circuit training for 16-17 year old boxers. In an experiment conducted at the Nukus City Boxing School, two groups - the observation group and the experimental group - were studied based on a comparative analysis. During the preparatory process, the experimental group engaged in circuit training aimed at developing speed-strength abilities. In the obtained results, it was found that natural movement games and exercises with dumbbells had a positive effect on speed-strength qualities. The article discusses methods for enhancing athletes' overall physical preparedness and developing explosive strength, strength endurance, and speed abilities.

Key words: boxing, speed-strength qualities, boxing, squatting, pull-ups.

Kirisiw. Boksshılardıń kóp jıllıq tayarlıǵınıń barlıq basqıshlarında sport nátiyjelerin arttırıwǵa tásir etetuǵın eń áhmiyetli quramlı bólegi tezlik-kúsh sapaları bolıp, ol ósiw dáwirinde insan organizminiń rawajlanıwına járdem beredi. Tezlik-kúsh qábiiletlerinen kúsh penen bir qatarda háreket tezligi de zárúr bolǵan jaǵdaylarda kórinedi. Bunda, sırtqı awırılıq tásiiri qanshelli joqarı bolsa háreket kúshli sıpatına iye boladı, salmaq qansha az bolsa, háreket sonsha tez boladı.

Tezlik-kúsh qábiiletleriniń payda bolıw formaları ol yamasa bul hárekettegi bulshıq et kúshleniwiniń sıpatına baylanıslı. Bul sıpat hár qıylı háreketlerdegi quwat kúsheyiwinde, onıń úlkenliginde hám dawamlılıǵına shıdamlılıǵı rawajlanıw tezliginde kórinedi.

Ádebiyatlar sholıwı:

V.P.Filinniń [4] jazıwınsha boksshı jetiskenliklerge tezlik-kúsh sapaları járdeminde erisedi.

I.P.Degtyarevtıń [1] pikirinshe boksta joqarı nátiyjelerge erisiw ushın sporshılardıń tezlik-kúsh kórsetkishlerin asırıw áhmiyetli faktor esaplanadı.

Usı múnásibet penen bizler tezlik-kúsh sapaların rawajlandırıwshı ayırım shınıǵıwlarıdı qollanıwdı usınıs etemiz. Boksshılarda tezlik-kúsh sapaların rawajlandırıwdıń ahmiyeti haqqında bir qatar alımlar ózleriniń izertlew jumalarında keltirip ótedi. Mısalı: E.Raxmanovtıń [2] pikirinshe boksshılardıń háreket tezligin rawajlandırıw ushın gantellerden paydalanıw usılı tájiriyyede tastıyqlanǵan. Onıń pikirinshe kúsh qábiiletlerin 3 jol menen rawajlandırsa boladı: 1-sırtqı qarsılıq penen



baylanisli bolgan shınıǵıwlar, 2-óziniń dene awırılıǵın jeńiw menen baylanisli bolgan shınıǵıwlar, 3-izometrik shınıǵıwlar. Ian Oliver [7] pikirine qaraǵanda awır qurallar járdemindegi shınıǵıwlar boks ushın júda kerek dep ótken. Bunda kúshti payda etedi hám bulshıq etlerdiń fizikalıq jaǵdayın jaqsılaydı.

R.Xalmuxamedov, V.Anashovlar [5] óz izertlewlerinde tezlik-kúsh sapaların xalıq háreketli oynıları menen rawajlandırǵan.

Bizler boksshılardıń tezlik-kúsh sapaların milliy háreketli oýınlardı oynatıw araqlı rawajlanǵanlıǵın tájiriye jolı menen anıqladıq [6].

Tezlik-kúshti jetilistiriw ushın V.I.Filimonov [3] úlken bolmaǵan sırtqı awırılıq penen shınıǵıwlardı qollanıwdı usınıs etedi: qollar ushın - 200 den 500 g ǵa shekem, ayaqlar ushın - 1,5 kg nan kóp emes. Onıń pikirinshe úyrenilip atırǵan háreketti yamasa háreketler seriyasın tez hám kútilmegen waqıtta orınlawǵa qaratılıwı kerek.

V.A.Ivanovtıń [8] pikirinshe tezlik-kúsh qábiletleriniń hár bir túrin rawajlandıratuǵın shınıǵıwdı orınlaw tezligi hám tákirarlanıw sanına, awırılıqtıń úlkenligine, sonday-aq, bulshıq etlerdiń jumıs rejimine hám birdey bulshıq etler toparına tásir kórsetiw menen baylanisli.

Izertlew metodologiyası.

16-17 jaslı boksshılardıń aylanba shınıǵıwlardı ámelde qollaw tájiriyesi Nókis qalalıq boks mektebinde ámelge asırıldı. Bunda boks penen shuǵıllanatuǵın 24 baladan ibarat eki topar dúzildi. Qadaǵalaw toparına 12 bala tańlap alındı olar ushın boks boyınsha jumısshı baǵdarlamaǵa muwapıq shınıǵıwlar ótkerildi. Tájiriye toparına 12 bala tańlap alındı, bul topar ushın jumısshı baǵdarlamaǵa sáykes keletuǵın biraq shınıǵıwdıń tayarlıq hám tiykarǵı bólegin ótkeriwde tezlik-kúsh qábiletlerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan aylanba shınıǵıwlardı orınladı.

Nátiyjeler hám talqılaw.

Tájiriye baslamastan burın biz tezlik-kúsh sapalarınıń kórsetkishlerin aldıq. Eki topardaǵı boksshılardıń kórsetkishleri boyınsha maǵlıwmatlar 1-kestede hám 1-súwrette keltirilgen.

Joqarıdaǵı kesteden juwmaq shıǵarıw múmkin qadaǵalaw hám tájiriye toparı boksshıları shama menen birdey tayarlıq dárejesinde edi. Biz islep shıqqan shınıǵıwlar boksshılardıń fizikalıq tayarlıǵın nátiyjeli rawajlandıradı. 8 hápte dawamında biz aylanba shınıǵıw usılın qolladıq. Onıń wazıypaları tómendegilerden ibarat edi: sporshılardıń ulıwma fizikalıq tayarlıǵınıń zárúr kólemine erisiw, absolyut hám partlawshı kúshti, kúsh shıdamlılıǵın rawajlandırıw.

Bunda boksshılardıǵa trenajor úskenelerinde shınıǵıwlar, awırılıqlardan paydalanǵan halda hám jeke awırılıq penen shınıǵıwlar islew dástúri kirgizilgen. Jumıs tákirarlanıwlar sanına qarap orınladı, tiykarǵı jumıs ganteller menen ótti (hár bir raundlar 2 minut).




1-keste

Tájiriybeni baslamastan burın qadaǵalaw hám tájiriybe toparı boksshılarınıń kórsetkishleri.

№	Testler	Qadaǵalaw toparı	Tájiriybe toparı
1	Skakalka (10 sekund sekiriw)	24	25
2	Tik turǵan halda uzınlıqqa sekiriw (sm)	150	154
3	Toptı alısqa ılaqtırıw (m)	6,5	6,9
4	Boks qaltasın urıw (10 sekuntta soqqılar sanı)	34	37
5	10 márte otırıw turıw (sekund)	9,3	9,2
6	Qollardı iyiw hám jazdırıw (brusta)	11,8	11,6
7	Turnikte tartılıw	11	11

1-súwret.



Tájiriybeden aldınǵı boksshılardıń kórsetkishleri

Gantellerdiń salmaǵı hár bir sporshı ushın óz aldına tańlandı. Shınıǵıwlar aralıǵında sporshılar 1 minut dem aldı. Shınıǵıwdıń birinshi bólim juwmaǵında bulshıq etlerdi bosastırıw maqsetinde “saya menen bellesiw” shınıǵıwları 1 raund dawamında orındadı. Boksshılar 2 minut dem alıwdan keyin ekinshi aylanıwdı orınladı. Shınıǵıwlardıń birinshi háptesi úsh marte, ekinshi hám úshinshi háptelerde tórt márte aylanba shınıǵıwları orındadı. Soń keyingi 5 hápte shınıǵıwlar arasında 1 minutlıq dem alıs penen raund dawamlılıǵı 3 minuttan qatań waqıt aralıqları engizildi.

Shınıǵıwlardıń texnikalıq jaqtan durıs orınlanıwı baqlap barıldı. Tájiriybe juwmaǵında biz tárepten islep shıǵılǵan aylanba shınıǵıw kompleksiniń boksshılardıń tezlik-kúsh sapalarına tásiiri anıqlandı. Qadaǵalaw hám tájiriybe toparlarında ekinshi qadaǵalaw testi ótkerildi (2-keste, 2-súwret).




2-keste

Qadağalaw hám tájiriybe toparlarında tezlik-kúsh sapalarınıń ósiw kórsetkishleri.

№	Testler	Qadağalaw toparı	Tájiriybe toparı
1	Skakalka (10 sekund sekiriw)	25	27
2	Tik turğan halda uzınlıqqa sekiriw (sm)	152	160
3	Toptı alısqa ılaqtırıw (m)	7	8
4	Boks qaltasın urıw (10 sekuntta soqqılar sanı)	35	41
5	10 márte otırıw turıw (sekund)	8,8	7,5
6	Qollardı iyiw hám jazdırıw (brusta)	12	14
7	Turnikte tartılıw	14	16

2-súwret.



Tájiriybeden soń boksshılardıń kórsetkishleri

Joqarıda keltirilgen mağlıwmatlarǵa qaraǵanda, tájiriybe toparı boksshılarınıń tezlik-kúsh sapaları jaqsılanganlıǵın atap ótiw múmkin.

Juwmaq.

Ótkerilgen izertlew nátiyjesinde tómendegi juwmaqlardı qalıplestiriw imkaniyatın berdi:

1. Tájiriybe hám qadağalaw toparları boksshılarında tájiriybe baslanıwında parıqlar baqlanbadı.

2. Segiz hápte dawamında biz aylanba shınıǵıw usılın qollanıp boksshılarda ulıwma fizikalıq tayarlıǵınıń zárúr kóleminiń artıwına, absolyut hám partlawshı kúsh, tezliginiń rawajlanıwına erisildi.



Solay etip biz tárepimizden 16-17 jaslı boksshılardıń tezlik-kúsh sapaların rawajlandırıw ushın aylanba shınıǵıw quralların kirkiziwdıń nátiyjeliligi tájiriye jolı menen dálillendi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. И. П. Дегтярев Тренированность боксеров. Киев , 1985. 122 с.
2. E. Raxmanov Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Toshkent 2023. 259 b.
3. В. И. Филимонов. Бокс Спортивно-техническая и физическая подготовка: учебное пособие. Москва. 2014. 425 с.
4. В. П. Филин. Основы юношеского спорта. Москва. 1980. – 255 с.
5. R.Xalmuxamedov, V.Anashov, P.Adilshaev, I.Allanazarov. Boks teoriyasi Һam metodikasi. Toshkent 2023. 644-bet.
6. D.Kochanov, D.Qonirbayev. Boks penen dáslepki shugıllanıwshı jaslardı shınıqtırıw waqtında milliy Һam hárezetli oynılardı oynatıwdıń áhmiyeti. Dene tárbiyası Һam sport xabarshısı. 2024 №3. 31-36-b
7. Ian Oliver. Boxing fitness. 2005. 160 b.
8. В.А.Иванов. Скоростно-силовая подготовка в тренировочном процессе квалифицированных регбистов. Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. 2016. №9. 116-120 с.

Ў‘SMIR YENGIL ATLETIKACHILARNING MAXSUS JISMONIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

D.N.Raxmatova

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
dilnozara1982@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada 10-16 yoshli o‘smir yengil atletikachilarning maxsus jismoniy qobilyatlarini rivojlantirishda chap va o‘ng oyoq hamda oyoq panjalarini yozuvchi mushaklarning ko‘rsatkichlari bo‘yicha pedagogik tajriba natijalari va ularning muhokamasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yengil atletika, maxsus jismoniy qobiliyat, pedagogik asoslar, chidamlilik sifati, harakat faollik, o‘quv-mashg‘ulot.

Аннотация: В статье приведены данные по результатам педагогического эксперимента и их обсуждение по показателям ног, и разгибательных мышц левой и правой стопы в развитии специальных физических способностей легкоатлетов-подростков 10-16 лет.



Ключевые слова: Легкая атлетика, специальные физические способности, педагогические основы, качество выносливости, двигательная активность, учебная-тренировка.

Abstract: The article is presented the results of the pedagogical experiment and their discussion on the indicators of the muscles of the left and right legs and paws in the development of special physical abilities of 10-16-year-old adolescent track and field athletes.

Key words: Athletics, special physical ability, pedagogical foundations, quality of endurance, movement activity, training.

Kirish. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, o‘smirlarda chidamlilik sifatini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-mashg‘ulot jarayonini hamda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishda yuklamalarning shiddat zonalari bo‘yicha taqsimlanishi, tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalar samaradorligini oshirish yo‘llarini izlab topish bilan bog‘liq tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Shu bilan birga, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o‘smirlarda chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan model tavsiflarni ishlab chiqishga deyarli e‘tibor berilmagan, o‘smir shug‘ullanuvchilarning chidamlilik sifatini ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida shakllantirishga ilmiy asoslangan yondashuvlarni amalga oshirish dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi: yengil atletikachi o‘smir sportchilarda maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish vositalari va usullaridan foydalanish samaradorligini nazariy asoslash hamda tajribada tekshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Yengil atletika mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan maxsus vosita va usullarni aniqlash va qo‘llash;

- 10-16 yoshdagi sprinterlarning tezlik-kuch ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- chap va o‘ng oyoq hamda oyoq panjalarini yozuvchi mushaklarning ko‘rsatkichlari bilan natijalar orasidagi bog‘liqlik holatini aniqlash va taxlil qilish.

Adabiyotlar tahlili.

Yengil atletika bo‘yicha o‘smir sportchilarni tayyorlashda ularning jismoniy qobiliyatlarini yosh xususiyatlariga mos tarzda rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda chidamlilik, kuch, tezkorlik kabi qobiliyatlar bosqichma-bosqich rivojlantirilishi zarurligi ta‘kidlangan (Nabiev, 2017; Smith et al., 2020). Ayniqsa, oyoq mushaklarining kuch ko‘rsatkichlari va ularning sport natijalariga ta‘siri bo‘yicha olib borilgan ishlar (Petrov, 2015; Qosimova, 2022) o‘smirlik davrida sport ixtisoslashuvi jarayonida dinamometrik tahlilning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, 10–16 yoshdagi sprinterlarda chap va o‘ng oyoq mushaklarining rivojlanish darajasi hamda start kuchi ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan.



Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda eksperimental-pedagogik yondashuv asosida 10–16 yoshli yengil atletikachilar ishtirokida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tadqiqot ishtirokchilari yosh va sport stajiga ko‘ra guruhlariga ajratildi. Dinamometrik testlar orqali chap va o‘ng oyoq, shuningdek, oyoq panjalarini yozuvchi mushaklarning maksimal kuchi, kuch gradienti, start kuchi va tezkor kuch ko‘rsatkichlari qayd etildi. Olingan natijalar asosida statistik va korrelyatsion tahlil o‘tkazilib, sport natijalari bilan o‘zaro bog‘liqlik darajasi aniqlandi. Bu usul, sportchilarning kuch rivojlanishi va musobaqadagi samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

O‘quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, boshlang‘ich sport ixtisosligi bosqichida turli masofalarga yuguruvchilarni uzil-kesil ajratish mumkin emas. Ularning mashg‘ulotlari yagona uslubiy tamoyil bo‘yicha sodir bo‘ladi. Biroq o‘tkazilgan dinamometrik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tezkorlik yoki chidamlilik qobiliyatlari ustuvor rivojlangan yosh sportchilarni aynan 12 yoshdan ixtisoslik bo‘yicha ajratish maqsadga muvofiq.

1-jadval

10-16 yoshdagi sprinterlarning tezlik-kuch ko‘rsatkichlari va musobaqa faoliyatining korrelyatsion tahlili ko‘rsatkichlari

Dinamometrik ko‘rsatkichlar	Yoshi						
	10	11	12	13	14	15	16
Chap oyoq yozuvchi mushaklari							
Maksimal kuch	0,401	0,420	0,433	0,479	0,490	0,534	0,569
Kuch gradienti	0,305	0,315	0,320	0,394	0,435	0,489	0,525
Start kuchi	0,404	0,410	0,422	0,437	0,482	0,527	0,543
Tezkor kuch	0,305	0,345	0,377	0,424	0,477	0,482	0,536
O‘ng oyoq yozuvchi mushaklari							
Maksimal kuch	0,325	0,355	0,378	0,392	0,412	0,429	0,456
Kuch gradienti	0,327	0,365	0,399	0,391	0,443	0,437	0,484
Start kuchi	0,314	0,328	0,344	0,377	0,383	0,392	0,461
Tezkor kuch	0,329	0,345	0,376	0,388	0,422	0,437	0,465
Oyoq panjalarini yozuvchi mushaklar							
Maksimal kuch	0,326	0,358	0,384	0,422	0,437	0,488	0,534
Kuch gradienti	0,316	0,345	0,366	0,362	0,394	0,414	0,437
Start kuchi	0,332	0,365	0,374	0,389	0,411	0,437	0,464
Tezkor kuch	0,345	0,368	0,382	0,390	0,427	0,469	0,525



Asosiy masofalarda chap oyoq va o‘ng oyoq hamda oyoq panjalarini yozuvchi mushaklarning ko‘rsatkichlari bilan natijalar orasidagi bog‘liqlik tahlili o‘tkazildi, natijada sportchilarning kuch va tezkor-kuch tayyorgarligi, ularning sport natijalariga ko‘rsatadigan ta’siri aniqlandi (1-jadval). O‘z navbatida, korrelyatsiya tahlili, mashg‘ulot jarayoni samaradorligini o‘rganish bo‘yicha nazorat o‘tkazishda mo‘ljall olishga imkon beruvchi eng axborotli dinamometrik tavsiflarni aniqlashga yordam berdi.

2- jadval

O‘rta va uzoq masofaga yugurishga ixtisoslashayotgan 10-16 yoshli sportchilarda dinamometrik ko‘rsatkichlar va asosiy masofa natijalari orasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqlik

Dinamometrik ko‘rsatkichlar	Yoshi						
	10	11	12	13	14	15	16
O‘ng oyoq yozuvchi mushaklari							
Maksimal kuch	0,327	0,364	0,378	0,392	0,412	0,429	0,456
Kuch gradienti	0,345	0,376	0,399	0,391	0,443	0,437	0,484
Start kuchi	0,314	0,326	0,344	0,377	0,383	0,392	0,461
Tezkor kuch	0,325	0,355	0,376	0,388	0,422	0,437	0,465
Oyoq panjalarini yozuvchi mushaklar							
Maksimal kuch	0,335	0,365	0,373	0,379	0,412	0,434	0,466
Kuch gradienti	0,347	0,65	0,381	0,392	0,411	0,439	0,429
Start kuchi	0,337	0,365	0,398	0,419	0,427	0,436	0,469
Tezkor kuch	0,325	0,341	0,364	0,372	0,393	0,418	0,436

Start kuchi, ya’ni kuchning dastlabki 0,1 soniya ichida o‘shish tezligi sprinterlar uchun eng axborotli dinamometrik ko‘rsatkich hisoblanadi. Sport mahorati ortgan sari start kuchi va sprint yugurishi natijalarining o‘zaro bog‘liqligi funksionalga yaqinlashadi. Ushbu dalilni shunday tushuntirish mumkin, tez yugurishda tayanch-depsinish fazasi davomiyligi taxminan 0,1 soniyani, maksimal kuchga erishish vaqti esa 0,4-0,6 soniyani tashkil etadi. Shuning uchun tez yugurish sharoitlarida sportchi harakat kuchining mumkin bo‘lgan maksimal darajasini deyarli namoyon etishga ulgurmaydi. Sprinter uchun foydali tashqi kuchni tezroq, maksimal ahamiyatga ega bo‘lgan, ammo depsinishni bajarish uchun samarali bo‘lganini kamroq rivojlantirish muhim hisoblanadi (2-jadval).

Mushaklarning kuch gardiyentida yuqori axborotlilik aniqlandi.

Mushaklarning bo‘shashish tezligi eng muhim dinamometrik ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu kattalik sportchining harakatlarda ishtirok etmayotgan mushaklarini tezda ishdan bo‘shatish qobiliyatini aks ettirgan holda o‘rta va uzoq masofaga yugurish natijalarining samaradorligiga alohida ta’sir ko‘rsatadi.



Sprinterlarda sport natijasi va bo'shashish tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik past, ammo sport mahorati ortib borishi bilan uning ahamiyati ham oshib boradi.

Mushaklarni bo'shashtira olish qobiliyati, mushaklarning o'zaro koordinatsion aloqa darajasi va mushaklar tizimida faollik darajasini o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Demak, ikkinchi darajali mushaklarni minimal qiymatdagi faolligida asosiy yuklamani bajaruvchi mushaklarning o'zaro muvofiq kuchlanish darajasi amalga oshirilgan mushaklararo koordinatsiya hisoblanadi. Mushaklarning taranglik darajasi kam bo'lganda eng yaxshi natijalarga erisha olish, albatta, ancha takomillashgan mushaklararo koordinatsiyani aks ettiradi. Shuningdek, ta'kidlab o'tish joizki, aynan mushaklarni bo'shashtira olish mahorati erkin, zo'riqishsiz yugurish texnikasiga ega bo'lish va natijadorlikning yuqori ko'rsatkichlariga erishish bilan uzviy bog'liqdir.

Bo'shashish tezligi harakatlarda asab-mushak apparatining eng muhim tavsifi hisoblanadi. Ehtimol, u irsiy belgilangan bo'lishi va siklik sport turlari boshlang'ich sport ixtisosligi bosqichida eng bashoratli ko'rsatkich hisoblanishi mumkin. Yuguruvchilar mashg'ulot jarayonida erkin bo'shashishga o'rgatuvchi mashqlar yetarli darajada qo'llanilmaydi.

Kuch komponenti 15-16 yoshda sport natijalari bilan o'zaro aloqani namoyon etadi va ushbu yosh davrida mushak kuchining sprinter yugurishi tezligiga bo'lgan ta'siri ahamiyatsiz hisoblanadi. 15-16 yoshda mushaklar kuchi juda tez ortadi, yugurish tezligining mushak kuchi kattaligiga bog'liqligi namoyon bo'ladi. Shubhasiz, sprint yugurishida natijaga nisbatan kuch ta'sirining ortishi yugurish qadamlari uzunligini kuch sifatlarining rivojlanish va faol depsinish fazasida gorizontal kuchlanishning namoyon bo'lish darajasiga bog'liqligi bilan tushuntiriladi, bu esa yugurish tezligini aniqlab beradi.

Tormozlanish kuchining ortishiga qaramay, oldingi tezlikning yo'qotilishini kamaytirish va uni depsinishda rivojlantirish uchun tayanch bilan o'zaro munosabatga kirisha oladigan sprintlarga yaxshi yugura oladilar, ya'ni yaxshi natija ko'rsata oladilar. Tayanch bilan o'zaro ta'sirda texnika sifatining mezoni keyinchalik ham tekis nolga qaytish bilan o'ziga hos “kuch to'liqlini” bir tekisda o'sishi bilan bog'liqdir, bu albatta depsinishning optimal turiga mos keladi. Tayanch bilan o'zaro kuch ta'sirining bir tekis tavsifi, umumiy og'irlik markazining kamroq vertikal tebranishi faqat malakali sprinterlar yugurishiga hosdir. Yuqorida aytilganlar shuni ta'kidlaydiki, yuguruvchining harakat faolligi texnikasi takomillashgan sari mushaklararo aloqaning yo'lga qo'yilganligi, yuguruvchining umumiy harakatida ikkinchisining foiz ulushi o'sib boradigan tashqi va ichki ish nisbatlarini qayta taqsimlanishi hisobiga energiyani yo'qotilishi kamayadi, mushaklarning kuch va tezkor-kuch imokniyatlari ancha tartibli qo'llanilishi kuzatiladi.

Sifat jihatdan maksimal, portlash va start kuchi bilan baholanadigan qobiliyatlar turlicha bo'lib, nisbatan mustaqil hisoblanadi. Start kuchi yuqori



tezlikda yugurish ko'p yillik mashg'ulot jarayonida sportchilarning o'ziga hos harakat apparatiga ega bo'lishlarini aks ettiradi. Shuning uchun start kuchining o'sishi o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilar bilan qiyoslaganda sprintga ixtisoslashgan o'smirlarda ishonchli yuqori bo'ldi. Demak, mushaklar start kuchining o'sish jadalligini sprinterlarning maxsus tezkor-kuch tayyorgarligini baholash mezonini sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, malakali sportchilarda sport natijasi va keltirilgan dinamometrik tavsiflar orasida o'zaro bog'liqlik kuzatiladi. Bir vaqtning o'zida, kuch va uning vaqt bazasi orasida o'zaro bog'liqlik, na ishonchli korrelyatsiya, na parallel o'sish kuzatilmaydi.

Morfologik va dinamometrik tavsiflarni o'z ichiga olgan korrelyatsion bog'liqlik tahlili quyidagi qonuniyatlarni aniqlashga imkon beradi. Yengil atletikachilarda maksimal kuch qiymati, tekshiriluvchining somatik tipi va pastki tana qismlarida mushak og'irligining yaqqol ifodalanishi bilan ishonchli korrelyatsion bog'liqlikka ($r < 0,05$) ega. Yosh kattalashishi bilan alohida mushak guruhlari va somatik tip kuch ko'rsatkichlarida ishonchli korrelyatsion bog'liqlikning ortishi kuzatiladi.

Yosh o'smir sportchilar tayyorgarligini nazorat qilish jarayoni murabbiy va kuzatuv guruhi mutaxassislarning tahliliy ishlari asosida amalga oshiriladi va quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- sport natijadorligi darajasiga erishilgan asosiy turda sport natijalari va uning musobaqa oldi tayyorgarligi va musobaqa faoliyati elementlari bilan bog'liq tuzilmaviy tarkibini tahlil qilish;
- aralash masofalarda sport natijalari dinamikasi tahlili;
- musobaqa va mashg'ulot yuklamalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;
- nazorat musobaqalari jarayonida va maxsus trenajyorlarni qo'llash bilan test ma'lumotlari bo'yicha umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash;
- masalan, pulsometriya va biokimyoviy nazoratlarni qo'llash bilan o'tkaziladigan nazorat mashqlari va yuklamalarning mashg'ulot seriyalari natijalariga ko'ra sportchilarning funksional holatini baholash;
- asosiy sport harakatlarining bajarilish texnikasi tahlili;
- sportchilarning ruhiy holatini baholash;
- sportchilarning biologik darajasini aniqlash.

Organizm tizimlarini individual fiziologik, morfologik va biokimyoviy reaktivligi to'g'risidagi tasavvurlar sportchining shug'ullanganlik darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos hisoblanadi.

Organizmning ishchanlik qobiliyatini ta'minlovchi uning yetakchi funksional tizimlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning o'zgarishi mumkin bo'lgan ko'lamini sportchining shug'ullanganlik darajasini aniqlovchi joriy funksional holatining individual me'yori bo'lib xizmat qiladi.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ushbu ko‘lam qanchalik keng bo‘lsa, funksional tizimlarning uyushganlik darajasi, jismoniy yuklamalarga moslashish darajasi va albatta sportchi funksional organizmining individual me‘yorlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Shunday qilib, yosh o‘smir sportchilarda funksional holatning individual me‘yorlarini aniqlash uslubiyati negizida asosiy mashqlarning bajarilish muvoffaqiyatini belgilab beruvchi funksional tizimlar ko‘lamini tadqiq etish yotadi. Tadqiq etilayotgan parametrlarning miqdoriy mezonlar bo‘yicha o‘zgarishi organizm funksional holatining individual me‘yor dinamikasini ifodalaydi va mashg‘ulot jarayoniga tuzatishlar kiritish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori. – Elektron manba: <https://lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmoni. – Elektron manba: <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-sonli farmoni. – Elektron manba: <https://lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qarori. – Elektron manba: <https://lex.uz>
5. Верхошанский Ю.В. Физиологические основы и методические принципы в беге на выносливость. – М.: 2014. – 80 с.
6. Кулаков В.Н. Программирование тренировочного процесса высококвалифицированных бегунов на средние, длинные и сверхдлинные дистанции: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М., 1995. – 48 с.
7. Raxmatov N.A., Maxmudov T.M., Mirzayev S. Chidamkorlikning biokimyoviy asoslari va uni rivojlantirish uslublari // Biokimyo: Darslik. – T.: 2007. – B. 390–396.
8. Raxmatova D.N. 10–16 yoshli o‘smir sportchilarda chidamlilikni shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari // Fan – sportga: ilmiy-nazariy jurnal. – Ch., 2022. – №4. – B. 19–22.



YOSH SPORTCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI NAZORAT QILISH

Reymbaeva Roza Saparbaevna

Biologiya fanlari nomzodi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Jiyanov Oxunjon Mirzaxmad o‘g‘li

Tayanch doktorant

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

reymbaeva_roza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar tomondan daslabgi tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi qo‘l jangichilarning tayyorgarlik davrida yuklama hajmi va shiddati haqida ma‘lumot keltirilgan. Dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli qo‘l jangichilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilishni o‘rganish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Hozirda sport murabbiylari sport mashg‘ulotlaridagi yuklamani Polar time H-10 uskunasi nazorat qilishayotgan bo‘lishsada, ko‘pgina murabbiylarda bunday imkoniyat yo‘qligi sabab ham yuklamalarni sportchi yurak urushini minutlik soniga qarab necha foiz ekanligini belgilab olinmoqda.

Kalit so‘zlar: O‘stiruvchi yuklama, barqarorlashtiruvchi yuklama, yurak qisqarishining tinch holatdagi soni, yurak qisqarishining maksimal soni, yurak qisqarish zahirasi, yurak qisqarishining ishchi o‘sishi, yurak qisqarishinig nisbiy o‘sishi.

Аннотация: В данной статье автор приводит сведения об объеме и интенсивности нагрузки в подготовительном периоде рукопашных бойцов, занимающихся на этапе начальной подготовки. Разработаны практические рекомендации по изучению контроля тренировочных нагрузок при развитии физической подготовленности 10-12 летних рукопашных бойцов на этапе начальной подготовки. Хотя в настоящее время спортивные тренеры контролируют нагрузку во время спортивных тренировок с помощью оборудования Polar Time H-10, поскольку у многих тренеров нет такой возможности, нагрузки определяются в процентах от минутного количества сердечных сокращений спортсмена.

Ключевые слова: Ускорительная нагрузка, стабилизирующая нагрузка, число сердечных сокращений в покое, максимальное число сердечных сокращений, резерв сердечных сокращений, рабочее увеличение

Abstract: In this article, the author provides information on the volume and intensity of the load during the preparatory period of hand-to-hand combat athletes engaged in the initial training stage. Practical recommendations have been developed by studying the control of training loads in the development of physical



fitness of 10-12 year old hand-to-hand combat athletes at the initial training stage. Currently, sports coaches monitor the load during sports training using the Polar Time H-10 device, but due to the fact that many coaches do not have such an opportunity, the percentage of loads is determined based on the athlete's heart rate per minute.

Key words: *Accelerating load, stabilizing load, heart rate at rest, maximum heart rate, heart rate reserve, working heart rate increase, relative heart rate increase.*

Kirish. Dunyoda barcha sport turlari kabi yakka kurash sport turning jadal rivojlanib borayotganligi barchamizga ma'lum. Bolalar va o'smirlar sporti nazariyasi va amaliyotida yosh sportchilarni mashg'ulotlarini rejalashtirish, sportga saralash, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, psixologik, texnik-taktik hamda funksional tayyorgarligida qo'llaniladigan vosita va usullarni amaliyotga tadbiq etish borasida ko'plab imliy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Yakka kurash sport turi bilan shug'ullanuvchilarning sportdagi natijalari shiddat bilan o'sishi ushbu sohada hozirgi kun talablariga mos o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazish uchun eng qulay tizimini ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. Yosh sportchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni zamon talablariga mos tarzda tashkillashtirish bolalar va o'smirlar sporti nazariyasi va uslubiyotini takomillashtirish dunyo miqyosdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Jahon sport amaliyotida yakka kurash sport turi bo'yicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlarning soha mutaxassislari va olimlari tomonidan dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar jarayonini zamon talablariga mos holda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llaniladigan vositalarni jismoniy sifatlarga, harakat texnikasini rivojlantirishga mos tarzda qo'llash usullarini takomillashtirish va amaliyotga tadbiq etish hozirda malakali murabbiylar va soha mutaxassislari oldidagi dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yosh sportchilar jismoniy sifatlari va jismoniy tayyorgarligini tarbiyalashga quyidagi yetakchi mutaxassis, olimlar A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev, SH.A.Abdullayev., B.Boyboboyev, F.A.Kerimov., O.V.Goncharova., R.S.Salomov., S.S. Tojibayev., M.A. Tojiyev., T.S.Usmonxo'jayev., D.N. Raxmatova., J.M. Ishtayev va boshqalar o'zlarining ilmiy, nazariy va amaliy ishlarida bayon qilganlar.

10-12 yoshli qo'l jangichilar jismoniy sifatlari va jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan olimlar A.H.Astaxova., Ye. D.Boyko., P.V.Fedorenko., S.Dagayev va boshqalar tomonidan yakka kurash sporti bilan shug'ullanuvchi bolalar jismoniy sifatlarini tarbiyalash va maxsus jismoniy



tayyorgarligini rivojlantirishga tegishli ilmiy ishlar olib borib, nazariy ma'lumotlar hamda amaliy tavsiyalari bayon etilgan.

Tadqiqotning maqsadi dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli qo'l jangichilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilishni o'rganish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari. 10-12 yoshli qo'l jangichilarning funksional holatini (pulsometriya) o'rganish;

10-12 yoshli qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llaniladigan yuklamalar hajim shiddatini aniqlash;

10-12 yoshli qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning tashkil qilish uslublari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, anketa so'rovi, pedagogik testlash, pulsometriya, matematik statistika usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqot ishi dastlabki tayyorgarlik bosqichi yosh qo'l jangichilar 10 oydan ortiq vaqt davomidagi mashg'ulot jarayonida olib borildi. Namangan viloyatida tajriba guruhi, 32 nafar, nazorat guruhida 32 nafar, yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablarida shug'ullanuvchi 10-12 yoshli qo'l jangichilar mashg'ulotlarida umumiy jismoniy tayyorgarligini (tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlikni) rivojlantirishda qo'llanilgan yuklamalarni sportchilar mashg'uloti mikrosikllarda optimal holatda qo'llash uchun olib borilgan. Tadqiqotni tashkil etishda asosiy etibor tajriba nazorat guruhidagi sportchilarning tinch holatdagi va yuklamadan keyingi yurak qisqarishining ishchi o'sish sonini hamda maksimal yurak qisqarish sonini aniqlab olishga qaratildi. Olingan natijalar asosida umumiy o'rtacha (tinch holatdagi va yuklamadan keyingi yurak qisqarishining ishchi o'sish sonini hamda maksimal yurak qisqarish) soni belgilab olindi.

Sog'lom odamlarda yurak urish tezligining normal qiymatlari quyidagicha. Ushbu ko'rsatkichlar yoshga bog'liq.

Odatda, odamda yurak urish tezligining quyidagi ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ular daqiqada urishi bilan o'lchanadi:

6 yoshgacha bo'lgan bolalarda - 100;

18 yoshgacha - 70 dan 90 gacha;

18 yoshdan oshgan kattalarda - 60 dan 70 gacha;

30 yoshdan keyin - 60 dan 85 gacha.

Tajriba guruhidagi 10-12 yoshli qo'l jangichilarning mashg'ulot yuklamalarining hajim-shiddatini belgilab olishga qaratilgan formulaning namunasi quyidagicha keltirilgan.

$YUQCh_{\text{tinch}} = 72$

$YUQCh_{\text{max}} = 220$

$YUQCh_{\text{zahira}} = YUQCh_{\text{max}} - YUQCh_{\text{tinch}} (220 - 72 = 148)$



$YUQCh_{zahira} = 100 \%$

$YUQCh_{ishchi\ o'sish} - 168$ ta (mashg‘ulot jarayonida jismoniy yuklamadan (60 m.ga yugurish)so‘ng).

$YUQCh_{nisbiy\ o'sish} = YUQCh_{ishchi\ o'sish} - YUQCh_{tinch} (168 - 72 = 96)$

$YUQCh_{nisbiy\ o'sish} =$ necha foizga puls ozgargani.

$96 = ? \%$ $\% = \frac{96 \times 100}{148} = 65 \%$

Mashqlar	Qo‘llash uslubi	Mashq davomiyligi	Takrorlash soni	YuQS zarba/daq	Tiklanish vaqti
60 metr masofaga yugurish (sherigi 55 metr masofaga yuguradi)	Ushbu mashq, musobaqa uslubida, yillik mashg‘ulotning tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotining tayyorlov qismida, tezkorlik sifatini rivojlantirish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llaniladi. Keltirilgan mashqlarni kuchda yaroqlilik tamoyili asosida (birinchi urinishda 60 m.ga, 50 m.ga, 40 m.ga, 30 m.ga yuguriladi) qo‘llaniladi.	9-10 soniya	3-4 marta	160-170	2-2.5 daq

Yuqoridagi keltirilgan formula asosida mashg‘ulotlar mikrosiklida beriladigan yuklamalarni uch kunlik mashg‘ulotlarga to‘lqinsimon usulda oshirib borildi. Unga ko‘ra dushanba kungi **o‘rta yuklama** barqarorlashtiruvchi bo‘lib, **40-60 %** gacha, chorshanba kungi **katta yuklama** o‘stiruvchi yuklama bo‘lib, **80-100 %** gacha, juma kungi **sezilarli yuklama** o‘stiruvchi bo‘lib, **70-80 %** gacha qilib belgilangan. Shu bilan bir qatorda har bir mashg‘ulotda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan har bir mashqlarni hajim shiddatini belgilab olishga erishildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot yakunidagi Namangan viloyatidagi Yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalariga ko‘ra, nazorat guruhidagi sportchilar 60 m. masofaga yugurish sinov natijasi bo‘yicha 5.7 %.ga, tajriba guruhidagi qo‘l jangichilarda ushbu ko‘rsatkichlar 14.8 %.ga aniqlandi. Quyida barcha ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligining tadqiqot boshi va yakunidagi natijalari

№	Sinovlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi		
		TB	TO	O'sish %	TB	TO	O'sish %
1	60 m yugurish (soniya)	10.57	9.96	5.7 %	10.80	9.20	14.8 %
2	3x10 molkisimon yugurish (soniya)	8.53	8.15	4.4 %	8.74	7.79	10.8 %
3	Turnikda tortilish (marta)	3.34	5.38	61 %	2.92	6.94	137.6 %
4	1000 metr masofaga yugurish (daq, soniya)	5.41	4.58	21.6 %	5.70	4.04	29.1 %
5	Gimnastika orindigidan oyoq tizzalarni bukmay oldinga egilish (oyoq ostidan pastga (sm) hisoblanadi)	5.63	9.5	68.7%	5.09	11.09	117.8 %



Eslatma: Ushbu jadvalda **NG-** nazorat guruhi, **TG-**tajriba guruhining **TB-** tadqiqot boshi, **TO-**tadqiqot oxiridagi natijalari bayon etilgan.

Xulosa. Yuqoridagi keltirilgandan xulosa sifatida dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli sportchilarga beriladigan mashg'ulot yuklamalarini tizimli oshirib borish, umumpedagogik va maxsus prinsiplarga tayangan holda mashg'ulot o'tkazish kabilarga alohida etibor qaratish lozim. Hozirda sport murabbiylari sport mashg'ulotlaridagi yuklamani Polar time H-10 uskunasi bilan nazorat qilishayotgan bo'lishsada, ko'pgina murabbiylarda bunday imkoniyat yo'qligi sabab ham yuklamalarni sportchi yurak urushini minutlik soniga qarab necha foiz ekanligini belgilab olishi qiyin bo'lmoqda. Ushbu muammolarni hal erishda murabbiylar yuqorida keltirilgan formula hamda undan foydalanish uslubini o'rganishi samarali hisoblanadi. Shundagina sportchilarning yoshlikdan jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiluvchi mashg'ulot mikrosikllarini optimal varianti yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arabboyev Q.T. // Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari) Darslik // “O'ZKITOBSAVDO-NASHRIYOT” NMIU, Toshkent – 2023, 312 bet.
2. Arabboyev Qahramon. "SPORTDA BASHORAT QILISH MUAMMOLARI." INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY (2024): 39-43.
3. Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.
4. Arabboyev Q.T. "SPORTCHILARNI TAYYORLASHDA FUNKSIONAL TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.
5. Tojiyev M.A. Sport nazariyasi / . Darslik. TOSHKENT “MAKON SAVDO PRINT” 2023. 230 b
6. Jiyanov O.M. Methods of improving the physical fitness of young hand-to-hand fighters// Eurasian Journal of Sport Science 2023; 1(2): B-176-179.
7. Jiyanov O.M. 11-12 yoshdagi yakka kurashkurashchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda maxsus jismoniy tayyorgarlikning roli //Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi– 2023-yil_7-son. B-713-718.
8. Jiyanov O.M. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh qo'l jangchilarning o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish. // Fan – sportga №4/2023. B-50-52.
9. Jiyanov O.M. 10-12 yoshli qo'l jangchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini baholashga yangicha yondoshuvlar// “Gimnastika sport turlarini



rivojlantirishni zamonaviy muammolari va istiqbollari” Xalqaro ilmiy - amaliy anjumani to‘plami. - Toshkent: 2024. B-283-285.

10. Жарылкапов У.Б. (2023). КУРАШЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА ТАКТИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Fan-Sportga*, (2), 110-111.

YENGIL ATLETIKA VOSITALARI ORQALI TALABLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mambetkasimova Qirmızı Baltabaevna

assistent o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

qirmisi@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yengil atletikaning o‘qish jarayoniga integratsiyasi, jismoniy tayyorgarlikning asosiy aspektlari va uni talabalarning umumiy salomatligi va faoliyatiga qanday ta’sir qilishiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, jismoniy mashqlar orqali stressni kamaytirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va guruhdagi ijtimoiy muhitni yaxshilash masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Test natijalarini yengil atletika bo‘yicha yugurish yo‘nalishlarining daraja standartlari bilan qiyosiy tahlili o‘tkazildi.

Kalit so‘zlar: talabalar, sport, yengil atletika, jismoniy tayyorgarlik, tezlik-kuch mashqlari, interval usuli, musobaqa usuli, mashg‘ulot.

Аннотация: В статье рассматривается интеграция лёгкой атлетики в учебный процесс, основные аспекты физической подготовки и её влияние на общее состояние здоровья и активность студентов. Также обсуждаются вопросы снижения стресса, саморазвития и улучшения социального климата в группе через физические упражнения. Проведён сравнительный анализ результатов тестирования с нормативами по беговым направлениям лёгкой атлетики.

Ключевые слова: студенты, спорт, легкая атлетика, физическая подготовка, скоростно-силовые упражнения, интервальный метод, соревновательный метод, упражнение.

Abstract: The article examines the integration of athletics into the educational process, the main aspects of physical training, and its impact on students' overall health and activity. It also discusses the role of physical exercises in reducing stress, promoting self-development, and improving the social climate within the group. A comparative analysis of test results with standard benchmarks in track and field running disciplines was conducted.



Key words: *students, athletics, physical training, speed and strength exercises, interval method, competitive method, exercise.*

Kirish. An'anaviy jismoniy tarbiya tizimining samaradorligini o'rganish natijasida talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarligi yetarli darajada emasligi aniqlandi [3,4]. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, talabalar uchun eng qiyin standart umumiy chidamlilikni namoyish qilish bilan bog'liqdir [5,6]. Oliygothlar uchun jismoniy tarbiya dasturi va kompleksida yugurish yengil atletika fanlarida 100 va 3000 m. masofalar bilan ifodalanadi. Talabalar o'rtasida o'tkazgan so'rovimiz va amaliy tajribamiz shuni ko'rsatadiki, ular eng kam masofani barqaror sur'atda bosib o'tish bilan bog'liq mashqlarni bajarishni yaxshi ko'radilar. Shu bilan birga, talabalik davrida jismoniy tarbiya va sportda raqobatga intilish va motivatsiyaning raqobatbardosh komponenti yuqori darajada rivojlangan.

Yengil atletika arsenalidan tayyorlov va musobaqa mashg'ulotlari o'quvchilarning asosiy jismoniy sifatlarini yaxshilash imkonini beruvchi kompleks rivojlantirish vositasidir [2]. Raqobatbardosh atletikada talabalar uchun eng qulay bo'lgan musobaqalar yugurish masofalari bo'lib, ular turli talabalar musobaqalarida keng namoyish etiladi. Har tomonlama va ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarliksiz, tezlik, kuch va tezlik-kuch sifatleri, shuningdek muvofiqlashtirish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmagan holda yengil atletikaning yugurish yo'nalishlarida muayyan natijalarga erishish mumkin emas [1]. Bizning fikrimizcha, o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda yengil atletika fanlarida zarur jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus yugurish mashqlaridan foydalanish kerak.

Zamonaviy talabalarning ko'pchiligining jismoniy tayyorgarligi pastligi va jismoniy tarbiya jarayoni uchun etarli darajada motivatsiya yo'qligini hisobga olgan holda, oliy o'quv yurtlarida talabalarni jismoniy tarbiyalashning yangi pedagogik yondashuvleri, vositalari va usullarini izlash zarur. Bundan tashqari, o'quv yilining ko'p qismida akademik mashg'ulotlar auditoriyada o'tkaziladi, bu esa chidamlilikni rivojlantirish uchun ishlatiladigan vositalarni tanlashni cheklaydi. Bizning fikrimizcha, hozirgi sharoitda o'quvchilarning jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun yengil atletika arsenalidan tezlik-kuch mashqlaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq amalga oshirilmagan.

Tadqiqot maqsadi o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash metodikasining takroriy, intervalli va musobaqali usullardan, shu jumladan, jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish uchun tez-kuchli yengil atletika mashqlaridan foydalangan holda samaradorligini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tadqiqot ishimizda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik eksperiment, pedagogik test, matematik statistika usullaridan samarali foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida 2024 yil sentyabr oyidan 2025



yil aprel oyiga qadar o‘tkazildi. Pedagogik eksperimentda asosiy mutaxassislik guruhlaridan 48 nafar o‘g‘il bola talabalar (ulardan 24 nafari tajriba guruhida va 24 nafari nazorat guruhida) ishtirok etdilar. Tajriba guruhida (TG) o‘quv mashg‘ulotlari talabalarni tayyorlash uchun biz ishlab chiqqan metodikadan, shu jumladan takroriy, intervalli va raqobat usullaridan foydalangan holda yengil atletika arsenalidan tezlik-kuch mashqlaridan foydalangan holda o‘tkazildi.

Nazorat guruhi (NG) turli sport turlaridan foydalangan holda har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka qaratilgan o‘quv dasturiga amal qildi.

Biz ishlab chiqqan usulda intervalli yuklamalar 1-1,5 daqiqa davomida 170-180 zarba/daqiqa intensivligida yugurishni va 2 daqiqalik dam olish oralig‘ini o‘z ichiga olgan ishlaydigan vazifalar edi. Bundan tashqari, darsning asosiy qismida talabalar juft bo‘lib 5–10 soniya davom etgan, dam olish vaqti 3–6 minut bo‘lgan yugurish mashqlarini bajardilar. Ushbu vazifalar yordamida takroriy va raqobatbardosh o‘qitish usullari amalga oshirildi.

Musobaqa usuli talabalarni filial miqyosidagi yengil atletika musobaqalariga tayyorlash va ishtirok etish orqali ham amalga oshirildi.

Tajriba guruhi talabalarining asosiy e‘tibori o‘z sport ko‘rsatkichlarini oshirishga va sport toifalari me‘yorlarini bajarishga qaratildi, bu jismoniy sifatlarni rivojlantirish va sinab ko‘rish jarayonida o‘quvchilarning ishtiyoqini oshiruvchi qo‘shimcha omil bo‘lib xizmat qildi.

Talabalarning jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasi “Jismoniy tarbiya va sport” intizomi bo‘yicha davlat dasturi va testlari bo‘yicha tavsiya etilgan nazorat mashqlari yordamida baholandi. Umumiy chidamlilik 3000 m. yugurish testi yordamida baholandi, kuch chidamliligi – “Baland turnikda osilgan holatda tortilish” yordamida baholandi, tezlik sifatlari 100 m. yugurish testi yordamida baholandi, tezlik-kuch sifatlari tik turgan holda uzunlikka sakrash testi yordamida baholandi, egiluvchanlik – “Asosiy turishdan oldinga egilish”, harakatni muvofiqlashtirishda namoyon bo‘ladigan koordinatsion qobiliyatlar esa – “3×10 m mokisimon yugurish” sinovi orqali baholandi.

Tajriba oldidan va oxirida ikkala guruh talabalari sinovdan o‘tkazildi. Tajriba boshlanishidan oldin o‘tkazilgan test sinovlari nazorat va tajriba guruhlardagi o‘quvchilarning jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farqlarni aniqlamadi (1-jadval).

1-jadval

Pedagogik eksperimentdan oldin va keyin talabalarning jismoniy sifatlarini tekshirish ko‘rsatkichlari ($M \pm m$)

Tadqiqot qilingan sifatlari	Testlar, birlik o‘zgarishi	Davrlar tadqiqot	TG (n=24)	NG (n=24)	P1
Umumiy chidamlilik	3000 m yugurish, s	Taj. oldin	843±46	844±52	>0,05
		Taj. keyin	812±41	839±45	<0,05
		P ₂	<0,05	>0,05	
Kuchga chidamlilik	Yuqoriga tortish, marta soni	Taj. oldin	7±5	8±4	>0,05
		Taj. keyin	9±4	9±4	>0,05
		P ₂	>0,05	>0,05	



Tezlik sifatleri	100 m yugurish, s	Taj. oldin	14,5±1,9	14,5±1,8	>0,05
		Taj. keyin	13,4±1,8	14,4±1,7	<0,05
		P ₂	<0,05	>0,05	
Yuqori tezlik kuch sifatleri	Tik turgan holda uzunlikka sakrash, sm	Taj. oldin	233±15	232±14	>0,05
		Taj. keyin	242±11	235±12	<0,05
		P ₂	< 0,05	> 0,05	
Moslashuvchanlik	Oldinga egilish, sm	Taj. oldin	6±2	6±3	>0,05
		Taj. keyin	10±4	8±4	<0,05
		P ₂	<0,05	<0,05	
Muvofiqlashtirish qobiliyatlari	“3×10 m mokisimon yugurish” s.	Taj. oldin	7,4±0,5	7,6±0,5	>0,05
		Taj. keyin	6,9±0,4	7,4±0,6	<0,05
		P ₂	<0,05	>0,05	

Eslatma: P1- TG va NGda o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligi;
P2- tajribadan oldin va keyin guruh ko‘rsatkichlaridagi farqlarning ishonchliligi.

Tajriba yakunida test natijalarini tahlil qilish, qo‘l va elka mushaklarining kuch chidamliligi darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichdan tashqari, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirishning aksariyat ko‘rsatkichlarida ishonchli ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi.

Nazorat guruhi talabalarida “moslashuvchanlik” sifatini tavsiflovchi testda ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi, tajriba davomida boshqa ko‘rsatkichlarda o‘zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatsiz edi.

Tajriba yakunida talabalarning o‘rtacha guruh test natijalarini solishtirganda, natijalari ma‘lum bo‘ldi: “3000 m yugurish”, “100 m yugurish”, “Tik turgan joydan uzunlikka sakrash”, “Asosiy holatdan oldinga egilish” va “3×10 m mokisimon yugurish” ko‘rsatkichlari nazorat guruhidagi o‘quvchilarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi.

Tajriba guruhidagilarining tezlik, tezlik-kuch sifatleri va muvofiqlashtirish qobiliyatining sezilarli darajada yaxshilanishini yengil atletika mashg‘ulotlari arsenalidan olingan alaktik-anaerob yuklar va tezlik-kuch mashqlarining ta‘siri bilan izohlash mumkin.

Tajriba guruhidagilarining umumiy chidamlilikning o‘rishini ko‘rsatadilar, bu bizning fikrimizcha, takroriy va intervalli usullardan foydalanish, shuningdek, yaxshi oksidlanish qobiliyatini ta‘minlaydigan aerob va kuch yuklarining kombinatsiyasi bilan bog‘liq.

Moslashuvchanlikning statistik jihatdan sezilarli o‘rishi tezlik-kuch mashqlari cho‘zish va dam olish mashqlari bilan birlashtirilganligi bilan bog‘liq.

Tajriba boshlanishidan oldin tajriba guruhidagi atigi besh nafar talabaning 3000 m. masofaga yugurish natijalari yoshlar toifalari me‘yorlariga to‘g‘ri keldi, 100 metrga yugurishda esa uchta o‘quvchining natijalari kattalar toifasi, o‘n nafari esa yoshlar sport toifalari darajasida bo‘ldi.

Tajriba yakuni bo‘yicha test natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi 11 nafar o‘quvchi 3000 m. masofaga yugurishda kichik toifalar, 9 nafari



kattalar toifasi, 13 nafari esa 100 m. masofaga yugurishda kichik toifalar me’yorlarini bajargan.

Xulosa. Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot talabalarning jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun takroriy, intervalli va musobaqali usullardan, jumladan, tez-kuchli yengil atletika mashqlaridan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarida jismoniy tarbiya metodikasining samaradorligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобровник В.И. Система оценки и прогнозирования физического состояния квалифицированных спортсменов в легкой атлетике // Педагогика и психология. 2013. № 3. С. 12–19.
2. Верхошанский Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте. 3-е изд. М.: Советский спорт, 2013. 216 с.
3. Виноградов И.Г., Токарева А.В. Экспериментальное тестирование уровня и динамики физической подготовленности студентов СПбГАСУ // Ученые записки университета им. П. Ф. Лесгафта. 2016. № 6(136). С. 30–33.
4. Кокшаров А.В., Мироненко Е.Н. Динамика показателей физического развития и физической подготовленности студентов железнодорожного вуза // Омский научный вестник. 2013. № 3(119). С. 186–189.
5. Манжелей И.В. Педагогическое сопровождение Всероссийского физкультурно-спортивного комплекса «Готов к труду и обороне» в вузе // Научно-методическое обеспечение и сопровождение системы физического воспитания и спортивной подготовки в контексте внедрения комплекса ГТО: материалы Междунар. науч.-практ. конф. / под общ. ред. В.В. Эрлиха, А.П. Исаева, А.И. Федорова. Челябинск: Издат. центр ЮУрГУ, 2015. С. 420–425.
6. Трещева О.Л. Готовность студентов технического вуза к сдаче норм ГТО // Стратегия формирования здорового образа жизни молодежи: опыт и перспективы развития: материалы Междунар. науч.-практ. конф. / под ред. Н.А. Матвеевой, Е.В. Четошниковой. Барнаул: АлтГПУ, 2017. С. 261–264.

200 M MASOFAGA YUGURUVCHI MALAKALI SPORTCHILARNING MORFOFUNKTSIONAL KO‘RSATKICHLARI

Yusupov G‘ayrat Abdullayevich

Dotsent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
yusupovg08@gmail.com

Anotatsiya: Hozirgi zamon jismoniy tarbiya va sport hamjamiyatida sportning yengil atletika turi bo‘yicha oldingi qatorlarda turuvchi davlatlarning soha bo‘yicha mutaxassisleri va sport olimlari tomonidan yengil atletikaning “200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni yillik tayyorgarlik sikllarida sport musobaqalariga tayyorlash texnologiyasiga oid zamonaviy talablarga mos



keladigan va uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar va yangiliklar qilinmoqda, 200 m masofaga yuguruvchi malakali yengil atletikachi talabalarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligini oshirish yo'llari.

“200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni tezkor kuch sifatini rivojlantirish va “200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni yillik tayyorgarlik sikllarida portlovchi kuchini rivojlantirish metodikasini qo'llanilishi.

Kalit so'zlar: Yengil atletika, 200 m masofa, qisqa masofalar, sportchilar, musobaqa tayyorlash jarayoni, mashg'ulotlar jarayoni, musobaqalar jadvali, Sikl va ularning turlari.

Аннотация: В настоящее время в спортивной и физкультурной среде специалисты и спортивные ученые стран, находящихся на передовых позициях в области легкой атлетики, проводят научные исследования и разработки, направленные на соответствие современным требованиям технологий подготовки квалифицированных спортсменов, бегущих на 200 метров, к спортивным соревнованиям в годичных циклах подготовки, а также на развитие легкой атлетики. Рассматриваются способы повышения эффективности подготовки студентов-квалифицированных легкоатлетов к соревнованиям на 200 метров. Также применяется методика развития быстрой силы у квалифицированных спортсменов, бегущих на 200 метров, и развитие взрывной силы в их годичных циклах подготовки.

Ключевые слова: Легкая атлетика, дистанция 200 м, короткие дистанции, спортсмены, процесс подготовки к соревнованиям, процесс тренировок, расписание соревнований, циклы и их виды.

Abstract: Currently, in the field of physical education and sports, there are scientific research and innovations directed at the development of athletics, specifically regarding the preparation of qualified athletes who run the 200 m distance for sports competitions, aligned with modern requirements for annual training cycles established by specialists and sports scientists from leading countries. There are ways to enhance the effectiveness of training qualified athletes for competitions, focusing on the development of explosive strength and the methodologies for developing the explosive power of qualified athletes in their annual training cycles.

Key words: Athletics, 200 m distance, short distances, athletes, competition preparation process, training process, competition schedule, cycles and their types.

Kirish. Mamlakatimizda keying yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy samarasi katta bo'layotganini e'tirof etish lozim. Jumladan, hozirgi zamon jismoniy tarbiya va sport hamjamiyatida sportning yengil atletika turi bo'yicha oldingi qatorlarda turuvchi davlatlarning soha bo'yicha mutaxassislari va sport olimlari tomonidan yengil atletikaning “200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni yillik tayyorgarlik sikllarida sport



musobaqalariga tayyorlash texnologiyasiga oid zamonaviy talablarga mos keladigan va uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar va yangiliklar qilinmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Yengil atletika, xususan, qisqa masofa yugurish turlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sportchilarning jismoniy va morfofunktsional holatini aniqlash orqali ularning musobaqalarga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajribalarda 200 metrga yuguruvchi sportchilarning portlovchi kuchi, tezkor kuchi, yurak-qon tomir tizimi faoliyati, nafas olish tizimi imkoniyatlari, mushak massasi va tana proporsiyalari asosiy aniqlovchi omillar sifatida e'tirof etiladi (Bompa & Haff, 2009; Platonov, 2013).

Yevropa va Amerika sport ilmiy maktablari tomonidan 200 metrga yugurishda texnika va tayyorgarlik jarayonida kuch-funksional ko'rsatkichlar asosida individual yondashuvlar ishlab chiqilgan. Masalan, Frantsiyaning INSEP ilmiy markazi tadqiqotchilari qisqa masofa yuguruvchilarda maksimal kislorod iste'moli (VO_2 max) va anaerob salohiyat orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali mashg'ulot metodikasini takomillashtirish yo'llarini tavsiya etgan (Bourdin et al., 2010).

O'zbekiston olimlari, xususan, E.Shodmonov, A.Tashpulatov, M.Qurbonov va boshqalar qisqa masofa yugurish bo'yicha o'quv-mashg'ulot jarayonlarini modellashtirish, sportchilar tayyorgarligining yillik sikl strukturasi aniqlash, shuningdek, morfometrik parametrlar va ularning sport natijalariga ta'siri masalalarini yoritib bergan.

Ammo ko'pgina adabiyotlarda aynan 200 m masofaga ixtisoslashgan malakali sportchilar bo'yicha chuqur morfofunktsional tahlillarning yetarli emasligi, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan kompleks tadqiqotlarning kamligi kuzatiladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqot 200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlarini aniqlash, solishtirish va tahlil qilish maqsadida olib borildi. Tadqiqot obyekti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil olayotgan malakali yengil atletikachi talabalar tashkil etdi. Tadqiqot subyektlari tajriba ($n=15$) va nazorat ($n=15$) guruhlariga bo'linib, ularning morfometrik va funksional ko'rsatkichlari quyidagi parametrlar asosida baholandi:

- Tana bo'yi (sm);
- Tana og'irligi (kg);
- Gavda bo'yi (trunk length);
- Qo'l kuchi (dynamometriya usuli bilan).

Tadqiqot davomida statistik ishlov berish usullari qo'llanilib, o'rtacha qiymatlar (M), standart og'ish ($\pm SD$), absolyut va nisbiy farqlar foizda hisoblandi. Tahlil davomida Microsoft Excel va SPSS statistik dasturlaridan foydalanildi.



Shuningdek, sportchilarning portlovchi kuchi va tezkor kuchi mashg'ulotlari mazmuni tahlil qilinib, yillik tayyorgarlik sikllarining samaradorligi bo'yicha ham kuzatuvlar olib borildi.


Natijalar va muhokama.

200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligi bo'yicha sportchilarning jismoniy imkoniyatlari hamda individual xususiyatlarini inobatga olib qo'llaniladigan vosita va usullarning mashg'ulot oldiga qo'yiladigan aniq maqsad bilan bog'liqligi yuqori malakali sportchilarni tayyorlash imkoniyatini yanada oshiradi. 200 m masofaga yuguruvchi sportchilar mahalliy musobaqalarda yaxshi natija ko'rsatsalar-da, ammo jahonda o'tkazilayotgan musobaqalarda ishtirok etish uchun natijalar ustida ko'proq ishlashimiz kerakligini ko'rsatmoqda.

Olingan tadqiqotlarimiz davomida 200 m masofaga yuguruvchi malakali yengil atletikachi talabalarni morfofunktsional ko'rsatgichlari tadqiqot boshida quyidagicha natija ko'rsatdi. 200 m masofaga yuguruvchilarning morfofunktsional holatini o'rganish jarayonida tana uzunligi tajriba guruhida o'rtacha $174,21 \pm 5.24$ sm tashkil etgan bo'lsa nazorat guruximizda esa bu ko'rsatgich 173.80 ± 5.32 natijani qayd etdi. Shunday tadqiqotlarimizda yan biri tana vaznini o'lchash jarayonida tajriba guruximizda 83.21 ± 5.91 kg bo'lgan bo'lsa nazorat guruximizda bu natija 81.79 ± 6.35 kg natija qayd etdi. Bu tadqiqot boshi natijamizdan ko'rinib turibdiki bu ko'rsatgichlarimizning farqi juda katta emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqotboshi morfofunktsional ko'rsatgichlarimiz davomida olingan yana bitta testimiz bu - gavda bo'y uzunligidir gavda bo'y uzunligi bo'yicha nazorat guruximizda 91.36 ± 5.93 sm natija bilan yakunlagan bo'lsak tajriba guruximizda esa bu ko'rsatgich 93.43 ± 6.43 sm absalyut va nisbiy farqlar 2.07 ± 2.27 sm uncha katta emasligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotimiz davomida navbatdagi ko'rsatgichimiz qo'l kuchini o'lchash hisoblanib o'ng va chap qo'l kuchini hisoblaganimizda 49.53 ± 5.18 ni tashkil etgan bo'lsa nazorat guruximizning o'ng va chap qo'llaridan olingan natijalar esa 52.57 ± 4.83 ni qayd etdi.





Bugungi zamonaviy sport turlari ichida yengil atletikani o'rni juda muhim sanaladi. Ayniqsa “200 m masofaga yugurish turi hozirgi kunda dunyo va O'zbekistonda juda ham rivojlanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, Respublikamiz bo'ylab qisqa masofa yuguruvchi yengil atletkachilar umumta'lim maktablarida, akademik litseylarida, kasb hunar kollejlari, olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida, oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari va sillabuslaridan o'rin olgan bo'lib, o'quvchi yoshlar, talabalar va havaskor sportchilar hamda aholi muntazam shug'ullanib kelayotgan sport turlari sirasiga kiradi. Yurtdoshlarimiz turli xil madaniy dasturlari va sport festivallari hamda musobaqalarida ishtirok etish bilan bir qatorda turli xil ochiq chempionatlar hamda xalqaro sport musobaqalarda faxrli o'rinlarni olib muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

Mazkur musobaqalarda ishtirok etish quvonarli hol, biroq sportchilarimiz tomonidan ko'rsatayotgan sport natijalari juda past darajadiligini inobatga olsak, sportchilarimizni ma'lum bir yurtimiz chempionatlarda natijalar yaxshilanayotgan bo'lsada, nufuzli jahon va xalqaro darajadagi musobaqalarda kerakli natijalari ko'rsata olmayotganligi qisqa masofa yuguruvchi yengil atletikachilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirishdagi xato va kamchiliklar mavjudligi hisobiga sportda ko'zlangan natijalaridan ortda qolayotganligimizga sabab bo'lmoqda.

Bu sohada hozirgi kunda ko'plab yetakchi olimlar qisqa masofa yuguruvchi yengil atletikachilar uchun metodik dasturlar hamda musobaqaga tayyorlash samaradorligi bo'yicha o'z ilmiy izlanishlari hamda qarashlari bilan turli xil mashg'ulot rejalarini ishlab chiqqan va taklif etgan.

“200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni funksional tayyorgarlik dinamikasini shakllantirish, “200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni tezkor kuch sifatini rivojlantirish va “200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni yillik tayyorgarlik sikllarida portlovchi kuchini rivojlantirish metodikasini qo'llanilishiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi yengil atletika sport turiga qolaversa “200 m masofaga yuguruvchi malakali sportchilarni musobaqaga tayyorlash samaradorligi bo'yicha metodika ishlab chiqish va yaxshilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlar olib borilayotganligi, sohada sportchilarni tayyorlash texnologiyasini yanada rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari 200 metrga yuguruvchi sportchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlari ularning musobaqa natijalarini belgilovchi muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar har doim ham katta bo'lmagan bo'lsa-da, ayniqsa portlovchi kuch va gavda proporsiyalaridagi kichik tafovutlar ham musobaqa davomida yuqori natijani ta'minlashga xizmat qilishi mumkinligi aniqlandi.



Quyidagi xulosalar chiqarildi:

200 m masofaga yuguruvchi sportchilarda tana bo‘yi, tana og‘irligi va gavda bo‘yining optimal mutanosibligi ularning harakat texnikasi va tezkorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Portlovchi kuchni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar yillik tayyorgarlik sikllarida alohida e‘tiborga olinishi zarur.

Musobaqalarga tayyorgarlik jarayonida individual morfometrik ko‘rsatkichlar asosida tuzilgan mashg‘ulot dasturlari sportchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalardagi natijalarini yaxshilash uchun morfofunktsional monitoring tizimini joriy etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5-mart 2018-yildagi PF 5368-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 11-aprel’ 2022-yil PQ-201-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 2020-yil 30-oktyabrdagi PF - 6099 Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 2017 yil 3-iyundagi PQ-3031 sonli Qarori.
5. Озолин Э.С. Спринтерский бег / Озолин Э.С. – М.: Человек, 2010. – 176 с.
6. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., Smuriygina L.V., To‘xtaboyev N.T. va boshqalar. / Darslik. Yakkakurash, koordinasion va siklik sport turlari “Yengil atletika”. – T.: 2018. – 662 b
7. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To‘xtaboyev N.T., Smuriygina L.V. va boshqalar. / Darslik. Yengil atletika nazariyasi va uslubi. / – T.: 2018. – 842 b
8. R.Qudratov. Yengil atletika. Darslik. - T. 2014.-342 b.
9. Olimov M.S., Soliyev I.R., Haydarov B.Sh. / Darslik. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – T.: 2017. – 318 b.
10. О. А. Гончар, Н. В. Селиверстова, Н. В. Швайликова ; Гомелский Основы лёгкой атлетики : практическое пособие / составители : гос. ун-т им. Ф. Скорины. – Гомел : ГГУ им. Ф. Скорины, 2019. – 44 с. ИСБН 978-985-577-497-7



FUTBOLCHILARNING MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA JISMONIY TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI

Seytmuratov Timur Shamsheovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Yusupbaeva Barshinay Dauletbay qizi

Talaba

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

seytmuratov1981@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, antropometrik ko‘rsatkichlari, dastlabki testlash natijalari va o‘quv mashg‘uloti jarayonini nazorat qilish bo‘yicha olingan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: futbolchilar, jismoniy tayyorgarlik, sikllar, texnik-taktik harakatlar, funksional tayyorgarlik, kuch, tezlik, chidamkorlik, korrelyatsiya va yugurish mashqlari.

Аннотация: В статье представлены данные об уровне физической подготовленности футболистов, антропометрических показателях, результатах предварительного тестирования и контроле тренировочного процесса.

Ключевые слова: Футболисты, физическая подготовка, циклы, технико-тактические действия, функциональная подготовка, сила, скорость, выносливость, корреляционные и беговые упражнения.

Abstract: The article presents data on the level of physical fitness of football players, anthropometric indicators, preliminary testing results, and training process monitoring.

Key words: football players, physical training, cycles, technical-tactical actions, functional training, strength, speed, endurance, correlation and running exercises.

Kirish. Futbol — bu nafaqat texnik va taktik bilimlarni talab qiluvchi, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik asosida rivojlanadigan sport turi hisoblanadi. Zamonaviy futbolchilarni tayyorlashda jismoniy tayyorgarlik o‘quv-mashg‘ulot jarayonining eng muhim bo‘limlaridan biridir. Chunki aynan jismoniy tayyorgarlik orqali sportchining harakat faolligi, chidamliligi, kuchi va tezligi shakllanadi hamda musobaqa jarayonida optimal natijalarga erishish imkonini beradi. Jismoniy tayyorgarlik – bu organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, sportchining umumiy jismoniy rivojlanishini ta’minlash, sog‘liqni mustahkamlash va turli jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ayniqsa, o‘quv-mashg‘ulot tizimida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik o‘zaro bog‘liqlikda olib borilishi, sportchining ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.



Shu bois futbolchilar uchun samarali tayyorgarlik tizimini ishlab chiqish va uni ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, futbolchilar tayyorgarligining asosiy yo'nalishlari – bu jismoniy, texnik, taktik va psixologik komponentlarning uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Tadqiqotchilar jismoniy tayyorgarlikni ikki asosiy turga — umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikka ajratadi [1,2]. Umumiy jismoniy tayyorgarlik organizmning umumiy rivojlanishini ta'minlab, barcha sport turlari uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar (kuch, chidamlilik, chaqqonlik, koordinatsiya)ni rivojlantiradi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik esa bevosita futbolga xos bo'lgan harakatlar – to'pni zarb bilan tepish, yugurishning turli shakllari, tezkor harakatlar va musobaqaga tayyorgarlik elementlarini o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda sport tibbiyoti va antropometriya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tana massasi, tana uzunligi, bel aylanasi ko'rsatkichlari va tana massasi indeksi (TMI) kabi parametrlar sportchining jismoniy salohiyatini baholashda muhim o'rin tutadi. Ayrim olimlar futbolchilarning yugurish tezligi bilan to'p tepish kuchi o'rtasidagi salbiy korrelyatsion bog'liqlikni aniqlaganlar ($r=-0.60$) [3]. Bundan tashqari, portlovchan kuch, kuch chidamliligi va tezkorlik o'zaro bir-birini to'ldiruvchi sifatlar bo'lib, ularni baholash va takomillashtirish sportchilarning musobaqadagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida futbolchilar jismoniy tayyorgarligini baholash va takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Dastlab ishtirokchilarning antropometrik ko'rsatkichlari (bo'y, tana massasi, bel aylanasi o'lchamlari, TMI) aniqlandi. Jismoniy rivojlanish darajasini baholash uchun tana yog' massasi va tana faol massasi maxsus formulalar asosida hisoblandi.

Eksperimental qismda quyidagi test mashqlar bajarildi:

- 100 metrga yugurish (tezlik ko'rsatkichi);
- 3000 metrga yugurish (umumiy chidamlilik);
- Aylanib ko'tarilish (chaqqonlik va kuch);
- 7x50 m mokkisimon yugurish (tezkorlik va kuch chidamliligi);
- Kuchli oyoqda uzoqqa to'p tepish (portlovchan kuch);
- To'pni o'yinga kiritish (texnik ko'nikmalarni baholash).

Statistik tahlilda testlar natijalari orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar koeffitsienti hisoblab chiqildi. Bu futbolchilarning har tomonlama tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashga yordam berdi.

Mashg'ulotlar 1,5–2 soat davomida o'tkazildi va ular umumiy hamda maxsus jismoniy tayyorgarlikka qaratildi. Amaliy mashg'ulotlar har xil iqlim sharoitlarida,



zarur holatlarda yopiq inshootlarda tashkil etildi. Mashg‘ulotlarning intensivligi, yuklama hajmi, dam olish oralig‘i qat‘iy tartib asosida boshqarildi.

Natijalar va muhokama.

O‘quv-mashg‘ulot jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vazifalari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Futbolchini umumiy jismoniy tayyorgarligi jismoniy qobiliyatlarni har tomonlama tarbiyalash, umumiy ish qobiliyatini oshirish vazifalarini hal qiladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlar va shug‘ullanuvchilar organizmiga umumiy ta’sir ko‘rsatuvchi sportning boshqa turlaridan olingan mashqlar bunda asosiy vositalar sifatida qo‘llaniladi. Bunda mushak-paylarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga, ichki a‘zo va tizimlar funksiyasining takomillashishiga, harakatlarni koordinatsiya qilishni yaxshilash va harakat sifatleri umumiy darajasini oshirishga erishiladi [2].

Biz futbolchilarni antropometrik ko‘rsatkichlarini aniqlashga e’tibor qaratdik. Ma’lumki, antropometrik o‘lchashlar jismoniy rivojlanish xususiyatlari darajasini aniqlashga imkon beradi. Uni baholashga qo‘yilgan belgilar soni qancha ko‘p bo‘lsa, baholar shuncha aniq bo‘ladi. Tananing yog‘ va faol massasini aniqlash (TYoM) baholash uchun quyidagi formula bo‘yicha aylana o‘lchamlarini aniqlash uslubi qo‘llaniladi:

Tananing faol massasi (TFM) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$TFM=0.541 \times B - 0.007 \times BA - 4.967$$

Bu yerda B –tik turgandagi bo‘y o‘lchami (sm);

BA – qo‘l bukilganda indeks aylanasi.

Tana yog‘ massasini tana massasi indeksidan foydalanib hisoblab chiqarish:

$$TMI = \frac{\text{tana massasi (kg)}}{\text{tana uzunligi (m}^2\text{)}}$$

$TMI \leq 18.50$ – kam tana massasi;

19-24. – qaddi-qomat kelishganligi;

≥ 26.00 – massaning ortiqqligi (semizlik);

$TMI - 22.30$ – kam hollardagi o‘lim bilan kuzatiladi;

16.8 – yurak qon-tomir kasalliklariga kam moyillik.

Gipertoniya, yurak ishemik kasalliklari va qandli diabetning rivojlanishi bel aylanasi bog‘liqligi aniqlandi. O‘smirlarda me’yor – 34 sm dan kamroq; baland xavf – 95-101 sm, yuqori xavfda – 102 sm dan ortiq.

Futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini aniqlash quyidagi testlarni qo‘llagan holda o‘tkazildi: 100 m ga yugurish, 3000 m ga yugurish, aylanib ko‘tarilish, 7x50 m ga makkisimon yugurish, kuchli oyoqda uzoqqa to‘pni belgilangan masofaga tepish.



Har tomonlama futbolchilarining tayyorgarlik ko‘rsatkichlari orasida korrelyatsion o‘zaro bog‘likliklarning tuzilishi

Ma'lumotlar raqami	Ko'rsatkichlar nomi	Koeffitsientlar
I-II	Tana massasi – tana indeksi	0,71
1-2	Tana massasi-tana uzunligi	0,57
3-4	100 m ga yugurish-uzoqqa to'p tepish	-0,60
3-5	100 m ga yugurish – 3000 m ga yugurish	0,46
3-6	100 m ga yugurish – 7x50 m ga yugurish	0,61
4-5	Uzoqqa to'p tepish – 300 m ga yugurish	-0,58
4-6	Uzoqqa to'p tepish – 7x50 m ga yugurish	-0,71
4-8	Uzoqqa to'p tepish – aylanib ko'tarilish	-0,50
4-10	Uzoqqa to'p tepish – to'pni o'yinga kiritish	0,49
6-5	7x50 m ga yugurish – 3000 m ga yugurish	0,54
5-8	3000 m ga yugurish – aylanib ko'tarilish	0,45
6-8	7x50 m ga yugurish - aylanib ko'tarilish	0,58
6-10	7x50 m ga yugurish - to'pni o'yinga kiritish	0,60
8-10	Aylanib ko'tarilish - to'pni o'yinga kiritish	-0,58

Tezlik-kuch tayyorgarligi samaradorligini baholash uchun muntazam ravishda turli xil nazorat mashqlari uslubidan foydalanish tavsiya qilinadi. Ularni badan qizdirish mashqlaridan so'ng ma'lum bir tana resurslari bilan (1-2 harakatda 1 marta) standart sharoitlarda o'tkazish lozim.

Futbolda kuch namoyon bo'lishining 3 ta o'ziga xos turini ajratish mumkin:

- portlovchan kuch – mushaklarning harakat davomida imkon qadar kam vaqt ichida maksimal darajada kuchni namoyon qilishiga bo'lgan qobiliyatdir (turgan joydan to'pni zarb bilan uzoqqa otish, 5-10-15 metr masofadan yugurib kelib oldinga yumalayotgan to'pga zarba berish);

- tezkor-kuch – ko'p jihatdan tezlik imkoniyatlarini belgilab beradi (10 m, 30 m, 40 m ga yugurish);

- kuch chidamliligi – uzoq muddat davomida mushaklarni zo'riqtirish. Bunda ularning samaradorligini pasaytirmay amalga oshirish qobiliyati (7x50m, 10x10 m ga yugurish) qumda yugurish. Tana uzunligi ortishi bilan tana massasi ham ortadi (yosh ulg'ayishi bilan $r=0.57$).

Mashg'ulotlar 1,5-2 soat mobaynida tashkil etiladi. Asosiy vositalar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikka yo'naltiriladi. Texnik-taktik vositalar asosan yopiq inshootlarda tashkil etiladi;

- mashg'ulotning tayyorlov qismidagi vositalar intensivligi yuqori bo'lib, mushaklar guruhi deyarli bir xil ta'sir etishi kerak;

- dam olish pauzasining davomiyligi qisqa katta hajmdagi yuklamalarda birmuncha uzoqroq bo'lishi lozim;



- agar yog‘ingarchilik (yomg‘ir, qor) bo‘lib va bu xolat muntazam davomiylikda bo‘lsa, mashg‘ulotlarni 3-2 qismini yopiq inshootlarda tashkil etish lozim;

- futbolchilarning kiyim-kechagi (*ekipirovka*) qalinroq bo‘lishi, biroq havo o‘tkazuvchanligi ta‘minlanishi kerak.

Tana massasi indeksi ($TMI = kg/m^2$) tana tuzilishini ifodalaydi. O‘lchashlarda uni inobatga olish lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlardan biridir.

Uzoqqa to‘p tepish 100 m ga yugurish tezligi ($r = -0.60$), 7x50m ga yugurish ($r = -0.71$), 3000 m ga yugurish ($r = -0.58$), aylanib ko‘tarilish ($r = -0.50$) bilan bog‘liq. To‘pga zarba berish, ko‘proq masofalarda yugurish tezlikning pasayishi bilan bog‘liq, chunki bu harakatlarda bir xil mushaklar qatnashadi. Uchinchi, to‘rtinchi, oltinchi omillar musobaqa faoliyati, jami texnik-taktik harakatlarni aks ettiradi. Bu ko‘rsatkich futbolchi qanchalik harakatchan ekanligi, qanchalik o‘zini namoyon qila olishi, har bir o‘yin vaziyatida uning ma‘lum darajadagi ishtirokini ifoda etadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘pgina mashqlar organizmga har tomonlama ta‘sir ko‘rsatadi, ayni chog‘da ularning har biri u yoki bu sifatlarni ko‘proq rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Jumladan, baland-past joylarda uzoq muddat yugurish ko‘proq chidamlilikni, qisqa masofalarda jadal yugurish esa tezlikni rivojlantirishga, gimnastika mashqlari chaqqonlikni o‘stirishga qaratilgandir. Bu mashqlar mashg‘ulotning tarkibiy qismiga, ulardan ba‘zilari esa, ertalabki mashg‘ulotlarga kiritiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikning maqsadi, futbolchi uchungina xos bo‘lmagan jismoniy sifatlarning va funksional imkoniyatlarni rivojlantirishdan iboratdir [3].

Futbolchining faoliyati bajarayotgan harakati intensivligining doimo o‘zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Mushaklar ishining yuksak intensivligi-aktivligining pasayishi va nisbatan tinch holatga o‘tish bilan almashib turadi. Jadal yugurish, ilgari tashlanish, sakrashlar, yengil yugurish, to‘xtash bilan almashinadi, harakat yo‘nalishi, maromi va sur‘ati o‘zgarib turadi. Bunday faoliyat muayyan jismoniy yuklamani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu vegetativ jarayonlar birinchi navbatda modda almashinuvi, nafas olish va qon aylanishdagi jiddiy funksional o‘zgarishlar bilan davom etadi [6].

Biroq, futbolchining o‘yin faoliyati sakrash, yugurish va yurishdan iborat emasligini ham hisobga olish kerak. Yakkama-yakka qattiq kurash sharoitida, eng katta tezlikda va uzoq vaqt davomida g‘ayri tabiiy holatlarda (sirpanish, sakrash, bir oyoqqa tayangan holda) bo‘lish futbolchiga ayni paytda murakkab taktik vazifani hal qilgan holda to‘pni samarali egallab turishga monelik qilmasligi kerak. Futbolchilar to‘pni qanchalik yaxshi olib yursalar, maydonda qanchalik o‘ylab ish tutib harakat qilsalar, futbolning tomoshabopligi shuncha qiziqarli bo‘ladi. Shuning uchun futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi, ularning o‘yin faoliyati xarakterini hisobga olgan holda shunday tashkil qilinishi kerakki, ularga texnik va taktik mahoratini takomillashtirish uchun asos bo‘lsin [5].



Yillik mashg'ulot siklida avval umumiy jismoniy tayyorgarlik, keyin shu asosda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirib borish tavsiya etiladi. Har yili o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida futbolchilar o'rtacha 30 dan 40 tagacha o'yinlar o'tkazishadi. Jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ushbu o'yinlarning yuklamalari nafaqat juda katta ahamiyatga, balki ma'lum bir tuzilishga ham ega. O'yinlararo sikllarda murabbiy ko'pincha raqobatdosh ikkita vazifani hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladigan tarzda taqsimlanishni amalga oshirishi kerak. Birinchidan, ko'p yillik sikl davomida yuklamalar hajmini va ayniqsa, yaqin chegara yuklamalari bo'lgan sinflar sonini oshirish. Bu zarur jismoniy va taktik-texnik darajaga erishishning yagona yo'li. Ikkinchidan, o'yinlararo sikllar oxiriga kelib yuklamalarni kamaytirish kerak. Buni futbolchilarni keyingi o'yinga optimal holatda olib kelish uchun qilish zarur [2].

Zero har bir mikrosikllarning so'ngida odatda qandaydir musobaqa yoki uchrashuv rejalashtirilgan bo'ladi.

Har bir o'yin o'yinchidan har xil jismoniy sifatlarning maksimal darajada namoyon etishni talab qiladi. Jismoniy sifatlarning namoyon bo'lishini mashg'ulotlarda, ayniqsa, aniq o'yin vazifalari hal etiladigan mashqlarda o'rganish kerak. O'yinda maksimal jismoniy sifatlarni namoyon etish uchun avval mashg'ulotlarda maksimal darajada ko'rsatishni o'rganish kerak. Shuni ham yodda tutish kerakki, futbolchi qanchalik iqtidorli bo'lishidan qat'iy nazar, u faqat to'liq tayyorgarlik bosqichlaridagi mashg'ulotlarda shug'ullanib, maksimal sport yutuqlariga erishishi mumkin [4].

Ma'lumki, futbolda ushbu mashg'ulotlarning uzluksizligi tushunchasi, mashg'ulotlar orasidagi vaqt oralig'i barcha turdagi mashg'ulotlar uchun shoshilinch o'quv effektlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi. Shoshilinch o'quv mashg'ulotlarining o'zaro ta'siri ijobiy, neytral yoki salbiy bo'lishi mumkin. Faqat shoshilinch o'quv tayyorgarligini tashkil qilishda ijobiy o'zaro ta'siri jismoniy tayyorgarlikni uzluksizligi tamoyilini amalga oshirishni ta'minlaydi [2].

Futbolda rejalashtirishda ikkita omilni hisobga olish kerak. Birinchisi, o'yinchilarning jismoniy tayyorgarligiga bo'lgan talablarni belgilaydigan mashg'ulotning tuzilishi. Masalan, ushbu talablar nuqtai nazaridan jamoa futbolchilari o'yin vaziyatlaridagi o'zgarishlarga tez va to'g'ri javob berishlari, qattiq, tezkor, chaqqon bo'lishlari kerak. Buni amalga oshirish uchun tegishli ravishda guruh mashqlarida mashq yuklamalarini rejalashtirish kerak. Ammo ikkinchi omil – har bir futbolchining individual tayyorgarligini hisobga olish kerak emas. Biri tez, lekin har doim ham taktik vazifalarni aniq hal qila olmaydi, boshqasi yaxshi tezlikka ega, ammo yetarlicha chidamli emas. Uchinchisi juda yaxshi motorli moyilliklarga ega, ammo u kuniga ikki marta mashq qilishni boshlagach, kasallik va jarohatlar tez-tez uchrab turadi [7].



Shuning uchun rejalashtirishda o‘yinga bo‘lgan ehtiyojni ham, bu borada individual tayyorgarlikni ham hisobga olish kerak, mashqlarning 80-90% ini o‘yin talablarini hisobga olgan holda rejalashtirish kerak, 20-10 % ini o‘yinchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bajarish kerak. Bunday mashg‘ulotlarda futbolchilar individual tarzda mashq qilishi mutlaqo shart emas. Ular guruhda ishlashlari mumkin, ammo bu narsa ularning individual vazifalariga muvofiq bo‘lishi lozim bo‘ladi [3].

Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish birinchi navbatda futbolchilarning eng yaxshi sifatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi kerak. Sportchi tayyorgarligi qanchalik yuqori bo‘lsa va uning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, uning mashg‘ulotlari shunchalik individuallashtiriladi.

Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish birinchi navbatda futbolchilarning eng yaxshi sifatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi kerak. Sportchi tayyorgarligi qanchalik yuqori bo‘lsa va uning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, uning mashg‘ulotlari shunchalik individualdir [4].

Ma’lumki, sikllik o‘quv mashqlari, mashg‘ulotlar, mikrosikllar, mezosikllar, makrosikllar muntazam ravishda takrorlanib turganda namoyon bo‘ladi. Futbolda eng muhimlari bu mikrosikllar (musobaqa davrida ular o‘yinlararo sikllar deb ataladi). Amalda, eng samarali haftalik o‘yinlararo sikl, unda siz keyingi o‘yinga tayyorgarlik ko‘rishingiz va mashg‘ulotning strategik vazifalarini hal qilishingiz uchun yuklamalarni rejalashtirishingiz mumkin. Shu sababli kuchli futbol mamlakatlari chempionatlarining aksariyat qismida har hafta o‘yinlararo sikllarning 70-90 foizi o‘tkazilishi bejiz emas. Ko‘p sonli sikllarning mavjudligi, ularni tarkibiga va vazifalariga qarab tizimlashtirishga imkon beradi. Masalan, futbolchilarning jismoniy xususiyatlariga har qanday yuklamaning konsentrlangan ta’siri bo‘lgan sikllarni rejalashtirishingiz mumkin. Agar bu yuqori tezlikli sifatlar bo‘lsa, unda murabbiy to‘liq o‘yinlar davomida butun diqqat-e’tiborini ularning turli xil ko‘rinishlarini yaxshilashga qaratishi mumkin [1].

Xulosa. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ma’lum bo‘ldiki, futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda murabbiy tomonidan alohida qat’iy nazorat qiladigan jihatlar mavjudki, bu jihatlar o‘quv mashg‘ulot sifatini belgilaydi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘pgina mashqlar organizmga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, ayni chog‘da ularning har biri u yoki bu sifatlarni ko‘proq rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmadjonova U.M., Talipdjanov A.I., Isaev Sh.T. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi. –T.: Ilmiy texnik axborot – press.2019.-164 b.
2. Богданов В.М. Использование современных информационных технологий в теоретической и методико-практической подготовке студентов



по физическому воспитанию / В.М.Богданов, В.С.Пономарев, А.В.Соловов // Материалы всерос. научн.-практ. конф.- СПб., 2000. -С.23-24.

3. Исмагилов Д.К. Разработка методов оптимизации физического совершенствования студентов на основе спортивно-ориентированного физического воспитания. Дисс. док.философии (PhD). Чирчик. 2018.-160 с.

4. Кошбахтиев И.А. Управление на подготов чата на футболиста с высока квалификация. София. 2000.-104 с.

5. Курбанов О.А., Нуримов З.Р., Усманов А.М. Скоростно-силовая подготовка футболистов. Монография. Ташкент: Лидер Пресс, 2009.-209 с.

6. Nurimov R.I., «Futbol nazariyasi va uslubiati» Darslik. 2015 yil, Ilmiy texnika axborot press nashriyoti, 363 b.

7. T.Sh.Seytmuratov. “Planning of a year dual cycle of preparation of students of branch sports perfection on football in unsuccessful conditions of an environment” Evropean journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.8No.5.2020.Part II ISSN2056-5852.

200 M MASOFAGA YUGURUVCHI MALAKALI SPORTCHILARNI MUSOBAQALARGA TAYYORLASH USULLARI

Boyqobilov Akbar Panji o'g'li

Doktorant

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

akbarboyqobilov1502@gmail.com

Anotatsiya: *Jahon sport amaliyotidagi bugungi kunda joriy, operativ, bosqichli boshqaruv usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Sportchilar tayyorlash tizimini boshqarish bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, sportchilar tayyorlash tizimida va sport turlariga saralash jarayonida tibbiy-biologik, psixo-fiziologik, anotomo-morfologik ko'rsatkichlarni nazorat qilish, ko'p yillik mashg'ulotlarni rejalashtirish va boshqarish masalalariga turli ilmiy yondashuvlardan foydalanib izlanishlar olib borilmoqda. Ammo shunday bo'lsa-da, yengil atletikachi qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik mashg'ulotlar jarayonini turli usullar asosida boshqarish bugungi kundagi dunyo mutaxassislari oldida turgan muhim masalalardan sanalmoqda.*

Kalit so'zlar: *yengil atletika, qisqa masofa, sportchilar, O'zbekiston chempionati, mashg'ulotlar jarayoni.*

Аннотация: *В современном мире спорта широко используются текущие, оперативные и ступенчатые методы управления. Спортсмены осуществляют различные научные исследования по управлению системой подготовки. В частности, проводятся исследования с использованием различных научных подходов по контролю медицинско-биологических,*



психофизиологических и анатомо-морфологических показателей в процессе отбора спортсменов и в системе подготовки, а также по планированию и управлению многолетними тренировками. Тем не менее, управление процессом годовых тренировок бегунов на короткие дистанции на основе различных методов является одной из важных задач, стоящих перед мировыми специалистами сегодня.

Ключевые слова: легкая атлетика, короткая дистанция, спортсмены, чемпионаты Узбекистана, тренировочный процесс.

Abstract: Today, modern, operational, and phased management methods are widely used in the practice of sports. Various scientific research studies have been carried out on managing the athletes' training systems. This includes monitoring medical-biological, psycho-physiological, anatomical-morphological indicators in the training system of athletes and the selection process for sports, as well as planning and managing multi-year training sessions using various scientific approaches. However, despite this, managing the training process of short-distance runners in athletics using various methods is considered one of the important issues facing world specialists today.

Key words: athletics, short distance, athletes, championships of Uzbekistan, training process.

Kirish. Jahon sport amaliyotidagi bugungi kunda joriy, operativ, bosqichli boshqaruv usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Sportchilar tayyorlash tizimini boshqarish bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, sportchilar tayyorlash tizimida va sport turlariga saralash jarayonida tibbiy-biologik, psixo-fiziologik, anotomo-morfologik ko'rsatkichlarni nazorat qilish, ko'p yillik mashg'ulotlarni rejalashtirish va boshqarish masalalariga turli ilmiy yondashuvlardan foydalanib izlanishlar olib borilmoqda. Ammo shunday bo'lsa-da, yengil atletikachi qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik mashg'ulotlar jarayonini turli usullar asosida boshqarish bugungi kundagi dunyo mutaxassislari oldida turgan muhim masalalardan sanalmoqda. Lekin, qisqa masofaga yugurish bo'yicha tayyorgarlik jarayonlarini boshqarishni optimallashtirilgan variantini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash lozimligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash va boshqarish bo'yicha ko'plab olimlar — N.G.Ozolin, L.V.Smurigina, M.S.Olimov, N.T.Rafiyev, K.T.Shakirjanova va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilib, ular yuklamalarni individual rejalashtirish, start texnikasi, harakat reaksiyasi va kinogramma tahliliga alohida e'tibor qaratgan; ayniqsa, kinogramma tahlili harakatlarning aniqligini baholash imkonini bersa-da, amaliyotda zarur texnik vositalarning yetishmasligi bu jarayonni cheklab qo'ymoqda, shu bilan birga, sportchilarning reaksiyasiga ta'sir qiluvchi omillar va start texnikasini takomillashtirish masalalari O'zbekiston



olimlari tomonidan amaliy yo‘nalishda yoritilgan bo‘lsa-da, hali to‘liq ishlab chiqilgan metodik tizim yo‘q.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda 13–14 yoshli sportchi o‘g‘il bolalar ishtirokida eksperimental va tahliliy metodlar qo‘llanildi. Reaksiya vaqti, yugurish tezligi, mashq yuklamalari, videokuzatuv va testlar orqali sportchilarning psixo-fiziologik holati baholandi. Tajriba va nazorat guruhlarini o‘rtasida olib borilgan taqqoslov natijalari statistik tahlil qilinib, start reaksiyasi va umumiy natijaning o‘zgarishiga baho berildi.

Natijalar va muhokama.

Yengil atletikachilarning yugurish masofasi qancha qisqa bo‘lsa reaksiya vaqtini takomillashtirishga shuncha ko‘proq vaqt talab etilishi lozim.

200 m masofaga yuguruvchilarning akustik signalga reaksiyasi quyidagi omillar orqali tavsiya etilgan.

1. Signal jadalligi;
2. Nafas olish ritmi;
3. Dastlabki badan qizdirish mashqlari;
4. Yuguruvchining yoshi jinsi (Ko‘p xollarda bu jarayonlarga erkaklar yaxshiroq reaksiya bildiradi);
5. Masofa uzunligiga;
6. 200 m masofaga yuguruvchilarning sport natijasi va stajiga.

Ochiq havoda tovush tezligi 340 m/s. Agar start beruvchi 15 m uzoqlikda bo‘lsa, tovush 0,05 sekunda yuguruvchiga yetib boradi. Malakali sportchilar tovushga 0,09–0,11 sekundda reaksiya bildiradi. Yuguruvchilar startda oyoq tirgaklaridan kuchli deysinib, inersiyani yengib, iloji boricha tez yugurib chiqishlari kerak. Bu sprinterlar uchun muhim texnika hisoblanadi.

Harakat reaksiyasining rivojlanish sxemasi

Sportchiga 3-6 m\sek	signal
10-15 m\sek orqada qolish	quloq
50 m\s	miya
	Eshitish markazi
Qo‘llargacha (1m) 15 m\s Oyoqlargacha (1,8m) 25 m\s	Mator markasi
	Orqa miya
Mexanik orqada qolish 5-10m\s	Muskullar
Umumiy vaqti 93-106 m\s	Jismoniy harakat



200 metrga yugurish texnikasi start va burilish xususiyatlari bilan 100 metrlik yugurishdan farq qiladi. Start tirkaklarini tashqi chekkaga o'rnatish tavsiya etiladi. Harakat bahosi tashqi kuzatuv bilan emas, kinogramma orqali aniqlanadi. Ammo natijalardan amalda foydalanish cheklangan. Sportchilar 96–106 qadamda yugurib, har bir qadamda 0,008 soniya yo'qotadi. Tayyorlovda tezkor kuch sifatini rivojlantirish muhimdir.

Sport tayyorgarligi murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik jarayon bo'lib, ayniqsa 13–14 yoshli sportchilar bilan ishlashda mashg'ulotlar ularning yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlariga mos ravishda rejalashtirilishi lozim. Aks holda haddan tashqari yuklama organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi, sportga bo'lgan qiziqishni pasaytirishi, hattoki salomatlikka zarar yetkazishi mumkin, shu bois mashqlar soni, davomiyligi va shiddati biologik qonuniyatlarga asoslangan holda, individual yondashuv bilan, texnik-taktik mahoratni shakllantirish va yuqori ish qobiliyatiga erishish maqsadida to'g'ri taqsimlanishi kerak.

Qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarni malakali murabbiylarning mashg'ulot jarayonining dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab toki sport mahoratini takomillashtirish bosqichigacha davom etadi. Shu ko'p yillik muddat ichida sportchilar to'liqsimon yo'nalishda ortib boradigan mashqlar hajmi va muddatiga mos yuklamalarga ko'nikib boradilar.

Yengil atletikaning qisqa masofa yo'nalishida sportchilarning jismoniy sifatlari, ayniqsa tezkor-kuch ko'rsatkichlari, muntazam nazoratda bo'lishi zarur. Texnik-taktik malakalar turli yuklamalar asosida shakllanadi. Mashg'ulotlarda sportchining fiziologik reaksiyalari hisobga olinmasa, zo'riqish yoki susayish xavfi paydo bo'ladi. Shu bois har bir mashqning fiziologik qiymatini e'tiborga olib, tizimli yondashuv yuqori natijalarga erishish kafolatidir.

Tezkor–kuch sifatlarining rivojlanishi sportchilarning yillik tayyorgarligida muhim rol o'ynaydi. Ular mushak tolalarining tuzilishi, biokimyoviy jarayonlar, yuklamaning to'g'ri taqsimlanishi, harakat koordinatsiyasi bilan bog'liq. Sifatlarni faqat stereotip mashqlar emas, balki har xil uslublar, testlar, moslashtirilgan o'yinlar orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarni musobaqalarda g'olib bo'lishlarida ularning jismoniy holati, sport formasi, jismoniy sifatlarni mukammal egallashi albatta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yengil atletika sportining qisqa masofa turida tezkor – kuch sifatlarini rivojlantirishda vositalarni va ularning shiddatini to'g'ri tanlash muhim. Quyida tezkor - kuch sifatlarini rivojlantiruvchi vositalar berilgan:

1. Turgan joyda tizzani yuqori ko'tarib yugurish;
2. Turgan joyda qo'llarni barerga tirgan xolda tizzani yuqori ko'tarib yugurish;
3. Chalgancha yotib, oyoqlarni yuqori ko'targan xolda yugurishga o'xshatib harakat qilish;



4. Bir oyoqda turib, ikkinchi oyoqni yugurishdagidek sonni oldinga – yuqoriga, keyin pastga – orqaga oshirib borish (tizza oldinga chiqadi), keyin oyoq orqada bukuladi. Silkinch oyoqni orqaga tortayotganda, oyoq tagini shiddat bilan tez yerga tekkaziladi;

5. Shtangani dast ko'tarish;

6. Yarim o'tirgan holatda birdaniga yuqoriga shtanga bilan sakrash;

7. Bir oyoqni oldiga ikkinchisi esa orqaga keng yozilib shtangani elkaga olgan xolda oyoqlar xolatini tez sur'atlarda almashtirish.

Qisqa masofada sportchilarning harakatda bajariladigan mashqlardan eng ko'p ishlatiladigan quyidagilar:

1. Kichik – kichik, lekin maksimal tezlikda erkin qadam tashlab, bedana qadamda shtanga bilan yugurish. Ilikning inersiya bilan oldinga borib, son bilan birga pastga orqaga borib, son bilan birga pastga orqaga faol tushishiga e'tibor berish kerak.

2. Sonni yuqori ko'tarib, ketidan oyokni orqaga sidirib, u.o.m ning yo'lkadagi proyeksiyasiga yaqingi joyda erga ko'yish.

3. Oyoq tagi bilan to'la depsinib, sal sal sakrab yugurish. Oyoq bukilmay erga qo'yiladi. Yuguruvchi ma'lum vaqt birligida maksimal tezlikda yugurgandagiga nisbatan ko'proq qadam qo'yigandagina yuqoridagi mashqlarning tezkorlikni o'stirishga foydasi tegadi.

4. Kela turib birdaniga 30 – 35 sm ga mumkin qadar tezlik bilan yuqariga sakrash.

5. Kela turib birdaniga 15 – 20 m ga maksimal tezlikda eng oz qadam tashlab yugurish.

6. Keng qadamlar bilan oldinga qadam bosish, qadamlar keng va ilaji boricha pastroq o'tirish lozim.

7. Aniq chiziq bo'ylab, to'g'ri chiziq bo'ylab va radiusi har xil (yugurish yo'lkasi radiusiga yaqin) yo'ylar bo'ylab turli tezlikda yurish.

8. Keng yo'lka bo'ylab (1,5 - 2,5) pastga tomon yugurib, gorizontal yo'lga o'tib ketish.

Qisqa masofada tezkorlikni rivojlantirishda muskullar gruppasi kuchini, ayniqsa, sprint yugurishda kerakli muskullar gruppasi kuchini o'stirish uchun quyidagi maxsus mashqlardan foydalaniladi:

1. Oldinga juda oz siljish bilan sonni yuqori ko'tarib yugurish. Mashq o'rtacha sur'at bilan 1 – 2 marta, xar doim “charchaguncha” ijro etiladi (shtangani elkaga olgan xolda).

2. Qisqa masofaga yuguruvchi yoz boshida xar bir sonni qatorasiga 300 – 350 marta bemalol ko'tara olishi kerak. Tez sur'atda start tezligi juda muhim hisoblanadi.



3. Startdan chiqishda depsinuvchi oyoqni juda ham to'g'rilab, shu oyoq tagini maksimal, yozib, qadam tashlash. Mashqni ko'proq oldinga emas, balki yukoriga intilib bajarish kerak.

4. Yugurish tezligi burchagi minimal darajada, mumkin qadar uzun qadam tashlab, oldinga yugurish.

5. Oyoq tagida shiddat bilan depsinib oldinga yugurish. Oyoq tizza bo'g'inida ozroq tarang bukilib, yoziladi. Qadamlar uzunligi 50 – 80sm. Xar bir qisqa masofaga yuguruvchi yoz boshida 600 – 800 metrni shunday o'ta olish kerak.

6. Sonning orqa tomon muskullarini mustaxkamlash uchun, mumkin qadar keng qadam tashlab yugurish.

7. Bir oyoqda turib, ikkinchisini oldindan orqaga tik tortayotganday harakat bilan yugurish. Bu mashq sonning orqa tomonidagi muskullarni rivojlantiradi. Chalqancha yotib, bir oyoq tovonini yuqoriroqdagi biron narsaga qo'yib, gavgdani to'g'rilash xam shuncha xizmat qiladi. Mashq gox bu, gox u oyoqda ijro etiladi.

8. 10-15 metr dinamometrli doirada, turli tomonga bemalol sur'atda yugurish (bo'g'inlarini mustaxkamlash uchun). Qum ustida turli tomonlarga yugurish (xuddi shunday, lekin maksimal tezlikda 60 – 100 m ga xam yugirishadi).

9. Nishablik burchagi turli xil yo'lkalarda yuqoriga qarab yugurish. Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilar tezkor-kuch sifatlari mashqlarini faqat mashg'ulotda emas, balki bo'sh vaqtda xam bajarishi kerak.

Yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turlarida yillik tayyorgarlik mashg'ulot jarayonini rejalashtirish quyidagi xususiyatga ega, bu quyidagi asosiy hol bilan asoslanadi.

Ayniqsa son orqa muskullari cho'zilishiga (tik turib, o'tirib, oyoq bukmay, oldinga engashish) muskullar bilan son oldi muskullari cho'zilishiga e'tibor berish kerak.

Ammo mashg'ulot yuklamalarining hajmi va jadalligi xar hil davrida turli hil bo'ladi.

Qisqa masofada tezkor-kuch qobiliyatlari, ularning namoyon bo'lishi organizmning ta'sirlanishi natijasida ro'y beradi, u ruhiy, mushak, motor, vegetativ, gormonal funksiyalar sifatlari va organizmning boshqa fiziologik tizimlarining asosida yuz beradi. Bulardan kelib chiqqan holda tezkor-kuch qobiliyatlari soddalashtirilgan “mushaklar kuchi” tushunchasiga bog'liq bo'lmaydi, chunki bu ularning faqatgina qisqarish xususiyatlarinining mexanik tavsifiga bog'liq. Mushak kuchi har bir harakat amalining rivojlanuvchi tarkibiy qismidir. U namoyon qilinayotgan tezlik, tashqi qarshilik va ishning davomiyligiga bog'liq holda sifat tavsifi ega bo'lishi mumkin (A.Bandarchuk, K.T.Shokirjonova, R.Salomov, O.V.Goncharova)

Musobaqalar taqvimini ikki cho'qqili xususiyatga ega bo'lganda: qisqa masofaga yuguruvchi o'z tayyorgarliklarini shunday rejalashtirishlari lozimki, ularning eng



yaxshi natijalari fevral-mart oylari boshiga (qishki musobaqa bosqichi) va iyun-avgust oylariga (yozgi musobaqa bosqichi) to‘g‘ri kelishi kerak.

Mushak kuchi insonning jismoniy imkoniyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich sifatida - bu mushaklar kuchlanishi oqibatida tashqi qarshilikni engish yoki unga qarshilik ko‘rsatish mumkin (N.G.Ozolin).

Xulosa.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Start reaksiyasi tezligi qisqa masofaga yugurishda muhim omil bo‘lib, bu borada reaksiyani o‘stiruvchi mashqlar tizimli qo‘llanganda ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi.

2. Yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini yosh sportchilarning jismoniy va psixologik imkoniyatlariga moslashtirib rejalashtirish ularning musobaqaviy natijalarini oshiradi.

3. Mashg‘ulot yuklamalarining haddan tashqari ortiq bo‘lishi sportchilarda charchoq, qiziqishning pasayishi, hatto sog‘liq muammolariga olib keladi.

4. Kinogramma va tezkor videotasvir yordamida yugurish texnikasini tahlil qilish mashg‘ulotlarni muvofiqlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

5. 200 m masofaga yuguruvchilarda start texnikasi bilan bog‘liq mashg‘ulotlar, ayniqsa start tirgaklarining joylashuvi va reaksiya vaqtini qisqartirishga qaratilgan ishlar muhim ahamiyatga ega.

Shu asosda, qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlashda individual yondashuv, bosqichma-bosqich yuklama berish va texnik-taktik mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida»gi PQ-5281-sonli qarori.

2. Abdullaev A., Xankeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi. O‘zDJTI nashriyoti. T.: 2005. - 231 b.

3. Абрамова Т.Ф., Никитина Т.М., Кочеткова Х.Х. Морфологические критерии – показатели пригодности, общей физической подготовленности и контроля текущей и долговременной адаптации к тренировочным нагрузкам: Учебно-методическое пособие // – М.: ТВТ Дивизион. 2010. – 104с.

4. Айрапетянц Л.Р. Педагогические основы планирования и контроля соревновательной и тренировочной деятельности в спортивных играх // автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М.: 1992. – 40 с.

5. To‘xtaboev N.T., Shakirjanova K.T., Soliev I.R. Qisqa masofaga yugurish. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2017 yil. 186 b.



6. Umarov A.A., Tyura B.B. Совершенствование техники бега с максимальной скоростью по выражу // Научный атлетический вестник. 2000. - 2. - Т. 2. - С 45-50.

7. Usmanxodjaev T. S., Umarov D. X. Sport pedagogik mahoratni oshirish. ITA-PRESS nashriyoti. – T.: 2018. – 270 b.

8. Qudratov R, G‘aniboyev I.D., Soliyev I.R., Baratov A.M. /Yengil atletikachilarning maxsus mashqlari, – T.: 2011. – 115 b.

9. Qudratov R. Yengil atletika. Darslik – T.: 2014. – 342 b

MALAKALI DZYUDOUCHILARNING TEZKOR KUCHINI MUSHAKLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Bobomurodov Feruz Ismoiljonovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ўзбекiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

feruz.bobomurod78@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada malakali dzyudochilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini yillik tayyorgarlik sikli davomida rivojlantirishga qaratilgan, aniq mushak guruhlari uchun mo‘ljallangan maxsus mashqlar majmuasi tahlil qilinadi. Mashqlar dzyudochilarning samaradorligini oshirish va harakat tezligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tezkor-kuch qobiliyati, mushak guruhlari, tiklanish, ish qobiliyati, jismoniy yuklama, sportchilarni tayyorlash, dzyudochilarning samaradorligi, yillik tayyorgarlik sikli.

Аннотация: В данной статье анализируется комплекс специальных упражнений, предназначенных для конкретных групп мышц, направленных на развитие скоростно-силовых способностей квалифицированных дзюдоистов в течение годовичного цикла подготовки. Упражнения служат повышению эффективности дзюдоистов и совершенствованию скорости движений.

Ключевые слова: скоростно-силовые способности, мышечные группы, восстановление, работоспособность, физическая нагрузка, подготовка спортсменов, эффективность дзюдоистов, годовой тренировочный цикл.

Abstract: This article analyzes a set of special exercises designed for specific muscle groups, aimed at developing the speed-strength abilities of qualified judokas throughout the annual training cycle. Exercises serve to increase the effectiveness of judokas and improve their speed of movement.

Key words: speed-strength ability, muscle groups, recovery, work capacity, physical load, athlete training, judoka performance, annual training cycle.



Kirish. Respublikamizda dzyudo sportini aholi o‘rtasida ommaviylashtirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, saralash va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Dzyudoni Olimpiya sport turi sifatida ommaviy rivojlantirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, milliy terma jamoalarning nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta‘minlash” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda sport amaliyotida ko‘p yillik tayyorgarlikning samarali modelini yaratish, musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish, shuningdek, o‘quv-mashg‘ulot jarayonini bellashuv talablari asosida optimallashtirish muhim vazifa sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mashg‘ulot jarayoniga zamonaviy vosita va uslublarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Xususan, o‘smir yoshdagi dzyudochilarning maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sport takomillashuv guruhlarida shug‘ullanuvchi sportchilar uchun jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos holda o‘quv-mashg‘ulot dasturlarini tashkil etish, ayniqsa, kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarning yetarli darajada o‘rganilmaganligi soha mutaxassisleri va olimlari oldida turgan muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sport amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy qilinayotgan bir qator muhim tadqiqot ishlarida dzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, ularni jismoniy tayyorgarligini va maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish yoki kuch va tekor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan. Malakali dzyudochilarni tayyorlash tizimida maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ishlanmalar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqot usullari.

Maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnomalar, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik test, pedagogik tajriba, matematik statistika tahlili va tadqiqot natijalarini qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan.

Natijalar va mulohaza.

Dzyudochilarning potensial imkoniyatlarini aniqlashda nafaqat ularning tayyorgarlik darajasini baholash, balki asosiy jismoniy ko‘rsatkichlarning rivojlanish dinamikasini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kuch sifatlarining turlicha namoyon bo‘lishini inobatga olgan holda, tezkor-kuch qobiliyatlari dzyudochilar uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Aynan shu



qobiliyat yordamida sportchilar raqibning faol qarshiligiga qaramasdan samarali hujum harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Dzyudo bo‘yicha mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kuch va tezkor-kuch tayyorgarligini rejalashtirish masalalari hali to‘liq o‘rganilmagan. Bu ayniqsa sportchilarning takomillashuv bosqichida — kuch qobiliyatlari jadallik bilan rivojlanadigan davrda — yaqqol seziladi. Shu bois, o‘smir yoshdagi dzyudochilarning yillik tayyorgarlik jarayonida tezkor-kuch tayyorgarligi markaziy o‘rin egallashi lozim.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va tavsiflangan 15 ta nazorat me‘yorlari asosida o‘tkazilgan dastlabki o‘lchov natijalari tajriba guruhi va nazorat guruhi sportchilari o‘rtasida sezilarli statistik farqlar mavjud emasligini ko‘rsatdi. Bu holat ikki guruhga jismoniy tayyorgarlik darajasi bir xil bo‘lgan dzyudochilarning tanlanganligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhi dzyudochilari o‘rtasida o‘rganilayotgan parametrlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Bu natijalar mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilgan metodik yondashuvlar samaradorligini tasdiqlaydi. Ikkala guruh bo‘yicha nazorat me‘yorlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari va ularning qiyosiy statistik tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Pedagogik tajriba yakunida nazorat va tajriba guruhidagi malakali dzyudochilarining UJT va MJT ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili (n=21)

№	UJT va MJT ko‘rsatkichlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t	P
		$\bar{X} \pm \sigma$	V%	$\bar{X} \pm \sigma$	V%		
1.	30 m ga yugurish (soniya)	4,7±0,4	8,51	4,5±0,3	6,66	2,42	<0.05
2.	20 soniya davomida ustunda tortilish (marta)	12,2±1,3	10,65	15,3±1,4	9,15	9,15	<0.05
3.	20 soniya davomida qo‘llarga tayanib yotgan holatda qo‘llarni bukish va yozish (marta)	25,2±2,1	8,33	28,4±1,8	6,33	2,27	<0.05
4.	20 soniya davomida ustunda qo‘llarda osilib turgan holatda oyoqlarni ko‘tarish (marta)	12,3±1,2	9,75	15,2±1,3	8,55	2,39	<0.05
5.	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	197,4±18,3	9,27	214,7±16,4	6,78	3,01	<0.05
6.	Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	49,6±3,8	6,04	56,8±4,1	7,21	2,87	<0.05
7.	3×10 m ga makkisimon yugurish (soniya)	6,9±0,7	10,14	6,7±0,5	8,95	2,19	<0.05
8.	Oldinga 10 marta o‘mbaloq oshish (soniya)	17,1±1,6	9,35	16,2±1,4	8,64	1,92	>0,05
9.	Ko‘prik holatiga turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta (soniya)	11,8±0,9	7,62	10,4±0,8	7,69	1,84	>0,05
10.	Ko‘prik holatida 5 marta chapga va 5 marta o‘ng tomonga yugurish (soniya)	16,8±1,4	8,33	16,0±1,2	7,5	1,75	>0,05



11.	Ko‘prik holatida burilishlar 10 marta (soniya)	25,2±2,4	9,52	23,3±2,1	9,01	2,22	<0.05
12.	Beldan oshirib uloqtirish 10 marta (soniya) (seo-nage)	24,5±2,3	9,38	22,1±2,1	9,50	2,28	<0.05
13.	10 marta egilib uloqtirish (soniya) (ura-nage)	26,6±2,2	8,27	24,1±2,3	9,54	2,21	<0.05
14.	10 marta old tomondan chalish bilan uloqtirish (soniya) (tay-otoshi)	21,8±2,4	11,0	18,7±1,9	10,16	2,42	<0.05
15.	10 marta orqadan chalish bilan uloqtirish (soniya) (osoto-otoshi)	22,5±2,2	9,77	17,3±1,5	8,67	2,33	<0.05

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba oxirida 30 m ga (soniya) yugurishdagi ko‘rsatkichlar o‘rganilayotgan guruhlarining dzyudochilarida sezilarli o‘zgarishlarni namoyon etdi. Nazorat guruhidagi dzyudochilarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari $4,7 \pm 0,4$ soniyani, tajriba guruhida esa $4,5 \pm 0,5$ soniyani ($t=2,42$; $P<0,05$) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichda sezilarli statistik farqlar aniqlandi. 20 soniya davomida ustunda tortilishda nazorat guruhi dzyudochilarida ko‘rsatkichlar $12,2 \pm 1,3$ marta, tajriba guruhida esa $15,3 \pm 1,4$ martani tashkil qildi ($t=2,33$; $P<0,05$). 20 soniya davomida qo‘llarga tayangan holatda yotib qo‘llarni bukish va yozish ko‘rsatkichlari nazorat guruhi dzyudochilarida $25,2 \pm 2,1$ marta, tajriba guruhida esa $28,4 \pm 1,8$ martani tashkil etdi ($t=2,27$; $P<0,05$). 20 soniya davomida ustunga qo‘llar bilan osilgan holatda oyoqlarni ko‘tarish me‘yori natijalariga ko‘ra, nazorat guruhi dzyudochilarida $12,3 \pm 1,2$ marta, tajriba guruhida esa $15,2 \pm 1,3$ martani tashkil etdi ($t=2,39$; $P<0,05$). Joyidan turib uzunlikka sakrash me‘yorida guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi.

Nazorat guruhi dzyudochilarining natijalari $197,4 \pm 18,3$ sm, tajriba guruhida esa $214,7 \pm 16,4$ sm ($t=3,01$; $P<0,05$) ni tashkil etdi. Joyidan turib balandlikka sakrash me‘yorida quyidagi ma‘lumotlar olindi: nazorat guruhining dzyudochilarida $49,6 \pm 3,8$ sm, tajriba guruhida – $56,8 \pm 4,1$ sm ($t=2,87$; $P<0,05$).

Ushbu ko‘rsatkichda sezilarli statistik farqlar aniqlandi. 20 soniya davomida ustunda tortilishda nazorat guruhi dzyudochilarida ko‘rsatkichlar $12,2 \pm 1,3$ marta, tajriba guruhida esa $15,3 \pm 1,4$ martani tashkil qildi ($t=2,33$; $P<0,05$). 20 soniya davomida qo‘llarga tayangan holatda yotib qo‘llarni bukish va yozish ko‘rsatkichlari nazorat guruhi dzyudochilarida $25,2 \pm 2,1$ marta, tajriba guruhida esa $28,4 \pm 1,8$ martani tashkil etdi ($t=2,27$; $P<0,05$). 20 soniya davomida ustunga qo‘llar bilan osilgan holatda oyoqlarni ko‘tarish me‘yori natijalariga ko‘ra, nazorat guruhi dzyudochilarida $12,3 \pm 1,2$ marta, tajriba guruhida esa $15,2 \pm 1,3$ martani tashkil etdi ($t=2,39$; $P<0,05$). Joyidan turib uzunlikka sakrash me‘yorida guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Nazorat guruhi dzyudochilarining natijalari $197,4 \pm 18,3$ sm, tajriba guruhida esa $214,7 \pm 16,4$ sm ($t=3,01$; $P<0,05$) ni tashkil etdi. Joyidan turib balandlikka sakrash me‘yorida quyidagi ma‘lumotlar olindi: nazorat guruhining dzyudochilarida $49,6 \pm 3,8$ sm, tajriba guruhida – $56,8 \pm 4,1$ sm ($t=2,87$; $P<0,05$).



3×10m ga makkisimon yugurishda, nazorat guruhi dzyudochilarining o'rtacha ko'rsatkichlari $6,9 \pm 0,3$ soniyani, tajriba guruhida esa $6,7 \pm 0,6$ soniyani tashkil etdi ($t=2,19$; $P<0,05$). 10 marta oldinga o'mbaloq oshish me'yorida ko'rsatkichlar nazorat guruhi dzyudochilari $17,1 \pm 1,6$ soniyani, tajriba guruhi esa $16,2 \pm 1,4$ soniyani tashkil etdi, sezilarli farqlar aniqlanmadi ($t=1,92$; $P>0,05$). Dastlabki holatdan ko'prik holatida turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta me'yorida, dastlabki ma'lumotlar guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar yo'qligini ko'rsatdi. Nazorat guruhi dzyudochilarining natijalari $11,8 \pm 0,9$ soniyani tashkil etdi va tajriba guruhida – $10,4 \pm 0,8$ soniyani tashkil etdi ($t=1,84$; $P>0,05$).

Ko'prik holatida 5 marta chapga va 5 marta o'ngga yugurish me'yorida nazorat guruhi dzyudochilarining o'rtacha ko'rsatkichlari $16,8 \pm 1,4$ soniyani, tajriba guruhida esa – $16,0 \pm 1,8$ sek ($t=1,76$; $P>0,05$) ni tashkil etib, dastlabki ma'lumotlar guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar yo'qligini ko'rsatdi.


Vaqtini belgilagan holda 10 marta ko'prik holatida burilishlar me'yorida nazorat guruhi dzyudochilarida ko'rsatkich – $25,2 \pm 2,4$ soniyani, tajriba guruhida esa – $23,3 \pm 2,1$ sek ($t=2,22$; $P<0,05$) soniyani tashkil etdi va guruhlar o'rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Keyingi dzyudochilarning texnik tayyorgarligini tavsiflovchi to'rtta nazorat mashqlarida dastlabki ma'lumotlar ham guruhlar o'rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlanganligini ko'rsatdi. 10 marta orqadan oshirib uloqtirish (seo-nage) me'yorida natijalar nazorat guruhida $24,5 \pm 2,3$ soniyani, tajriba guruhida esa $22,1 \pm 2,1$ soniyani ($t=2,28$; $P<0,05$) tashkil etdi. 10 marta burilish bilan uloqtirish (ura-nage) me'yorida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi: nazorat guruhida – $26,6 \pm 2,2$ soniya, tajriba guruhida esa – $24,1 \pm 2,3$ soniya ($t=2,21$; $P<0,05$). 10 marta old tomondan chalib uloqtirish (tay-otoshi) me'yorida nazorat guruhi dzyudochilarining o'rtacha ko'rsatkichlari $21,8 \pm 2,4$ soniyani, tajriba guruhida esa $18,7 \pm 1,9$ soniyani tashkil etdi ($t=2,42$; $P<0,05$).

Orqadan chalish bilan 10 marta uloqtirish oxirgi nazorat me'yorida (osoto-otoshi) o'rtacha ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili nazorat guruhi dzyudochilarida $22,5 \pm 2,9$ soniyani, tajriba guruhida esa $17,3 \pm 1,5$ soniyani tashkil etdi ($t=2,33$; $P<0,05$).

Pedagogik tajriba ishlari yakunida o'tkazilgan statistik tahlil natijasida yuqorida keltirilgan va tavsiflangan 15 ta nazorat standartidan 12 tasida nazorat guruhi va tajriba guruhi dzyudochilarida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. 10 marta oldinga o'mbaloq oshish, turish holatidan orqaga egilib qo'llarga tayanib turish (ko'prik holati), 5 marta istalgan tomonga yugurish bilan joyidan ketish, ko'prik holatida chap tomonga 5 marta va o'ng tomonga 5 marta yugurish nazorat me'yorlarida sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi. Bu kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish bo'yicha taklif qilingan metodika tajriba guruhi kurashchilarining kuch sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, deb xulosa qilish imkonini beradi.



O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari 1-rasmda keltirilgan bo‘lib, unda nazorat va tajriba guruhlari dzyudochilarida o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlari yaxshilanishi foizining qiyosiy diagrammalari ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi dzyudochilari nazorat guruhi dzyudochilaridan sezilarli darajada ustun keldi va ko‘rsatkichlar foizi oshdi.



1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlari dzyudochilarida o‘rganilgan ko‘rsatkichlari yaxshilanishining qiyosiy taxillari

Sportchida mavjud harakat salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va uni takomillashtirish va uning rivojlanishi uchun yangi yondashuvlarni izlash, hozirgi bosqichda sport nazariyasining asosiy muammolaridan biridir. Bu, yuqori malakali sportchilarning funksional imkoniyatlari chegara qiymatlaridan oshgani va natijalarning keyingi o‘shishida faqat ularga tayanib qolmaslik bilan bog‘liq.

Xulosa. Tadqiqotda 12 nafar oliy ma’lumotli, 5 yil va undan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan, ulardan 12 nafari dzyudo bo‘yicha sport ustasi toifasiga ega bo‘lgan malakali murabbiylar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma hamda 14 ta mahalliy, MDH va chet el mutahassislarini ilmiy ishlarini o‘rganish natijasida tezkor-kuch tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv-mashug‘ulotlarini tashkil etish va



o‘tkazish bo‘yicha hali ham umumiy bir fikr mavjud emasligi aniqlandi. Shu sababli ushbu muammoni o‘rganish dolzarb hisoblanib, yanada keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi. Oliy o‘quv yurtlarida dzyudo bo‘yicha murabbiylarni tayyorlash tizimi ham kelgusida takomillashtirishni talab qiladi.

Pedagogik eksperiment yakunida nazorat va eksperimental guruhlardagi malakali dzyudochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot usulidan foydalanish tufayli bu boradagi malakali dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatilgan. 30 m yugurishda natijalarning oshishi, bunda tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi $4,5 \pm 0,5$ soniya, tirgakda 20 soniya ichida ustunda tortinishlar, o‘rtacha $15,3 \pm 1,4$ marta, qo‘llar bilan to‘singa osilgan holda va oyoqlarni to‘singa ko‘tarish, tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi $15,2 \pm 1,3$ martaga oshgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. - Toshkent, 2005. - 34-b
2. Aliev I.B. Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba-sportchilarni mashg‘ulot yuklamalarining optimal nisbatlari. / Ped.fan.nomzodlik diss. – Toshkent, 2012. – 30 b.
3. Arslonov Sh.A. Tangriev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo kurashi bo‘yicha). Darslik. – Toshkent, 2017. - 35-b
4. Артемьев В.П., Шутов В.В. Теория и методика физического воспитания. Двигательные качества: Учеб. Пособ. – Могилев: МГУ им: А.А. Кулешова, 2004. – 284 с.
5. Qodirov S.E. Sport takomillashuv guruhlarida malakali dzyudochilarning kuch sifatini rivojlantirish uslubiyati “Fan-sportga” ilmiy-nazariy jurnal. 2022/7 № 2181 7804. B. 75-77.
6. Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy kurashning - sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. - Toshkent, 2005. – 35-b.
7. Abdullaev Sh.A. Yosh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari. / O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent, 2012. 32-35-b.
8. Qodirov S.E. Development of strength and operational strength skills of qualified judoists aged 15-17 years in sports improvement groups. Eurasian Journal of sport Science 2021; 1(2): P. 160-164.
9. Timility D. Protocols for Physiological assessment of male and female soccer players. In Physiological tests for Elite Athletes, Human Kinetics, 2000, 17, 356-362.



MALAKALI KURASHCHILARNING TEXNIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEZKOR-KUCH MASHQLARI

Keldiyorov Shuxrat Ergashovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

shuxrat_keldiyorov@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada malakali kurashchilarning texnik va taktik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantiruvchi maxsus mashqlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Sportchilarning individual texnik harakatlar arsenali asosida tuzilgan mashqlar orqali ularning o'quv-mashg'ulot jarayonidagi harakat faolligini oshirish va bu orqali taktik tayyorgarlik samaradorligini yuksaltirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tezkor-kuch qobiliyat, tiklanish, ish qobiliyati, jismoniy yuklama, sportchilarni tayyorlash.

Аннотация: Совершенствовать тактическую подготовку квалифицированных борцов, повысить эффективность умения увеличивать индивидуальный арсенал технических движений в тренировочном процессе на основе специальных упражнений, повышающих уровень быстро-силовых способностей.

Ключевые слова: скоростно-силовая способность, восстановление, работоспособность, физическая нагрузка, подготовка спортсменов.

Abstract: To improve the tactical training of qualified wrestlers, to increase the effectiveness of the ability to increase the individual arsenal of technical movements in the training process based on special exercises that increase the level of fast-strength abilities.

Key words: quick-wittedness, recovery, performance, self-massage, physical activity.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son qaroriga hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda milliy kurash turlari xususan, belbog'li kurash va kurash bo'yicha yosh kurashchilarning texnik va taktik tayyorgarligini yaxshilashga bag'ishlangan bir qator metodlar taklif qilingan. (Kerimov N.A., Yuldashev A.M., Isakov R.M., 2009, Mirzakulov Sh.A., Isakov R.M., 2009). Kurash bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish usullarini tanlashda (I.X.Boymurodov, F.A.Kerimov, 2009, A.Beknazarova, Sh.S.Mirzanova, T.R.Ishmuxamedova, 2014 y.) o'qitish usullari va uslublarini yetarlicha tanlash, shaxsiy raqobatbardosh xususiyatlarini aniqlash, o'quv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish orqali shaxsiylashtirish tamoyiliga rioya qilishning o'ta muhimligini ta'kidladilar [1,2,3,4].



Shu sababli hozirgi vaqtda malakali kurashchilarni tayyorlash tizimida maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ishlanmalar yetarli darajada amalga oshirilmaganligi ilmiy izlanishlar olib borishni taqqozo etadi.

Tadqiqot usullari.

Maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik test, pedagogik tajriba, matematik statistika tahlili va tadqiqot natijalarini qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotni tashkillashtirish: malakali kurashchilarning taktik tayyorgarligini takomillashtirish uchun tezkor-kuch qobiliyat darajasini nomoyon etuvchi maxsus mashqlar asosida texnik harakatlarini individual arsenalini o‘quv-mashg‘ulot jarayonlariga kiritish hisobiga bellashuvdagi hujum harakat samaradorligini oshirish imkoniyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.

Bizning oldimizga sport takomillashuvi bosqichida turli vazn toifalaridagi 15-17 yoshli malakali kurashchilarning kuch va tezkor-kuch tayyorgarligi tabaqalashtirilgan metodikasini nazariy jihatdan ishlab chiqish va tajribada asoslash vazifasi qo‘yildi.

Maxsus umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish dasturi quyidagicha tuzilgan. Ikkita mashqlar to‘plami kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini (MJT) va yana ikkita mashqlar to‘plami umumiy jismoniy tayyorgarlikni (UJT) takomillashtirishga qaratilgan.

Sport takomillashuvi guruhleri malakali kurashchilarining musobaqa faoliyatini hisobga olgan holda tezkor-kuch tayyorgarligini ilmiy–uslubiy asoslash sportchilarni tayyorlashning uzoq muddatli tizimida zarur shartdir. Ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, sport takomillashuvi guruhleri malakali kurashchilarining kuch va tezkor-kuch tayyorgarligi uchun axborotli va ishonchli testlarni aniqlashda hali ham ko‘plab hal qilinmagan muammolar mavjud.

Kurashda tayyorgarlikning samaradorligi asosan har bir sportchining yoshi va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos keladigan nazorat mashqlari va testlarini oqilona tanlashga bog‘liq. Amaldagi testlar va nazorat mashqlari samaradorligini baholashning asosiy mezonlari sport natijalarining oshishi hisoblanadi. Aksariyat mutaxassislarning fikriga ko‘ra, musobaqa faoliyatining muvaffaqiyati harakat tezligi va mushaklar kuchining quvvati bilan belgilanadi, bu xalqaro maydondagi sport yutuqlarining yuqori zichligi bilan tasdiqlanadi. Shu sababli ko‘plab tadqiqotchilar sportchilarning kuch va tezkor-kuch tayyorgarligini o‘rganishga qiziqishni kuchaytirdilar. Kuch va tezkor-kuch sifatlarining rivojlanish darajasi deyarli barcha sport turlarida yutuqlarni belgilaydi, shuning uchun ushbu sifatlarni nazorat qilish va takomillashtirish usullariga katta e‘tibor qaratilishi lozim.

Ko‘p mutaxassislarning fikricha, kurashchilarni tezkor-kuch tayyorgarligi metodikasi o‘z ichiga aniqlashning pedagogik, ijtimoiy, psixologik va tibbiy-



biologik usullarni oluvchi kompleks xarakterdagi tashkiliy-uslubiy tizim bo‘lib, ular asosida sportchilarning ma‘lum bir sport turiga ixtisoslashish qobiliyati aniqlanadi.

Shu bilan birga, tezkor-kuch tayyorgarligi o‘quv-mashg‘ulot jarayonining muhim tashkiliy qismidir, chunki u sport tayyorarligining asosiy vazifasi – yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi. Sportchilarning istiqbollarini aniqlashda nafaqat yuqori potensial jismoniy imkoniyatlarning mavjudligiga e‘tibor qaratish lozim, balki ularning zaxira imkoniyatlarini safarbar qilish, ekstremal sharoitlar – mas‘uliyatli sport musobaqalarida harakat salohiyatini samarali amalga oshirish qobiliyatini baholashni ko‘zda tutadi.

Tadqiqotimizda quyidagi tezkor-kuch ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlangan – (F_{max}) – portlovchi izometrik rejimda mushaklarni portlovchi kuchining maksimal qiymati, J – tezkor-kuch indeksi, izometrik rejimda mushaklarning portlovchi kuchini tavsiflovchi koeffisient, Q – boshlang‘ich kuch, G – tezlashtiruvchi kuch va kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligining quyidagi ko‘rsatkichlari: 10 marta oldinga o‘mbaloq oshish (soniya), dastlabki holatdan ko‘prik holatiga turish va 5 marta istalgan tomonga yugurib ketish (soniya), ko‘prik holatida 5 marta chap tomonga va 5 marta o‘ng tomonga yugurish (soniya), 10 marta ko‘prik holatida burilishlar (soniya), 10 marta beldan oshirib uloqtirish (soniya), 10 marta ko‘krakdan oshirib tashlash (soniya), 10 marta oldidan chalib uloqtirish (soniya), 10 marta orqadan chalib uloqtirish (soniya).

1-jadvalda kurashchilarning maxsus trenajyor yordamida olingan tezkor-kuch ko‘rsatkichlari va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik tahlili keltirilgan.

Tajribada sport takomillashuvi guruhlarining 24 nafar malakali kurashchilari ishtirok etdi.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sport takomillashuvi guruhlar malakali kurashchilarining tezkor-kuch ko‘rsatkichlari va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik keltirilgan, yuqori korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlangan.

1-jadval

Sport takomillashuv guruhidagi kurashchilarining tezkor-kuch tayyorgarligi ko‘rsatkichlari va maxsus jismoniy tayyorgarligi testlarining korrelyatsion o‘zaro bog‘liqligi

TKK va MJT ko‘rsatkichlari	TKK				MJT							
	Fmax	J	Q	G	1	2	3	4	5	6	7	8
F max	////											
J – tezkor-kuch indeksi	0,717	////										
Q – boshlang‘ich kuch	0,709	0,635	////									
G – tezlashtiruvchi kuch	0,726	0,619	0,741	////								
Oldinga o‘mbaloq oshish 10 marta (soniya)	0,452	0,321	0,369	0,339	////							
Ko‘prik holatiga turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta (soniya)	0,431	0,343	0,353	0,407	0,432	////						



Ko'pri holatida 5 marta chapga va 5 marta o'ng tomonga yugurish (soniya)	0,382	0,368	0,372	0,375	0,417	0,613	////					
Ko'pri holatida burilishlar 10 marta (soniya)	0,368	0,354	0,382	0,423	0,382	0,538	0,567	/////				
Beldan oshirib uloqtirish 10 marta (soniya)	0,447	0,419	0,428	0,453	0,426	0,618	0,622	0,635	/////			
10 marta egilib uloqtirish	0,518	0,433	0,409	0,391	0,431	0,721	0,638	0,618	0,635	////		
10 marta old tomondan chalish bilan uloqtirish	0,416	0,384	0,374	0,422	0,398	0,535	0,574	0,585	0,511	0,622	/////	
10 marta orqadan chalish bilan uloqtirish	0,387	0,372	0,319	0,413	0,432	0,601	0,526	0,529	0,534	0,591	0,726	////

Kurashchilarning tezkor-kuch ko'rsatkichlari va maxsus jismoniy tayyorgarligi nazorat mashqlarining korrelyatsion tahlili sport takomillashuv guruhidagi malakali kurashchilarining tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi axborotli testlarni aniqlash imkonini berdi.

Kurashchilarning individual xususiyatlari va vazn toifaslariga qarab tezkor-kuch tayyorgarligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan dastur sportchilarda yetakchi va ortda qolgan maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, shu qatorda yetakchi va ortda qolgan texnik usullarini bajarish darajalarini oshirish imkoniyatlari bo'yicha maxsus mashqlar o'quv-mashg'ulot jarayonlariga joriy etildi.

Sport takomillashuvi bosqichida shug'ullanuvchi malakali kurashchilarning tezkor-kuch qobiliyatini tavsiflovchi 8 ko'rsatkich tahlil qilindi. Qiyosiy statistik tahlil Studentning t-mezoni yordamida o'tkazildi.

Tahlil natijasida pedagogik tajriba boshida tajriba va nazorat guruhlarining malakali kurashchilarida o'rganilayotgan parametrlar o'rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi (2-jadvalga qarang).

Nazorat me'yorlarining o'rtacha ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhidagi malakali kurashchilarining UJT va MJT ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (n=21)

№	UJT va MJT ko'rsatkichlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t	P
		$\bar{X} \pm \sigma$	V%	$\bar{X} \pm \sigma$	V%		
1	Oldinga 10 marta o'mbaloq oshish (soniya)	17,0±2,3	13,52	16,9±2,4	14,20	1,7	>0,05
2	Ko'pri holatiga turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta (soniya)	12,3±1,4	11,38	12,4±1,6	12,90	0,9	>0,05
3	Ko'pri holatida 5 marta chapga va 5 marta o'ng tomonga yugurish (soniya)	16,9±1,7	10,05	16,8±1,8	10,71	1,1	>0,05
4	Ko'pri holatida burilishlar 10 marta (soniya)	26,6±2,8	10,52	27,6±2,6	9,42	1,2	>0,05
5	Beldan oshirib uloqtirish 10 marta	25,3±2,9	11,46	26,4±2,4	9,09	1,3	>0,05
6	10 marta egilib uloqtirish	27,3±2,9	10,62	28,4±3,1	10,91	0,8	>0,05
7	10 marta old tomondan chalish bilan uloqtirish	22,6±2,7	11,94	23,6±3,3	13,98	0,7	>0,05
8	10 marta orqadan chalish bilan uloqtirish	23,4±3,6	15,38	22,7±2,8	12,33	0,6	>0,05



2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Nazorat guruhi kurashchilari 10 marta oldinga o‘mbaloq oshish me‘yorida $17,0 \pm 2,3$ soniya, tajriba guruhi – $16,9 \pm 2,4$ soniya ($t=1,7$; $P>0,05$) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Dastlabki turish holatidan ko‘prik holatiga turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish - 5 marta (soniya) me‘yorida dastlabki ma‘lumotlar guruhlarda sezilarli farqlar yo‘qligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhi kurashchilarining natijalari $12,3 \pm 1,4$ soniyani, tajriba guruhi esa $12,4 \pm 1,6$ soniyani ($t=0,9$; $P>0,05$) tashkil etdi.

Ko‘prik holatida 5 marta chapga va 5 marta o‘ng tomonga yugurish me‘yorida nazorat guruhi kurashchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari $16,9 \pm 1,7$ soniyani, tajriba guruhida – $16,8 \pm 1,8$ soniya ($t=1,1$; $P>0,05$) ni tashkil etdi.

Vaqtini belgilagan holda nazorat guruhi kurashchilari 10 marta ko‘prik holatida burilishlar me‘yorida nazorat guruhi $26,6 \pm 2,8$ soniyani, tajriba guruhi esa $27,6 \pm 2,6$ soniya ($t=1,2$; $P>0,05$) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Quyidagi to‘rtta nazorat mashqlarida kurashchilarning texnik tayyorgarligini tavsiflovchi dastlabki ma‘lumotlar ham guruhlarda sezilarli farqlar mavjud emasligini ko‘rsatdi. 10 marta beldan oshirib uloqtirish me‘yorlari natijalari nazorat guruhining kurashchilarida $25,3 \pm 2,49$ soniya va tajriba guruhida – $26,4 \pm 2,4$ soniyani ($t=1,3$; $P>0,05$) tashkil etdi. 10 marta egilib uloqtirish me‘yorida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi: nazorat guruhida – $27,3 \pm 2,9$ soniya, tajriba guruhida – $28,4 \pm 3,1$ soniya ($t=0,8$; $P>0,05$). 10 marta old tomondan chalib uloqtirish me‘yorida nazorat guruhi kurashchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari $22,6 \pm 2,7$ soniya, tajriba guruhida – $23,6 \pm 3,3$ soniyani ($t=0,7$; $P>0,05$) tashkil etdi.

Oxirgi 10 marta orqadan chalib uloqtirish me‘yorida o‘rtacha ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlilida nazorat guruhida – $23,4 \pm 3,6$ soniya, tajriba guruhida – $22,7 \pm 2,8$ soniya ($t=0,6$; $P>0,05$) ni tashkil qildi.

Yuqorida keltirilgan va tavsiflangan 8 ta nazorat me‘yorlari bo‘yicha dastlabki natijalar bo‘yicha nazorat guruhi va tajriba guruhi kurashchilari o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi. Bu tadqiqot guruhlariga jismoniy tayyorgarligi bir xil bo‘lgan shug‘ullanuvchilar tanlanganligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida pedagogik tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlarining malakali kurashchilarida o‘rganilayotgan parametrlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Ikkala guruhdagi nazorat me‘yorlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlarini qiyosiy statistik tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Pedagogik tajriba yakunida nazorat va tajriba guruhidagi malakali kurashchilarining UJT va MJT ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili (n=21)

№	UJT va MJT ko‘rsatkichlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t	P
		$\bar{X} \pm \sigma$	V%	$\bar{X} \pm \sigma$	V%		
1	Oldinga 10 marta o‘mbaloq oshish (soniya)	$17,1 \pm 1,6$	9,35	$16,2 \pm 1,4$	8,64	1,92	$>0,05$
2	Ko‘prik holatiga turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta (soniya)	$11,8 \pm 0,9$	7,62	$10,4 \pm 0,8$	7,69	1,84	$>0,05$



3	Ko'prik holatida 5 marta chappa va 5 marta o'ng tomonga yugurish (soniya)	16,8±1,4	8,33	16,0±1,2	7,5	1,75	>0,05
4	Ko'prik holatida burilishlar 10 marta (soniya)	25,2±2,4	9,52	23,3±2,1	9,01	2,22	<0,05
5	Beldan oshirib uloqtirish 10 marta	24,5±2,3	9,38	22,1±2,1	9,50	2,28	<0,05
6	10 marta egilib uloqtirish	26,6±2,2	8,27	24,1±2,3	9,54	2,21	<0,05
7	10 marta old tomondan chalish bilan uloqtirish	21,8±2,4	11,0	18,7±1,9	10,16	2,42	<0,05
8	10 marta orqadan chalish bilan uloqtirish	22,5±2,2	9,77	17,3±1,5	8,67	2,33	<0,05

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba oxirida 10 marta orqadan chalish bilan uloqtirishdagi ko'rsatkichlar o'rganilayotgan guruhlarining kurashchilarida sezilarli o'zgarishlarni namoyon etdi. Nazorat guruhidagi kurashchilarning o'rtacha ko'rsatkichlari 22,5±2,2 soniyani, tajriba guruhida esa 17,3±1,5 soniyani ($t=2,33$; $P<0,05$) tashkil etdi.

Xulosa.

Tadqiqotda 24 nafari kurash sport toifasiga ega bo'lgan sportchilar va kurashga oid ilmiy ishlarini o'rganish natijasida tezkor-kuch tayyorgarligi bo'yicha o'quv-mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hali ham umumiy bir fikr mavjud emasligi aniqlandi. Shu sababli ushbu muammoni o'rganish dolzarb hisoblanib, yanada keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi. Oliy o'quv yurtlarida kurash bo'yicha murabbiylarni tayyorlash tizimi ham kelgusida takomillashtirishni talab qiladi.

Pedagogik eksperiment yakunida nazorat va eksperimental guruhlardagi malakali kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot usulidan foydalanish tufayli bu boradagi malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatilgan. 10 marta orqadan chalish bilan uloqtirishdagi ko'rsatkichlar o'rganilayotgan guruhlarining kurashchilarida sezilarli o'zgarishlarni namoyon etdi. Nazorat guruhidagi kurashchilarning o'rtacha ko'rsatkichlari 22,5±2,2 soniyani, tajriba guruhida esa 17,3±1,5 soniyani ($t=2,33$; $P<0,05$) tashkil etdi.

Pedagogik tajriba yakunida o'tkazilgan statistik tahlil natijasida, tajriba guruhi kurashchilarida 8 ta nazorat me'yorlaridan 6 tasi bo'yicha sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Oldinga 10 marta o'mbaloq oshish, turish holatidan ko'prik holatiga turish va 5 marta istalgan tomonga joyidan yugurib ketish, ko'prik holatida 5 marta chappa va 5 marta o'ngga yugurish me'yorlarida sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi. Bu kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish bo'yicha taklif



qilingan metodika tajriba guruhi kurashchilarining kuch sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatdi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son qarori 2020-yil 4-noyabr.
2. Абдиев А.Н. – Борьба монография. Ташкент, 2004г., 334 с.
3. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усуляти. Дарслик. Т., 2005. 34-б
4. Абдуллаев Ш.А. Ёш курашчиларни тайёрлашнинг илмий-услубий асослари. / Ўқув-услубий қўлланма. Т., 2012, б.32-35.
5. Алиев И.Б. Кураш билан шуғулланувчи талаба-спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари. / Пед.фан.номзодлик дисс., Т., 2012. – 30 б.
6. Арслонов Ш.А. Тангриев А.Ж. - Спорт педагогик маҳоратини ошириш (Дзюдо кураши бўйича). Дарслик – 2017 й 35-б
7. Артемьев В.П., Шутов В.В. Теория и методика физического воспитания. Двигательные качества: Учеб. Пособ. – Могилев: МГУ им: А.А. Кулешова, 2004. – 284 с.
8. Атаев А.К. – Ёш - Ўсмирларга ўзбек курашини ўргатиш услубияти. Тошкент 2005. Ўқув қўлланма. 24 бет.
9. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий курашнинг - соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. Т., 2005. 35-б.
10. Carter J.L. – “Somatotype characteristics of champion athletes”, Rep, Antrop-Cong. ed. A. Hrdica, Praha, Humpolec. 1969.
11. Timility D. Protocols for Physiological assessment of male and tamale soccer players. In Physiological tests for Elite Athletes, Human Kinetics, 2000, 17, 356-362.

SUZISH MASHG‘ULOTLARI ORQALI SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASH

Rahimboyev Umidbek Hamza o‘g‘li

Assistent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

umidbekhg@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada suzish mashg‘ulotlarining salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati va uning jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy salomatlikka bo‘lgan ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot, suzishning nafaqat jismoniy holatni



yaxshilash, balki stressni kamaytirish, kayfiyatni oshirish va umumiy farovonlikni ta'minlashdagi samaradorligini ko'rsatadi. Suzish mashg'ulotlari yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash, mushaklar kuchini oshirish va mo'ljallangan mushak guruhlarini ishlab chiqarish uchun samarali usul sifatida qaraladi. Shuningdek, suzishning og'irlikni boshqarish, tana shaklini yaxshilash va moslashuvchanlikni oshirishdagi roli ham alohida ta'kidlanadi.

Maqolada sog'lomlashtiruvchi suzish turlari, ularning organizmga ta'siri, turli yoshdagi insonlar uchun foydalari hamda suzishni muntazam ravishda amalga oshirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqola sog'lom turmush tarzini shakllantirishda suzishning tutgan o'рни haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zi: suzish, salomatlik, yurak faoliyati, mushaklar, turli yoshlar, jismoniy faollik.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение занятий плаванием для укрепления здоровья и изучается его влияние на физическое, психическое и социальное здоровье. Исследование показывает эффективность плавания не только в улучшении физического состояния, но и в снижении стресса, повышении настроения и обеспечении общего благополучия. Занятия плаванием рассматриваются как эффективный способ укрепления сердечно-сосудистой системы, увеличения мышечной силы и проработки целевых групп мышц. Также особо отмечается роль плавания в контроле веса, улучшении формы тела и повышении гибкости.

В статье освещаются виды оздоровительного плавания, их влияние на организм, польза для людей разного возраста, а также важность регулярных занятий плаванием. Кроме того, статья содержит важную информацию о роли плавания в формировании здорового образа жизни.

Ключевые слова: плавание, здоровье, сердечная деятельность, мышцы, разные возрастные группы, физическая активность.

Abstract: This article examines the importance of swimming exercises in strengthening health and its impact on physical, mental, and social well-being. The study demonstrates the effectiveness of swimming not only in improving physical condition but also in reducing stress, boosting mood, and ensuring overall well-being. Swimming exercises are considered an effective method for strengthening the cardiovascular system, increasing muscle strength, and developing targeted muscle groups. Furthermore, the article specifically highlights the role of swimming in weight management, improving body shape, and increasing flexibility.

The article also covers various types of therapeutic swimming, their effects on the body, benefits for people of different ages, and the importance of regular swimming. Moreover, the article contains important information about the role of swimming in fostering a healthy lifestyle.



Key words: *swimming, health, heart function, muscles, various ages, physical activity.*

Kirish. Hozirgi kunda suzish sporti nafaqat sog'lomlashtiruvchi omil, balki yosh sportchilarni har tomonlama rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda jismoniy faollikning yetishmasligi, stress, noto'g'ri ovqatlanish va turmush tarzining sustlashuvi ko'plab sog'liq muammolariga olib kelmoqda. Ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklari, umurtqa va bo'g'im og'riqlari, ortiqcha vazn muommalarini qamrab olgan. Bunday sharoitda sog'lomlashtiruvchi suzish organizmni tiklash, sog'lig'ini mustahkamlash va umumiy jismoniy holatni yaxshilashda eng samarali, xavfsiz va yoqimli usullardan biri sifatida dolzarb ahamiyat ega [2, 3, 4, 5].

Suzish barcha yoshdagilar uchun mos keladi va organizmga og'irlik tushirmasdan samarali natijalar beradi. Shu sababli, ushbu mavzu sog'lom turmush tarzini shakllantirishga intilayotgan har bir inson uchun dolzarb va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi [1, 6].

Adabiyotlar tahlili. Tahlil qilingan adabiyotlar suzish mashg'ulotlarining jismoniy va ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sirini ilmiy asosda yoritgan. Manbalarda suzish yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashi, stressni kamaytirishi, mushaklarni faollashtirishi ta'kidlanadi. Shuningdek, sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarning sotsiologik va psixologik jihatlar ham keng o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi hamda suzish faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Tadqiqot 2025-yilda bir oy davomida tashkil etildi. Mashg'ulotlar har kuni muntazam o'tkazilib, ularning har biri 45 daqiqadan iborat bo'ldi. Jarayon davomida ishtirokchilarning umumiy sog'lig'i va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatildi. Tadqiqot doirasida ishtirokchilarning sog'liq holatini baholash, jismoniy faollik va guruh mashg'ulotlarining samaradorligini aniqlash maqsadida anketa so'rovnomalari asosida ma'lumotlar yig'ildi. Tadqiqotda asosan sotsiologik (anketali) usuldan foydalanildi, bu esa olingan natijalarni tizimli tahlil qilish imkonini berdi. (1 jadval)

1 jadval

Sog'lomlashtiruvchi guruhlarda mashq qilishning anketa so'rovnoma

O'rganilayotgan holat	Boshlanishdagi holat	Yakunidagi holat	O'zgarishlar
Jismoniy holat	O'rtacha darajada	Yaxshilandi	Yurak urish tezligi normaga qaytdi, qon bosimi pasaydi, mushaklar kuchi oshdi
Ruhiy holat	O'rtacha darajada	Yaxshilandi	Stress darajasi kamaydi, kayfiyat va umumiy ruhiy farovonlik yaxshilandi
Ijtimoiy faoliyat	O'rtacha darajada	Yaxshilandi	Ijtimoiy bog'lanishlar mustahkamladi, guruh mashg'ulotlari orqali qo'llab-quvvatlash va umumiy maqsadlarga erishish o'sdi
Stress darajasi	Yuqori	Past	Stress darajasi sezilarli darajada kamaydi
Kayfiyat	O'rtacha	Yuqori	Kayfiyat yaxshilandi, ijobiy ruhiy holatning ko'payishi
Umumiy ruhiy farovonlik	O'rtacha	Yuqori	Ruhiy holat ijobiy o'zgardi, umumiy farovonlik oshdi



Jadvalda tadqiqot boshida va oxirida kuzatilgan salomatlik o‘zgarishlari keltirilgan. Tadqiqot natijalari, sog‘lomlashtiruvchi guruhlar orqali ishtirokchilarning jismoniy va ruhiy holatlari sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari muhokamasi.

Suzish — salomatlikni tiklash, jismoniy faollikni oshirish va kasalliklarning oldini olishda juda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muntazam suzish bilan shug‘ullangan ishtirokchilarda yurak-qon tomir tizimi faoliyati yaxshilangani, nafas olish ritmi barqarorlashgani, bel va orqa og‘riqlari kamaygani kuzatildi. Shuningdek, ruhiy holat va kayfiyatda ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi.

Tadqiqotning boshlanishida ishtirokchilarning jismoniy holati o‘rtacha darajada edi, ya’ni ularning yurak urish tezligi va qon bosimi ko‘rsatkichlari normadan biroz yuqori edi. Biroq, sog‘lomlashtiruvchi guruhlar mashg‘ulotlari davomida ishtirokchilarning jismoniy salomatligi yaxshilandi. Mashqlar yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, qon bosimi pasayib, yurak urish tezligi normaga qaytdi. Shuningdek, mushaklarning kuchi oshdi, bu esa jismoniy tayyorgarlikni sezilarli darajada yaxshiladi.

Dastlab, ishtirokchilarning ruhiy holati o‘rtacha darajada bo‘lib, stress va kayfiyatning o‘zgarishi ko‘rsatilgan edi. Sog‘lomlashtiruvchi guruhlarda muntazam mashqlar bajarish stressni kamaytirishga va kayfiyatni yaxshilashga yordam berdi. Tadqiqotning yakunida ishtirokchilar ko‘proq ijobiy ruhiy holatni va yuqori kayfiyatni his qilishdi. Shuningdek, mashqlar stressni kamaytirish va ruhiy farovonlikni oshirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Mashqlar va guruhdagi qo‘llab-quvvatlash orqali ishtirokchilarning stress darajasi sezilarli darajada kamaydi. Jismoniy faoliyat va ijtimoiy aloqalar stressni kamaytirish va umumiy ruhiy holatni yaxshilashga yordam berdi. Tadqiqot ishtirokchilari, sog‘lomlashtiruvchi guruh mashg‘ulotlari davomida stressdan qutilishning samarali usuli sifatida muntazam jismoniy mashqlarni qayd etishdi.

Xulosa.

Muntazam ravishda suzish jismoniy va ruhiy holatni yaxshilashga katta yordam beradi. Bu sport turi barcha yoshdagi odamlar uchun mos bo‘lib, mushaklarni kuchaytirish, yurak-qon tomir tizimining faoliyatini normallashtirish va nafas olishni yaxshilashga yordam beradi. Suzishning boshqa jismoniy mashqlardan afzalligi shundaki, u tanaga ortiqcha yuk bermasdan mushaklarni samarali ishlatadi, shu bilan birga, jarohatlanish xavfini kamaytiradi.

Ruhiy holatga ta’siri ham katta bo‘lib, suzish stressni kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va uyqu sifatini oshiradi. Shu bilan birga, suzishning jismoniy chidamlilikni oshirish va turli xil sog‘liq muammolarini bartaraf etishda samarali bo‘lishi isbotlangan.



Sog‘lomlashtiruvchi guruhlarda muntazam ravishda amalga oshirilgan mashg‘ulotlar ishtirokchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini sezilarli darajada yaxshiladi. Mashg‘ulotlarning muntazam ravishda o‘tkazilishi ishtirokchilarning jismoniy salomatlik ko‘rsatkichlarini normaga keltiradi, qon bosimini pasaytiradi, yurak urish tezligini tartibga soladi va mushak kuchini oshiradi. Bundan tashqari, guruhdagi faoliyatlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamladi va ishtirokchilarga bir-birini qo‘llab-quvvatlash imkonini berdi, bu esa ijtimoiy faollikni oshirdi. Shunday qilib, sog‘lomlashtiruvchi guruhlar nafaqat jismoniy holatni yaxshilash, balki ruhiy va ijtimoiy farovonlikni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, muntazam mashqlar ishtirokchilarning salomatligini yaxshilashda va umumiy farovonlikni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov U. *Sport va salomatlik: Suzishning ijobiy ta’sirlari*. Toshkent, Uzbekistan: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. (2020).
2. Tomas S., & Vasquez E. (2020). Psychological benefits of swimming as a sport for stress relief. *International Journal of Sports Psychology*, 39(2), 123-131.
3. «Теория и методика обучения плаванию». Редактор: А.А. Литвинов. Изд.: Академия, 2014 год.
4. Fulton E., & Harper M. (2020). Swimming and rehabilitation: A comprehensive review of the therapeutic effects of swimming on physical recovery. *Rehabilitation Journal*, 45(4), 303-312.
5. Grodzicki M., & Nowak M. (2018). The impact of swimming on cardiovascular health and physical fitness. *Journal of Sports Science & Medicine*, 17(4), 202-210.
6. <https://yuz.uz/uz/new>

11-12 YOSHLI SUZUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Rahimboyev Umidbek Hamza o‘g‘li

Assistent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

umidbekhg@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada 11-12 yoshli suzuvchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi o‘rganiladi. Ushbu yoshdagi sportchilarda texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati katta bo‘lib, bu ularning keyingi yillarda musobaqalardagi natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada suzuvchilarning



tayyorgarlik jarayonida texnika samaradorligini oshirish uchun mashg‘ulotlar xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yosh suzuvchilar, texnik tayyorgarlik, takomillashuv, mashg‘ulot, suzish, mashqlar.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос совершенствования технической подготовки пловцов 11-12 лет. Развитие технических навыков у спортсменов этого возраста имеет большое значение, что напрямую влияет на их результаты на соревнованиях в последующие годы. В статье представлен план тренировок для повышения эффективности техники в процессе подготовки пловцов. Также подчеркиваются моменты, в которых следует обратить внимание на упражнения и тренировочный процесс для правильного выполнения техники в различных стилях плавания.

Ключевые слова: юные пловцы, техническая подготовка, совершенствование, тренировка, плавание, упражнения.

Abstract: The article addresses the issue of improving the technical training of 11-12 year old swimmers. The development of technical skills in athletes of this age is of great importance, which directly affects their results in competitions in subsequent years. The article presents a training plan for improving technique effectiveness in the swimmer training process. It also emphasizes the points where attention should be paid to exercises and the training process for correctly executing the technique in different styles of swimming.

Key words: young swimmers, technical training, improvement, training, swimming, exercises.

Kirish. Suzish sporti bolalarning sog‘lom jismoniy rivojlanishi, chidamlilik va muvozanat hissini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, 11–12 yosh davri sportchining texnik asoslarini shakllantirish uchun eng qulay bosqich sanaladi. Shu yoshdagi suzuvchilarda texnik tayyorgarlikni to‘g‘ri shakllantirish ularning keyingi sport faoliyatida muvaffaqiyatli natijalarga erishishida asosiy omil hisoblanadi. Texnik mashqlarni tizimli ravishda qo‘llash, sportchining tanasiga mos individual yondashuv bilan uyg‘unlashganda, samaradorlik sezilarli darajada ortadi. Shu boisdan, texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuv dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Ilmiy adabiyotlarda bolalar suzuvchilarining texnik tayyorgarligi haqida ayrim izlanishlar uchrasa-da, 11–12 yoshdagi sportchilar uchun maxsus mashqlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko‘proq umumiy metodikaga asoslangan bo‘lib, yoshga mos individual yondashuv yetishmaydi. Bu esa yangi usullar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.



Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, suzishga oid me'yoriy hujjatlar o'rganildi, tajriba va nazorat guruhlari ishtirokida pedagogik eksperiment tashkil qilindi. Texnik tayyorgarlikni baholash uchun maxsus testlar tuzilib, ularning samaradorligi matematik-statistik tahlil yordamida aniqlandi. Tadqiqot 3 oy davomida Toshkent shahri “2-BO‘SM”da olib borildi.

Natijalar va muhokama.

Suzish, zamonaviy sport turlaridan biri bo'lib, nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki texnik ko'nikmalarni ham talab qiladi. 11-12 va yoshdagi sportchilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirish, suzishning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. 11-12 yoshdagi suzuvchilar o'z texnik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishi uchun, mashg'ulot jarayonida ularning organizmiga mos ravishda individual dasturlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu yosh guruhida texnik elementlarni to'g'ri o'zlashtirish va ularni yuqori darajada bajarish sportchining keyingi yutuqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3, 4, 6].

Yosh sportchilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning cheklanganligi, sportning bu turidagi o'sib borayotgan talablarga mos ravishda yangi metodik yondoshuvlarning zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, yosh sportchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ularning texnik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida alohida e'tiborga olinishi kerak [1, 2, 5].

11-12 yoshli suzuvchilarni texnik tayyorgarligini maxsus mashqlar orqali takomillashtirish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Suzuvchilarni texnik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
2. Suzuvchilarni texnik tayyorgarlik darajasini maxsus testlar asosida aniqlash;
3. Suzuvchilar suzish usullaridagi texnikasining samaradorligini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish;
4. Ishlab chiqilgan mashqlar majmuasini tadqiqot orqali samaradorligini isbotlash.

Birinchi bosqichda (2025-yil yanvar oyi) davomida biz o'rganilayotgan muammo doirasida chet el va mahalliy olimlarning fikrlarini va ilmiy ishlarini o'rganishga bag'ishladik.

Ikkinchi bosqichda biz 11-12 yoshli suzuvchilardan 12 nafarini saralab oldik va ularni ikki guruhga ajratdik. Saralab olingan sportchilarning jismoniy rivojlanishi, texnik tayyorgarligi hamda suzish tayyorgarligi darajasi bir xil bo'lgan. Ishlab chiqilgan mashqlar majmuasining samaradorligini isbotlash maqsadida tadqiqot boshida va oxirida nazorat va tajriba guruhlardan texnik tayyorgarlik darajasini baholash uchun maxsus testlar olingan.



Uchinchi bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar majmuasini tadqiqot orqali samaradorligini isbotlash maqsadida olingan natijalar matematik-statistik qayta ishlovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot davomida olingan natijalar 11-12 yoshdagi suzuvchilarda texnik tayyorgarlik darajasi yaxshilanganligidan dalolat berdi. Texnik tayyorgarligini baholash uchun 1 jadvalda keltirilgan testlardan foydalanildi.

1-jadval

11-12 yoshdagi suzuvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini baholash uchun maxsus testlar

Suzish usuli	Baholash Kriteriyalari	Ballar	Izoh
Erkin usul	Qo'llar ishlash texnikasi	1–5	Qo'lning suvda to'g'ri ishlashi
	Oyoq ishlash texnikasi	1–5	Oyoqlarning to'g'ri ishlashi, tezlikni saqlash, qadamlarning samaradorligi.
	Nafas olish va chiqarish texnikasi	1–5	Bir xil va ritmik nafas olish.
	Tanani to'g'ri tutish	1–5	Suvda tananing tekisligi va muvozanatini saqlash.
Chalqancha usul	Qo'llar ishlash texnikasi	1–5	Qo'llarning suvda samarali ishlashi va to'g'ri pozitsiyasi
	Oyoq ishlash texnikasi	1–5	Oyoqlarning doimiy va kuchli harakatlari, to'g'ri pozitsiyani saqlash
	Tanani va boshni tutish	1–5	Tanani to'g'ri pozitsiyada ushlab turish, boshning to'g'ri holati.
	Tezlikni saqlash va barqarorlik	1–5	Chalqancha suzishda barqarorlikni saqlash va tezlikni yaxshilash.
Brass usuli	Ko'krakni ochish va yig'ish texnikasi	1–5	Ko'krakni to'g'ri ochish va yig'ish, oyoqlarni yaxshi ishlatish
	Oyoqlarni ishlatish	1–5	Oyoqlarning kuchli va to'g'ri ishlashi, to'g'ri ritmda suzish
	Qo'llar ishlash texnikasi	1–5	Qo'llarning to'g'ri ishlashi, ko'krakni to'g'ri ochish.
	Tezlikni va muvozanatni saqlash	1–5	Tezlikni va suzishda muvozanatni saqlash
Baterflay usuli	Qo'llar ishlash texnikasi	1–5	Baterflay usulida qo'llarning samarali ishlashi, to'g'ri pozitsiya
	Oyoq ishlash texnikasi	1–5	Baterflay usulida oyoqlarning samarali va kuchli ishlashi.
	Tanani burish va kuch ishlatish	1–5	Tananing to'g'ri burilishi va kuchni to'g'ri ishlatish.
	Nafas olish va chiqishi	1–5	Nafas olish texnikasi.

Izoh: 1 ball: Texnikada jiddiy kamchiliklar mavjud. Suzuvchi usulni to'g'ri o'zlashtirmagan yoki ko'plab xatolarga yo'l qo'ygan.

2 ball: Texnikada ba'zi xatolar mavjud. Usulni yaxshilash uchun qo'shimcha mashqlar talab qilinadi.


3 ball: O'rta darajadagi texnika. Usulni yaxshilash uchun ba'zi jihatlar ustida ishlash zarur.

4 ball: Yaxshi texnika. Usulning ko'p jihatlar to'g'ri bajarilmoqda, ammo kichik xatolar yoki kamchiliklar mavjud.

5 ball: Mukammal texnika. Suzuvchi usulni mukammal darajada bajaradi, barcha elementlar to'g'ri va samarali bajariladi.



Ekspertlar tomonidan 11-12 yoshdagi suzuvchilarning texnik tayyorgarlik darajasi yuqorida keltirilgan mezon bo‘yicha baholangan. Baholanish natijalari 1-rasmida keltirilgan.



11-12 yoshdagi suzuvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini baholash natijalari

Tadqiqot oldi baholash suzuvchilarning texnik tayyorgarligini dastlabki bosqichda aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon ularning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatib beradi, shuningdek, individual rivojlanish dasturlarini yaratishga imkon beradi. Keyingi baholash esa sportchilarning vaqt o‘tishi bilan texnik ko‘nikmalarining qanday o‘zgarayotganini, rivojlanish darajasini kuzatishga yordam beradi. Bu tizim orqali murabbiylar yosh suzuvchilarni yanada samarali tayyorlashlari mumkin.

Xulosa. 11-12 yoshli suzuvchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirish mavzusi, sportchilarning kelajakdagi yuksak natijalarga erishishida muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagi suzuvchilarni texnik jihatdan rivojlantirish, nafaqat ularning musobaqalardagi muvaffaqiyatini ta‘minlash, balki sog‘lom va barqaror jismoniy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Yosh sportchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishda nafaqat suzish uslublarini to‘g‘ri bajarish, balki nafas olish, oyoqlar va qo‘llarning muvofiqligi, tananing pozitsiyasi va umumiy muvozanatni saqlash ham muhim omillardir. Texnik tayyorgarlikning takomillashtirilishi uchun mashg‘ulotlar tizimli va doimiy bo‘lishi kerak. Suzuvchilarga texnik ko‘nikmalarni o‘rgatishda zamonaviy metodikalarini qo‘llash, ularning jismoniy va ruhiy holatini doimiy ravishda baholab borish, shu bilan birga, yosh sportchilarni jamoaviy ruhda tarbiyalash lozim. Shuningdek, suzish sportida yosh suzuvchilarni musobaqalarga tayyorlashda texnikaga yuqori e‘tibor qaratish, ularni tanqidiy tahlil qilish va individual yondashuvlarni amalga oshirish zarur.



Umuman olganda, 11-12 yoshli suzuvchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni kelajakda yuqori natijalarga olib keladigan asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayon doimiy e’tibor va mehnatni talab qiladi, shuningdek, suzuvchining o’ziga bo’lgan ishonchini oshirishga hamda sportning yuqori darajasiga chiqishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анушкевич Н.В., Белик А.Е., Бартенева Л.М. Техника плавания способом баттерфляй и ее совершенствование у юных пловцов //Известия Тульского государственного университета. Физическая культура. Спорт. – 2020. – №. 3. – С. 74-80.
2. Аришин А.В. Совершенствование техники плавания кролем на груди у пловцов-подростков //Физическая культура, спорт-наука и практика. – 2016. – №. 3. – С. 3-6.
3. Болдырева В.Б., Кейно А.Ю. Совершенствование техники плавания юных спортсменов на этапе начальной подготовки //Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2014. – №. 12 (140). – С. 46-51.
4. Gayratovich S.A. et al. SUZISH SPORTIDA INNAVATSION TEXNIKALARNING QO'LLANISHI VA SAMARADORLIGI. – 2024.
5. Korbut V. M., Salimgareyeva R.R., Geyger A.I. Ko‘krakda krol usulida suzish texnikasini o‘rgatish va takomillashtirish uchun mashqlar to‘plami //T-2013. – 2013.
6. Tashtemirova L.X., Zoitova G.M. YOSH SUZUVCHILARNING KO‘KRAKDA KROLL SUZISH USULI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARINI PEDAGOGIK TAHLILI //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. 3. – С. 145-150.

8-10 YOSHLI BADIY GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Sobirova Laylo Baxromovna

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Astankulova Dilnur Furkat qizi

Stajyor oqituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

sobirovalaylo90@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada 8-10 yoshli badiiy gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish usullari orqali gimnastikachilarning mashg‘ulot davomida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlariga alohida e’tibor



qaratilgan. Bundan tashqari badiiy gimnastikachilarning maxsus jismoniy tayyorgarlikda koordinatsiya va egiluvchanlik qobiliyatlarini talab etadigan harakatlarni o'rganishida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Badiiy gimnastika, jismoniy tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, egiluvchanlik, chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, kuch, koordinatsiya, qobiliyat.

Аннотация: В статье особое внимание уделяется упражнениям общей и специальной физической подготовки гимнастов в процессе тренировок с помощью методов совершенствования физической подготовки 8-10-летних художественных гимнасток. Кроме того, были обсуждены проблемы, которые могут возникнуть при изучении движений, требующих координации и гибкости в специальной физической подготовке художественных гимнасток.

Ключевые слова: Художественная гимнастика, физическая подготовка, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, гибкость, ловкость, скорость, выносливость, сила, координация, способности.

Abstract: The article pays special attention to exercises of general and special physical training of gymnasts in the training process using methods for improving the physical training of 8-10-year-old artistic gymnasts. In addition, the problems that may arise when studying movements that require coordination and flexibility in the special physical training of artistic gymnasts were discussed.

Key words: Artistic gymnastics, physical training, general physical training, special physical training, flexibility, agility, speed, endurance, strength, coordination, abilities.

Kirish. Dunyoda va jahonda gimnastika eng rang barang sport turlaridan biri hisoblanadi, yani badiiy gimnastika mashqlarini musiqa ohangida nafislik bilan bajariladigan harakatlardan iborat bo'lib hisoblanadi. Badiiy gimnastika platformasida raqobatning kuchayishi egiluvchanlikning yuqori darajasiga ega bo'lgan va uni boshqa jismoniy fazilatlar bilan faol uyg'unlashtira oladigan sportchilarda ustuvorlik saqlanib qolishidan dalolat bermoqda. Shu sababli, badiiy gimnastikachilarning doimiy o'zgaruvchan sharoitlarida individuallashtirish va ularni ilg'or rivojlanish tamoyillariga asoslangan badiiy gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligiga yanada sifatli yondashish talab etiladi. Badiiy gimnastika harakatlarini simmetrik va egiluvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, buyumlar bilan mashqlarni bajarishda texnikasini o'zlashtirish mezonlarining o'zgaruvchanligi, barcha yoshdagi va darajadagi sportchilarning mahoratini oshirish tendentsiyasini, shuningdek, musobaqa qoidalarining sezilarli murakkabligini hisobga olgan holda, tananing murakkab motor harakatlari bilan bir vaqtda ob'ektni



boshqarish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, 8-10 yoshli badiiy gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning metodologik asoslarini yaratish tizimi yetarlicha ochib berilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: 8-10 yoshli badiiy gimnastikachilarning mashg‘ulot vaqtida jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish orqali gimnastikachi qizlarning musobaqada natijasini oshirish.

Tadqiqotning vazifalari: Yosh badiiy gimnastikachilar uchun umumiy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqishdan iborat;

Badiiy gimnastikachilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qollash orqali natijasini oshirishdan iborat;

Metodlar bo‘limi. Badiiy gimnastikada jismoniy tayyorgarlik tashkillashtirilgan jarayon bo‘lib, quyidagi maqsadlarga qaratilgan;

- shug‘ullanuvchilar organizmini har tomonlama rivojlantirish (tayanch-harakat apparati, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustaxkamlash, vegetativ va markaziy nerv tizimlari faoliyatini takomillashtirish);

- Salomatlikni mustahkamlash va mexnat layoqatini oshirish;

- Badiiy gimnastika mashqlari texnikasini o‘zlashtirish va ularni sifatli (talab darajasidagi amplituda (tebranish kengligi, xolatlar orasidagi masofa), tezlik va kuch bilan) bajarish uchun zarur bo‘lgan jismoniy hususiyatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik badiiy gimnastikachilarni organizmini har tomonlama rivojlantirishga, ularni sog‘ligini mustahkamlashga, harakat sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Jismoniy tayyorgarlik – umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlikka bo‘linadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik- bu inson faoliyatidan qat’iy nazar, umumiy tarzda amalga oshiriladigan jismoniy tayyorgarlikdir. Umumiy jismoniy tayyorgarlik orqali badiiy gimnastikachilarning jismoniy sifatlarini yani bunda kuch, chidamlilik, chaqqonlik, tezlik va egiluvchanlik sifatlarini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Bunda asosan badiiy gimnastikachilar mashqlarni bajarishda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish zarur.

1-jadval

Badiiy gimnastikachilarning egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi

Sifatlar	Me’yorlar	Ball
Egiluvchanlik: sonning harakatchanligi (bel va oyoq egiluvchanligi)	40 sm balandlikdagi tayanchdan orqaga egilgan holda ajrating 1 - yetakchi oyoq 2 - dominant bo‘lmagan oyoq	"5" - o‘ng va chap son bilan polga mahkam tekizish, ikkala qo‘l bilan "4" - poldan songacha 1-5 sm "3" - poldan son "2" gacha 6-10 sm. - faqat bir xil qo‘l bilan ushlash "1" - orqaga egilmasdan



Egiluvchanlik: sonning harakatchanligi(bel va oyoq egiluvchanligi)	Muvozanat bo'yicha balans. Qo'l, tanani vertikal tekislikda oldinga bo'linish 1 - yetakchi oyoq 2 - yetakchi bo'lmagan oyoq	"5" - tekis bo'lingan, baland "relevé" "4" - bo'linish uchun 2-6 sm, o'rtacha "relevé" "3" - ipga 7-12 sm, past "relevé" "2" - oyoq bo'ylab bo'lingan "1" - bo'linish yo'q, butun oyoq
Egiluvchanlik: sonning harakatchanligi (bel va oyoq egiluvchanligi)	Muvozanat bo'yicha balans. Qo'l, tanani vertikal tekislikda yontomonga 1 – yetakchi oyoq 2-yetakchi bo'lmagan oyoq	"5" - tekis bo'lingan, baland "relevé" "4" - bo'linishgacha 2-6 sm, o'rtacha "relevé" "3" - bo'linishgacha 7-12 sm, past "relevé" "2" - butun oyoqqa bo'linish "1" - bo'linish yo'q, butun oyoq

O'rtacha ball: 5,0-4,5 - egiluvchanlikni rivojlantirishning yuqori darajasi; 4,4-4,0 - o'rtachadan yuqori; 3,9-3,5 - egiluvchanlikni rivojlantirishning o'rtacha darajasi; 3,4-3,0 - o'rtachadan past; 2.9 va undan past - egiluvchanlikni rivojlantirishning past darajasi hisoblanadi.

Badiiy gimnastikada sport mahoratining yuqori darajasiga erishish uchun shug'ullanuvchilar o'rtasida egiluvchanlik sifatini rivojlantirish zarur. Egiluvchanlikni rivojlantirishda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Egiluvchanlikni yaxshilashga qaratilgan mashqlarning me'yori kichik, ammo mashqlar har bir mashg'ulotda tizimli ravishda olib bo'rilishi kerak.

Egiluvchanlikni rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta mashqlar to'plami saralangan va ketma-ket bajarilgan. Biz maksimal amplituda bilan bajarilishi mumkin bo'lgan cho'zilish mashqlaridan foydalandik. Mashg'ulotlar jarayonida faol, passiv va statik mashqlar qo'llanildi.

Natijalar bo'limi.

Badiiy gimnastikachilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi bu – maxsus tashkil etilgan jarayon bo'lib, jismoniy sifatlarni tarbiyalashga va mukammallashtirishga xizmat qiladi hamda badiiy gimnastika mashqlarini texnikasini muvaffaqiyatli bajarishga va uni takomillashtirishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi vaqtda 7 ta asosiy jismoniy qobiliyat ajratib ko'rsatiladi, ular quydagilar: koordinatsiya, egiluvchanlik, kuch, tezlik, sakrovchanlik, muvozanat, chidamlilikdan iborat.

Badiiy gimnastika ko'p qiralli sport turi bolib, undagi turli mashqlar har xil jismoniy qobiliyatlar va ularni namayon qilishning turli darajalarini talab qiladi. Bular orasida faqatgina 2 ta qobiliyat – koordinatsiya va egiluvchanlikni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.



1-rasm

Koordinatsiya va chaqqonlikni rivojlantirish vositalari



Munozara bo‘limi.

Badiiy gimnastikada dinamik, mahoratli va raqs qadamlari asosiy va murakkab elementlar bo‘lib hisoblanadi. Ushbu rasmda keltirilgan mashqlarda badiiy gimnastikachilarning mushaklarini bo‘shashtirishga qaratilgan mashqlar, reaksiya tezligiga qaratilgan mashqlar, tananing turli qismlari bilan amalga oshiriladigan harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan mashqlar; harakatlarni zamon, makon va kuch parametrlari bo‘yicha aniq bajarishga qaratilgan mashqlar, buyumlar bilan bajariladigan mashqlar, akrobatik mashqlar, g‘ayrioddiy harakatlar bilan boyitilgan o‘yinlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa.

8-10 yoshli badiiy gimnastikachilarning mashg‘ulot davomida jismoniy tayyorgarlikning o‘ziga xos jixati shundan iboratki, bunda mashqlarning maqsadi harakatlarning mutloq uyg‘unligiga erishishdan iborat bo‘ladi. Yuksak natijalar yuqorida sanab o‘tilgan jismoniy qobiliyatlardan birining mutloq ko‘rsatkichlari bilan emas, balki harakatlarning turli tomonlari o‘rtasidagi o‘zaro mutanosib bog‘liqlik bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Цепелевич, И.В. Сопряженное развитие физических способностей на этапе углубленной подготовки в художественной гимнастике: автореф. дис. ... канд. пед. наук / И.В. Цепелевич. - СПб., 2007. - 24 с.
2. Чертихина, Н.А. Комплексное развитие вестибулярной устойчивости в художественной гимнастике на этапе начальной подготовки: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Н.А. Чертихина. - Волгоград, 2013. - 24 с.



3. Чикалова, Г.А. Техника и методика обучения базовым бросковым упражнениям с обручем в художественной гимнастике: учебно-методическое пособие / Г.А. Чикалова, В.И. Мамзин. – Волгоград: ВГАФК, 2002. – 25 с.

4. Шишковска, М. Оценка компонентов исполнительского мастерства в художественной гимнастике: дис. ... канд. пед. наук / Шишковска Мария. - СПб., 2012.-202 с.

5. Эштаев А.К. «Структура и распределение средств тренировки гимнастов 6-9 лет на начальном этапе подготовки» Дисс. канд. пед. наук.- Т.: УЗГИФ К, 2007. - 187 с.

SWIMMING EXERCISES: HEALTH AND FIGURE PREVENTION IN CHILDREN

Beknazarova Charos

Magistr

Karshi State University

charoska_beknazarova@mail.ru

Abstract: This article says that children have a significantly higher incidence of the musculoskeletal system and connective tissue. Posture disorders can lead to illness if they are not prevented in a timely manner, and swimming is one of the most effective means of preventing posture at an early age

Key words: preschool age period, posture disorders, swimming training, a set of swimming exercises.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda skelet-muskul tizimi va biriktiruvchi to'qima kasalliklari bilan kasallanish darajasi ancha yuqoriligi aniqlanganligi, qad-qomatni buzilishining o'z vaqtida oldi olinmasa kasallikka olib kelishi mumkinligi, suzish mashg'ulotlari esa erta yoshda qad-qomat buzilishining oldini olishning samarali vositalaridan biri ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh davri, qad-qomatning buzilishi, suzish mashg'ulotlari, suzish mashqlari majmuasi.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что у детей значительно выше заболеваемость скелетно-мышечной системы и соединительной ткани. Нарушения осанки могут привести к заболеванию, если не предотвратить их своевременно, а занятия плаванием являются одним из эффективных средств профилактики осанки в раннем возрасте.

Ключевые слова: дошкольный возрастной период, нарушения осанки, тренировки по плаванию, комплекс упражнений по плаванию.



The integration of digital technologies with pedagogical diagnostics offers a powerful approach to developing professional-gnostic competence. Digital tools can automate diagnostic processes, provide real-time feedback, and facilitate data-driven decision-making for continuous improvement. For instance, AI-driven analytics can track teaching effectiveness, while online assessment tools can provide instant insights into instructional methods. Additionally, digital learning platforms support microlearning and personalized professional development, making it easier for educators to refine their skills.

Conclusion. Thus, the development of professional-gnostic competence in future teachers is a crucial component of teacher training, ensuring their ability to engage in analytical, reflective, and research-oriented pedagogical practices. The methods employed in fostering this competence include problem-based learning, interactive teaching strategies, project-based assignments, and digital pedagogical tools. These approaches enhance critical thinking, adaptive problem-solving skills, and professional self-awareness, enabling future educators to navigate the complexities of the modern educational environment effectively. Moreover, professional-gnostic competence is strengthened through interdisciplinary



integration, collaboration, and continuous self-improvement. The implementation of reflective practices, case studies, and real-world teaching simulations further solidifies teachers' ability to assess, adapt, and innovate within their professional roles. As educational standards evolve, the enhancement of professional-gnostic competence remains essential for ensuring high-quality instruction and fostering lifelong learning habits among educators.

References:

1. Allen, D. W., & Ryan, K. (1969). Microteaching. Addison-Wesley.
2. Barrows, H. S. (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. *Medical Education*, 20(6), 481-486.
3. Collins, A., & Halverson, R. (2009). Rethinking education in the age of technology: The digital revolution and schooling in America. Teachers College Press.
4. Levin, B. B., & Rock, T. C. (2003). The effects of collaborative action research on preservice and experienced teacher partners in professional development schools. *Journal of Teacher Education*, 54(2), 135-149.
5. Merseth, K. K. (1991). The case for cases in teacher education. American Association of Colleges for Teacher Education.
6. Schön, D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.
7. Wang, J., & Odell, S. J. (2002). Mentored learning to teach according to standards-based reform: A critical review. *Review of Educational Research*, 72(3), 481-546.
8. Сарсенбаева З. Modernism in Uzbek literature and interpretation of images //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 193-199.
9. Сарсенбаева З. и др. СЛОВЕСНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ИДИОМАХ НА АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ //СТУДЕНТ ГОДА 2018. – 2018. – С. 146-148.
10. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Sprachliche analyse von sprichworten. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences
11. Сарсенбаева З. Лингвокультурологический анализ культуры каракалпаков в пословицах //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 8/S. – С. 39-42.
12. Shulman, L. S. (1986). "Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching." *Educational Researcher*, 15(2), 4-14.
13. Darling-Hammond, L., & Bransford, J. (2005). Preparing Teachers for a Changing World: What Teachers Should Learn and Be Able to Do. Jossey-Bass.



14. Zeichner, K., & Liston, D. (2013). Reflective Teaching: An Introduction. Routledge.
15. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
16. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). "Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge." Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
17. Dewey, J. (1933). How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. D.C. Heath & Co.

GIMNASTIKACHILARDA KOORDINATSIYA VA HARAKAT ANIQLIGI: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

T.A.Djumaniyazova

Katta o'qituvchi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

M.B.Xojamberganova

Talaba

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

L.R. Kungratbaeva

Talaba

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

t.djumaniyazova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gimnastikachilarda koordinatsiya va harakat aniqligi ko'rsatkichlarini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda yosh sportchilarning mashg'ulot jarayonidagi harakatlarni muvofiqlashtirish, texnik aniqlik va psixomotorik funksiyalarini takomillashtirish maqsadida bosqichma-bosqich yondashuvlar qo'llanilgan. Tajriba natijalari ushbu uslubning samaradorligini ko'rsatdi va amaliyotda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: gimnastika, koordinatsiya, harakat aniqligi, pedagogik yondashuv, texnik tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрено значение педагогических подходов в развитии координации и точности движений у гимнастов. В исследовании использованы поэтапные методы для совершенствования психомоторных навыков, координации и технической подготовки молодых спортсменов. Результаты эксперимента подтверждают эффективность таких подходов и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: гимнастика, координация, точность движений, педагогический подход, техническая подготовка.



Abstract: *This article highlights the significance of pedagogical approaches in developing coordination and movement accuracy in gymnasts. The study applied a step-by-step methodology to improve young athletes' psychomotor skills, movement precision, and technical readiness. The results of the experiment confirmed the effectiveness of these approaches and practical recommendations were formulated for application in training.*

Key words: *gymnastics, coordination, movement accuracy, pedagogical approach, technical preparation.*

Kirish. Gimnastika sporti insonning jismoniy, psixologik va estetik rivojlanishiga xizmat qiluvchi ko'p qirrali faoliyat turi bo'lib, ayniqsa yosh sportchilar uchun bu yo'nalish sog'lom turmush tarzining asosi, irodaviy fazilatlar shakllanishining manbai bo'lib xizmat qiladi. Gimnastika mashg'ulotlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishish ko'p jihatdan sportchining harakat koordinatsiyasi va aniqligiga bog'liq bo'lib, bu ikki omil sport texnikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ayniqsa, koordinatsion qobiliyatlarning yuqori darajada shakllanishi sportchining murakkab harakatlarni aniq, ritmik va muvozanatli bajarishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda sport psixologiyasi va pedagogikasida koordinatsiya hamda harakat aniqligi tushunchalari keng miqyosda o'rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harakatlar aniqligi faqatgina mushak faoliyati emas, balki markaziy asab tizimi va sezgi organlarining uyg'un faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Aynan shu omil sportchilarni tayyorlashda kompleks pedagogik yondashuv zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, har bir sportchi individual imkoniyatlarga ega bo'lgani uchun, unga nisbatan qo'llaniladigan metodikalar ham shaxsiylashtirilgan bo'lishi zarur. Bu holat murabbiylardan yuqori malaka, sportchining rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushunish va mos pedagogik vositalarni tanlashni talab etadi.

Koordinatsion harakatlar, ayniqsa, yosh gimnastikachilarda hali to'liq shakllanmagan bo'lishi mumkin. Shu boisdan, harakatlarni aniqlik bilan bajara olish — bu nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasiga, balki sportchining harakatlarni idrok etish, tez moslashish va o'z holatini nazorat qilish qobiliyatiga ham bog'liq. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, gimnastika mashg'ulotlarida harakatlar aniqligi va koordinatsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar sportchilarning umumiy jismoniy va texnik tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shuningdek, texnik-taktik tayyorgarlik bosqichlarida pedagogik nazorat, tahliliy yondashuv, differensial mashg'ulot usullari, vizual va kinestetik turtki vositalaridan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu borada o'qituvchi-murabbiylarning nazariy bilimlari va amaliy tajribasi muhim o'rin egallaydi. Pedagogik yondashuvlar sportchilarning faolligini oshirish, o'ziga



bo‘lgan ishonchini shakllantirish, tafakkur va anglash darajasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, gimnastikachilarda koordinatsiya va harakat aniqligini shakllantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar hanuzgacha yetarlicha tizimli asosda ishlab chiqilmagan. Shu sababli, bu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlar, ayniqsa yosh sportchilarni samarali tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda gimnastikachilarning koordinatsiya va harakat aniqligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy, ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi, ularning samaradorligi eksperimental jihatdan sinovdan o‘tkaziladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqotda gimnastikachilarning koordinatsiya va harakat aniqligi darajasini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsad qilingan bo‘lib, tajriba-sinov yo‘li bilan olib borildi. Ishtirokchilar 10–12 yoshdagi 40 nafar sportchi gimnastikachilardan iborat bo‘lib, ular teng ikki guruhga — tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Har ikki guruhga dastlabki tahlil o‘tkazilib, koordinatsion va aniqlik ko‘rsatkichlari belgilandi. Tajriba guruhi bilan 3 oy davomida maxsus pedagogik dastur asosida mashg‘ulotlar olib borildi, nazorat guruhi esa an‘anaviy mashg‘ulotlarni davom ettirdi.

Mashg‘ulotlar haftasiga uch marta, har safar 60 daqiqa davomida olib borildi. Dasturda sportchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos individual va diferensial yondashuvlar, ko‘rgazmali o‘rgatish metodlari, vizual va kinestetik stimullar orqali koordinatsiyani rivojlantiruvchi mashqlar, muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi topshiriqlar, hamda harakat aniqligini oshiruvchi dinamik drill mashqlar qo‘llanildi. Mashg‘ulotlarda texnik vositalar yordamida muvozanatni saqlash, tezlik, harakat aniqligi sinovlari va o‘z-o‘zini baholash bo‘yicha savolnomalar ishlatildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar statistik tahlil qilindi va guruhlar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlanib, qo‘llanilgan pedagogik yondashuvlarning ijobiy ta’siri tasdiqlandi.

Natijalar.

Tadqiqot davomida gimnastikachilarning koordinatsiya va harakat aniqligi darajalarini aniqlash maqsadida dastlabki va yakuniy testlar o‘tkazildi. Tajriba guruhi bilan 3 oy davomida olib borilgan pedagogik yondashuvlar asosidagi mashg‘ulotlar yakunida koordinatsion ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘sish kuzatildi (1-grafik). Jumladan, muvozanatni saqlash, harakat yo‘nalishini aniq bajara olish, vizual-reaksion tezlik va kinestetik sezuvchanlik kabi mezonlar bo‘yicha natijalar ijobiy tomonga o‘zgardi.

Dastlabki bosqichda har ikki guruh sportchilari o‘rtasidagi koordinatsiya va aniqlik darajalari deyarli teng bo‘lgan bo‘lsa, yakuniy natijalarda tajriba guruhida muvozanatni ushlash testi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 18% ga, harakat aniqligi




22% ga, reaksiya tezligi esa 16% ga oshganligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa bu o'zgarishlar deyarli ahamiyatli darajada bo'lmagan.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, t-test orqali guruhlar o'rtasidagi farq $p < 0.05$ darajada ishonchli deb topildi. Bu esa tadqiqotda qo'llanilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Sportchilarning o'z-o'zini baholash natijalari ham shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi ishtirokchilari o'z harakatlarini aniqroq va ishonch bilan bajarishganini bildirganlar.

Ushbu natijalar pedagogik yondashuvlar, xususan individual va differensial metodlarning, koordinatsiya va harakat aniqligini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'la oladi.

1-grafik



Koordinatsiya va harakat aniqligi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlar natijalarining taqqoslanishi

Grafikda quyidagi ko'rsatkichlar aks ettirilgan:

- Muvozanatni saqlash (%)
- Harakat aniqligi (%)
- Reaksiya tezligi (%)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (boshlang'ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlang'ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Muvozanatni saqlash	62%	80%	63%	65%
Harakat aniqligi	58%	80%	59%	60%
Reaksiya tezligi	61%	77%	60%	62%

Muhokama.

Tadqiqot natijalari gimnastikachilarda koordinatsiya va harakat aniqligini rivojlantirishda ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ochib berdi. Tajriba guruhi ishtirokchilarining sezilarli natijalar ko'rsatganligi,



ayniqsa muvozanatni saqlash, harakatni aniqlik bilan bajarish va reaksiya tezligi bo'yicha o'sishlar, qo'llanilgan metodikalar to'g'ri tanlanganligini ko'rsatadi.

Ushbu metodik yondashuvlarda individual va differensial yondashuvlar, koordinatsion mashqlar, vizual va kinestetik sezgirlikni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar asosiy o'rin egalladi. Bunday mashqlar sportchilarning faolligini oshirib, psixomotor holatini mustahkamlab, harakatlarni muvofiqlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, trenerning sportchilarga doimiy tahliliy fikr bildirishi va mashg'ulot jarayoniga reflektiv yondashuvi motivatsiyani oshirgan.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, koordinatsiya ko'nikmalarining rivojlanishi faqatgina jismoniy tayyorgarlik bilan emas, balki psixologik barqarorlik, o'z-o'zini anglash va o'z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyatlari bilan ham bevosita bog'liq. Bunday yondashuvlar sportchilarning o'z qobiliyatlariga nisbatan ishonchini mustahkamlab, musobaqaviy holatlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar boshqa ilmiy ishlanmalar bilan taqqoslanganda mos keladi. Masalan, koordinatsion qobiliyatlarning sportdagi muhimligini ko'rsatgan xorijiy tadqiqotlar ham pedagogik ta'sir orqali bu ko'nikmalarni samarali rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan. Shunday qilib, bu tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar amaliy jihatdan tavsiya etishga arzigulik bo'lib, jismoniy tarbiya tizimida keng qo'llanilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gimnastikachilarda koordinatsiya va harakat aniqligini rivojlantirishda ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba guruhi sportchilarida muvozanat, harakat aniqligi va reaksiya tezligida kuzatilgan sezilarli ijobiy o'zgarishlar mazkur metodik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Mashg'ulotlarda individual yondashuv, koordinatsion murakkab mashqlar, reflektiv tahlil va motivatsion qo'llab-quvvatlash asosida shakllantirilgan metodika orqali sportchilarning umumiy harakat madaniyati yuksaldi. Bu esa musobaqaviy faoliyatda aniq, samarali va o'ziga ishongan harakatlarni amalga oshirish imkonini berdi. Tadqiqot asosida quyidagicha takliflar ilgari surildi: gimnastika mashg'ulotlarida koordinatsiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar kompleksidan doimiy foydalanish, sportchilarning harakat tahlilini olib boruvchi individual kuzatuv tizimini joriy etish, hamda trenerlar malakasini oshirish orqali ularning psixomotor yondashuvlarni chuqur anglashini ta'minlash. Ushbu takliflar nafaqat samarali pedagogik amaliyotga, balki sportchilarni musobaqalarga puxta tayyorlash tizimining takomillashtirilishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ашмарин, Б.А. (2002). *Теория и методика физического воспитания*. Москва: Просвещение.
2. Jamoliddinov I.I. (2018). Sportchilar harakat koordinatsiyasi va aniqligini shakllantirish metodikasi. *Jismoniy tarbiya va sport ilmiy jurnali*, №2, 45–50.



3. Bompa T. (2009). *Periodization: Theory and Methodology of Training*. Human Kinetics.
4. Yuldashev A. (2021). Sportchilarda psixomotor rivojlanishni baholash usullari. *O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport ilmiy-amaliy jurnali*, №4, 17–21.
5. Davletov R. (2020). Harakat koordinatsiyasining o‘quv jarayonidagi ahamiyati. *Pedagogika va sport ilmiy-amaliy jurnali*, №3, 35–39.
6. Schmidt R.A., & Wrisberg, C.A. (2008). *Motor Learning and Performance*. Human Kinetics.
7. Матвиенко Д. (2016). Координационные способности в подготовке гимнастов. *Спорт и наука*, №1, 29–33.
8. Карпман В.Л. (2003). *Физиология спортивной деятельности*. Москва: Медицина.
9. Abdullaeva M. (2019). Gimnastika mashg‘ulotlarida harakat aniqligini oshirish yo‘llari. *Ilm va sport*, №2, 22–26.
10. Аношкин В.А. (2001). *Методика спортивной тренировки*. Москва: Физкультура и спорт

UMUMTA’LIM MAKTAB RAHBARLARINING BOSHQARUV KO’NIKMALARINI TAYM-MENEJMENT YONDASHUVI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Bekniyazov Bayrambay Saparbaevich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
b.s.bekniyazov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy maktab rahbarlarining funktsional vazifalari va boshqaruv faoliyati samaradorligi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi strategik boshqaruv va rejalashtirish, boshqaruv algoritmi, boshqaruvda mehnat munosabatlari etikasi, rahbarning ish vaqti va undan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktab rahbari, rahbarning ish vaqti, boshqaruv algoritmi, funktsional vazifalari, boshqaruv faoliyati, strategik boshqaruv, rejalashtirish

Аннотация: В статье рассматриваются функциональные задачи современных школьных руководителей и эффективность управленческой деятельности, стратегическое управление и планирование в общеобразовательных средних учебных заведениях, алгоритм управления, этика трудовых отношений в управлении, рабочее время руководителя и его использование.



Ключевые слова: директор школы, рабочее время руководителя, алгоритм управления, функциональные задачи, управленческая деятельность, стратегическое управление, планирование.

Abstract: The article discusses the functional tasks of modern school leaders and the effectiveness of management activities, strategic management and planning in secondary schools, management algorithm, labor ethics in management, the manager's working time and its use.

Key words: school director, director's working hours, management algorithm, functional tasks, management activities, strategic management, planning.

Kirish. Vaqtni boshqarish ta'lim sohasidagi barcha manfaatdor tomonlar uchun bir xil darajada muhimdir. Umumta'lim maktab direktorlarining roli va mas'uliyati ko'p yo'nalishli bo'lib, ushbu rol va mas'uliyatni samarali bajarish uchun vaqtni samarali boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi. Xalqqa sifatli ta'lim berish davlatning asosiy vazifasidir. Bugungi kunda sifatli ta'lim va ta'lim bilan bog'liq muammolar butun dunyo bo'ylab tadqiqotning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Sifatli ta'limga erishish uchun asosiy to'siqlardan biri bu vaqt etishmasligi muammosidir. Bu maqsadga erishishda maktab direktorining rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Maktab direktorlari maktabda sifatli ta'limni tashkil qilish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash uchun mas'uldirlar. Buning uchun ular o'z shaxsiy va ish vaqtlarini yanada samarali boshqarishlari kerak bo'ladi. Taym-menejment bilan bog'liq tadqiqotlarning aksariyati talabalar va ularning o'quv natijalari, xususan, ularning o'quv yutuqlari va akademik faoliyati bo'yicha olib borilgan [1, 17-b].

Maktab direktorlari o'qituvchilar va jamiyat talablari bilan ishlashda muammolarga duch kelishadi, ammo bu muammolarga tadqiqotchilar milliy va xalqaro darajada kam e'tibor berishgan. Ta'lim menejmenti sohasida cheklangan tadqiqotlar maktab direktorlari tomonidan maktabda vaqtdan foydalanish va o'z vaqtlarini qanday boshqarishlarini o'rgandilar. Bugungi kunda xalqaro va milliy darajada maktab direktorlarining jamiyat oldidagi ma'suliyati har qachongidan ortib bormoqda. Shu sababli, umumta'lim maktab direktorlari ish vaqtlaridan qanday foydalanishlari va maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar uchun vaqtlarini qanday boshqarishlari kerakligini o'rganish zarur. Taym-menejment ehtiyojlar to'g'risida qaror qabul qilish, ehtiyojlarga erishish uchun real maqsadlarni belgilash, ehtiyojlarni birinchi o'ringa qo'yish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun kerakli vazifalarni diqqat bilan rejalashtirish bilan bog'liq. Shunday qilib, ishonch bilan aytish mumkinki, vaqt nazorat qilinadigan yoki boshqariladigan narsa emas, balki o'zini o'zi boshqaradigan yoki nazorat qiladigan shaxsning o'zidir. Taym-menejmentning ba'zi strategiyalari mavjud bo'lib, ular maktab rahbarlarining tashkiliy maqsadlarga erishish uchun ham foydalidir. Bularga qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, samarali rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash,



yig'ilishlarni boshqarish, vakolatlarni topshirish va aralashuvlarni bartaraf etishlar kiradi. Umumta'lim maktabi rahbarlarning ish yuki va mas'uliyati ortib borayotganligi sababli, taym-menejment texnologiyasi yuqori samaradorlikka erishish uchun tashkiliy boshqaruvning hal qiluvchi omiliga aylanadi [3, 25-b].

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Zamonaviy G'arb biznes konsaltingida taym-menejmentdan foydalanishga misol sifatida Stiven Kovining 1990 yildagi eng ko'p sotilgan “Yuqori samarali odamlarning 7 odati” kitobini aytish mumkin. Kovi o'z kitobida ikki bosqichda shaxsiy kamolotga (etuklikka) erishishning yaxlit konsepsiyasini taklif qiladi: qaramlikdan mustaqillikka (“shaxsiy g'alaba”), mustaqillikdan ongli o'zaro bog'liqlikgacha (“ijtimoiy g'alaba”). Odat - bu shaxsiy kamolotga va insonning yuksak samaradorligiga erishishga yordam beradigan bilim, ko'nikma va intilishlarning birligi sifatida aniqlanadi [4, 49-b].

Qarorlar va vazifalarni ustuvorlashtirish uchun standart vosita bo'lgan “Eyzexauer matritsasi”ni hisobga olgan holda, Kovi taym-menejmentning asosiy vazifasi matritsaning “ikkinchi kvadrati uchun kurash” bo'lishi kerak, deb hisoblaydi (ikkinchi kvadrat: “muhim bo'lgan narsalar”, lekin “shoshilinch emas”). Aynan “ikkinchi kvadrat” ga xos bo'lgan faoliyat turlari “insonni shaxsga aylantiradi”, uning ichki imkoniyatlarini ochib beradi, unga mustahkam munosabatlar o'rnatishga va hayotidagi eng muhim maqsadlarga erishishga imkon beradi (“natijalar”).

Eyzexauer matritsasining boshqa kvadratlarida lokalizatsiya qilingan faoliyat odamning har doim “boshqa odamlarning ishlari” bilan band bo'lishiga yoki jiddiy psixologik muammolarga (doimiy stress va boshqalar) olib keladi. Doimiy shoshilinch bosim va yoki “mayda bema'nilik” (doimiy ahamiyatsiz narsalar bilan band bo'lish) ham odamni boshqa odamlar bilan to'liq va chuqur muloqot qilish imkoniyatidan mahrum qiladi [5, 37-b].

Kovi metodologiyasidan foydalanib, biz “ikkinchi kvadrat uchun kurashda” yordam beradigan taym-menejment tizimini yaratish uchun oltita tamoyilni taklif qilishimiz mumkin:

1) izchillik (mos keluvchilik) - individual taym-menejment tizimining barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi, birligi (Kovi bo'yicha: ko'rish va missiya, rollar va maqsadlar, ustuvorliklar va rejalar, istaklar va intizom o'rtasidagi birlik);

2) muvozanat - bu holda “muvozanat” hayotning turli sohalarida (oilasi, ish, sog'liq va boshqalar) muhim maqsadlarga erishish uchun etarli bo'lishi uchun vaqtni uyg'un taqsimlashni anglatadi;

3) konsentratsiya - siz doimo “ikkinchi kvadrat” faoliyat turlarining hayotingiz uchun muhim ahamiyatini eslab qolishingiz va birinchi navbatda shu kabi masalalarga e'tibor qaratishingiz kerak. Buning uchun Kovi e'tiborni kunlik rejalashtirishga emas (bu uchinchi “to'lqin” taym-menejmentga xos), balki haftalik rejalashtirishga qaratishni taklif qiladi. Haftalik rejalashtirish muhim, shoshilinch



bo‘lmagan ishlar uchun juda katta vaqtni (yarim kun - bir kun) zaxiralash imkonini beradi;

4) insonparvarlik - boshqa odamlar bilan munosabatlarda uchinchi “to‘lqin”ning taym-menejment jadval va bo‘ysunishdagi “aniqlik”ga qaratilgan. To‘rtinchi avlod taym-menejment uchun “samaradorlik”, “marosimlarga” rioya qilishdan ko‘ra muhimroqdir. Agar odam bilan muloqotingiz jadvalda belgilangan chegaralardan tashqariga chiqsa, lekin ayni paytda chuqur va qoniqarli munosabatlar o‘rnatishga yordam bersa, o‘zingizni aybdor his qilmasligingiz kerak;

5) moslashuvchanlik - sizning rejalaringsiz sizning xo‘jayinlaringiz emas, balki sizning xizmatkorlaringizdir! Rejalar siz uchun qulay bo‘lishi, odatlaringizga, ish uslubingizga va hokazolarga mos kelishi kerak. Agar kerak bo‘lsa, rejalashtirilgan narsalarni osongina o‘zgartirishingiz mumkin;

6) ixchamlik - rejalashtirish va taym-menejment vositalari (masalan, tashkilotchi) iloji boricha ixcham va har qanday “dala” sharoitida ishlash uchun qulay bo‘lishi kerak. Bunday portativlik sizga bitta muhim g‘oyani o‘z vaqtida qo‘lga kiritib, yo‘qotmaslikka yordam beradi [4, 77-b].

Natijalar. Kovining taym-menejment tizimi ikki bo‘limdan iborat: strategik uzoq muddatli rejalashtirish va haftalik qisqa muddatli rejalashtirish.

Uzoq muddatli rejalashtirish quyidagi zanjirda rivojlanadi: shaxsning individual “missiyasi” - rollar - maqsadlar.

Qisqa muddatli rejalashtirish quyidagicha taqdim etiladi: joriy rollar - vazifalar - haftalik reja - reja va taqsimotlarning kunlik bajarilishi.

Zamonaviy xorijiy taym-menejment uchta tendentsiya bilan tavsiflanganligini aniqlash mumkin: “insoniylashtirish”, “differentsialash”, “kompyuterlashtirish”.

Hayotiy faoliyatni tashkil etishning asosi sifatida vaqt omilini har tomonlama ko‘rib chiqish qabul qilingan ustuvorliklar bo‘yicha vaqt sarfini doimiy ravishda tahlil qilish va kuzatib borish vazifasini qo‘yadi. Vaqtinchalik yo‘qotishlarni tahlil qilish menejning boshqaruv faoliyatining turli bosqichlarida sodir bo‘lishi mumkin. Taym-menejment jarayonining bosqichlari bo‘yicha vaqtni yo‘qotishning eng tipik tuzilishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Bosqichlar	Menejer faoliyati jarayonida bosqichlar bo‘yicha vaqtni yo‘qotish
1-bosqich: maqsadni belgilash.	Asosiy sabablar: faoliyat davrining barcha vazifalarini (kun, hafta, dekada, oy va boshqalar) tizimli ko‘rib chiqish jarayonida aks ettirish; o‘z ishi va butun korxona faoliyati o‘rtasidagi munosabatni etarli darajada tushunmaslik; ko‘rib chiqish uchun qabul qilingan ishlar va hodisalarning keng doirasi; hal qilinayotgan haddan tashqari ko‘p echimlar/hodisalar, ko‘pincha bog‘liq bo‘lmagan muammolar; bo‘ysunuvchilarni maqsadga yo‘naltirilgan boshqarishni rivojlantirish va individual topshiriqlarni tayyorlash uchun katta vaqt talab qilinishi; topshiriqlarning bajarilishini baholash va monitoring qilish mezonlarini ishlab chiqish, ularni faoliyatning o‘zgaruvchan yo‘nalishiga muvofiq tuzatish; muntazam ravishda o‘z ustida ishlash zarurati: boshqaruv nuqtai nazarini, yangi g‘oyalarni rivojlantirish, bilimlarni chuqurlashtirish, malakani oshirish.



2-bosqich: vaqtni rejalashtirish	Sabablari: mavjud vaqtni noto‘g‘ri baholash; zaif “vaqt hissi”, ya’ni bajarilishi kerak bo‘lgan jarayonlar va vazifalarning davomiyligini ifodalash; jarayonlar, operatsiyalar, bosqichlar, protseduralar o‘rtasida vaqt byudjetining etarli darajada samarali taqsimlanmaganligi; vaziyatlar va jarayonlarning inqirozdan oldingi, inqirozli, inqirozdan keyingi belgilarini yomon bilish va ifodalash; ishlarni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga (inqirozlarga) etarlicha tayyorgarlik ko‘rmaslik; kutilmagan hodisalar, inqirozlar yoki uzilishlar uchun vaqt ajratish amaliyotining yo‘qligi; asosiy ishga xalaqit bermaslik uchun aralashuvga qarshi choralar ko‘rishning yo‘qligi (yetarli tajribaning etishmasligi); ko‘p sonli ish tashriflari yoki xizmat safarlarini rejalashtirish; yozuvlarni yuritish va muddatlarni, vazifalarni va ularni yechishdagi faoliyatni xronometraj jurnalida qayd etish amaliyotning yo‘qligi; 24 soatlik jadval ishlar bajarilishini ta’minlamaydi (yomon rejalashtirish).
3-bosqich: yechimlarni ishlab chiqish	Sabablari: kelgusi ishni baholashda amaliyotning etishmasligi, ya’ni bu vaqt ajratishga arziydimi? bajariladigan ishlarga yetarlicha real baho bermaslik; ishlarning ahamiyatiga qarab birinchi o‘ringa qo‘yish amaliyotining yo‘qligi; ishlarning ahamiyatiga ko‘ra samarali ustuvorligining etarli emasligi; ularning qiymatiga ko‘ra to‘g‘ri vaqtni baholashga sezgirligi pastligi (muhimligi va dolzarbligi), uzoq telefon suhbatlari amaliyoti; tashrif buyuruvchilarni rejadan tashqari qabul qilish yoki jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmagan uchrashuvlar amaliyoti; ortiqcha vaqtni behuda sarflash va kichik, ahamiyatsiz narsalarga e’tibor berish; oddiy ishlarga ortiqcha vaqt sarflash; qarorlar qabul qilish yoki vazifalarni bajarish uchun batafsil ma’lumotga ko‘p vaqt sarflash, shu bilan birga muhimroq va shoshilinch ishlarni bajarish kerakligini bilish; vazifalar orasida ortiqcha vaqtni behuda sarflash.
4-bosqich: ishni tashkil etish	Sabablari: bitta muammo ustida ishlashda ortiqcha vaqtni behuda sarflash, natijada samaradorlik past bo‘ladi; hamma narsani mustaqil, vakolatsiz bajarishga moyillik; belgilangan vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan xodimlarning etishmasligi; ish stoli doimo qog‘ozlar bilan to‘ldirilgan; ishni osonlashtiradigan zamonaviy yordam vositalaridan noto‘g‘ri foydalanish; o‘z faoliyat sohasidagi ishni tizimli soddalashtirish uchun echimlar/g‘oyalarni doimiy ravishda izlash; muayyan ish sharoitida muammolarning muntazam takrorlanishi.



5-bosqich: Ishning boshlanishi	Sabablari: kelgusi ish kuni uchun tadbirlarni rejalashtirishda amaliyotning etishmasligi; ishni boshlashdan oldin hamkasblar bilan suhbatlashish odati; ish kunini shaxsiy masalalarni hal qilishdan boshlash an'anasi; kun boshida gazeta o'qish an'anasi; har bir ishning boshida kayfiyat uchun ma'lum vaqt sarflash an'anasi; har bir ishni o'ylab ko'rishdan oldin o'z-o'zidan boshlang; o'z ish faoliyatimga puxta tayyorgarlik ko'rish, shuning uchun ko'p vaqt talab qiladigan amaliyot; ko'pincha muhim narsalarni kechiktirish amaliyoti; qiyin muammolar yoki vazifalarni faqat ish kunining o'rtasida hal qilish amaliyoti; qiyin muammolar yoki vazifalarni faqat ish kuni oxirida hal qilish amaliyoti; boshlagan ishni oxirigacha etkazmaslik odati.
6-bosqich: kun tartibini yaratish	Sabablari: haqiqiy shaxsiy ish ritmini yomon idrok etish; o'zining haqiqiy holatini yomon idrok etish / ishda (ertalab yoki kechqurun) yuqori mahsuldorlikka tayyorligi; o'z ish kunining mehnat unumdorligi ritmiga muvofiqligini tahlil qilishga e'tibor bermaslik; o'z ish kuni jadvali va unumdorlik ritmi o'rtasidagi nomuvofiqliklar; o'z ish kuni va unumdorlik ritmi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish yo'llarini topish; o'z ish kuni jadvali va unumdorlik ritmi o'rtasidagi tafovutga e'tibor bermaslik; ishlab chiqarish qobiliyatlaridan to'liq foydalanish uchun muhim vazifalarni bajarish uchun qulay vaqtlarni rejalashtirishga e'tibor bermaslik; mahsuldorlikning eng yuqori soatlarida muntazam ishlarni, bog'liq bo'lmagan masalalarni yoki ahamiyatsiz muammolarni bajarishning o'rnatilgan amaliyoti.
7-bosqich: axborotni qayta ishlash	Sabablari: o'qish materiallarini uning ahamiyatini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan va ko'p vaqt talab qiladiganini tanlash; “asosiy g'oyani olish uchun chop etilgan ma'lumotlarni oldindan ko'rib chiqish, so'ngra nashrning muhim joylariga chuqurroq nazar tashlash; telefon suhbatini, to'g'ridan-to'g'ri suhbatni yoki uchrashuvni tugatish amaliyoti, agar davom etish befoyda bo'lsa; kuch va vaqtni behuda sarflamaslik uchun suhbatdoshlar va o'zlarining suhbatlari maqsadini tekshirish amaliyoti; kuch va vaqtni behuda sarflamaslik uchun suhbatdoshlar va o'zlarining suhbatlari maqsadini tekshirishga e'tibor bermaslik amaliyoti; oddiy yoki batafsil eskizlar orqali o'z yozishmalarini tahlil qilish amaliyoti; oddiy yoki batafsil eskizlar orqali o'z yozishmalarini tahlil qilishni e'tiborsiz qoldirish amaliyoti; faqat aqlbovar qilmaydigan voqealar sodir bo'lganda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan maxsus ma'lumotlar bazasi qaydlarini saqlash va kiritish amaliyoti; muntazam ishlarni bajarish shakllariga e'tibor bermaslik amaliyoti; muntazam ish uchun shakllardan foydalanish amaliyoti.



Vaqtni rejalashtirishning asosiy qoidalari:

- 1) 60% - rejalashtirilgan faoliyat;
- 2) 20% - kutilmagan faoliyat (vaqt zahiralari va rejalashtirilmagan harakatlar);
- 3) 20% - spontan faoliyat (boshqaruv faoliyati, ijodkorlik).

Ish vaqti:

- 1) 60% rejalashtirilgan vaqt;
- 2) 20% kutilmagan vaqt;
- 3) 20% spontan vaqt.

Natijalarga erishishda, shuningdek ularga erishish uchun belgilangan muddatlarda bajarishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan menejerlarning odatiy xatolariga quyidagilar kiradi:

- 1) muammoni hal qilishni ertaga qoldirish;
- 2) ishni oxiriga etgazmaslik;
- 3) hamma narsani birdaniga qilish istagi;
- 4) hamma narsani o‘zingiz qilish istagi;
- 5) bo‘ysunuvchilar orasidagi funktsiyalarni to‘g‘ri chegaralay olmaslik;
- 6) muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda aybni bo‘ysunuvchilarga yuklash istagi;
- 7) shaxsiy ishni tashkil etish va rejalashtirish masalalarini butunlay e‘tiborsiz qoldirish;
- 8) menejer o‘z shaxsiy vaqtini samarali tashkil etish printsiplari jihatdan imkonsiz deb hisoblaydi [7, 17-b].

Muhokama.

Yuqori dinamik biznes muhitida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish juda ko‘p sonli omillarga bog‘liq. Yuqorida sanab o‘tilgan rejalashtirilgan natijaga erisha olmaslikning asosiy sabablari vaziyatga qarab, “sub‘ektiv xatolar” va “ob‘ektiv xatolar” deb nomlangan xatolar ta‘siri bilan to‘ldirilishi mumkin. Vaziyatni belgilaydigan va jarayonlarning rivojlanish tendentsiyalarini shakllantiradigan “sub‘ektiv” va “ob‘ektiv” xatolarning mumkin bo‘lgan tuzilmalari ro‘yxati 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

№	Sub‘ektiv xatolar	Ob‘ektiv xatolar
1.	Ko‘p holatlarda “shablonli fikrlash” ni qo‘llash.	Rejalashtirilgan davr uchun qabul qilingan qarorlar sonidan ortib ketish va ularni amalga oshirish imkoniyatlari.
2.	O‘zining kuchli tomonlarini va mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatini qayta baholash.	Qabul qilingan qarorlarning nomuvofiqligi.
3.	Qarorlar o‘z tajribangizga asoslanadi.	Yechimni amalga oshirish uchun vaqt omilining natog‘ri baholanishi.
4.	Natijani muqarrar sub‘ektiv kutish.	Yangi qarorlar oldingi kurs va yechimlar paketiga asoslanadi.
5.	Xavfni yetarlicha baholamaslik.	Yarim-yarim yechimlarning ustunligi.
6.	Ishni yakunlash uchun kafolatlangan variantga ustuvorlik (“Uzoqdagi bug‘doydan, yaqindagi somon yaxshi”).	Loyiha/qarorlarni amalga oshirish jarayonlarida yuqori darajadagi ziddiyat.



7.	O'z fikrining ustuvorligi (“Men har doim haqman”).	Vaziyatga nisbatan “ko‘pchilik” yoki “ozchilik” tomonidan qarorlarning to‘g‘riligini zaif baholash.
8.	O'z g‘oyangizni amalga oshirishga urg‘u berilgan ma‘lumotni tanlash (“Variant ishlashi kerak”).	Faoliyatning umumiy printsipl: “biz uni ish rejimida moslashtiramiz”.
9.	Qaror qabul qilishning mavhum uslubi (“Asosiysi - boshlash, keyin biz buni aniqlaymiz”).	Faoliyat rejimining dinamikligi tufayli qarorlarning yomon ishlab chiqilishi.
10.	Muvaffaqiyatsizlik bosimi (“Sutda kuyib, suvga puflaysiz”).	Qarorlarni axborot bilan ta‘minlashning pastligi.
11.	Muammoni hal qilishni ertangi kunga qoldirish.	Bo‘ysunuvchilar orasidagi vazifalarni to‘g‘ri chegaralay olmaslik.
12.	Ishni to‘liq oxirigacha tugallamaslik.	Shaxsiy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish masalalarini to‘liq e‘tiborsiz qoldirish
13.	Hamma narsani birdaniga qilish istagi.	
14.	Hamma narsani o‘zingiz qilish istagi.	
15.	Aybni qo‘l ostidagilarga yuklash istagi.	

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki umumta’lim maktab rahbarlarining ish vaqtidan samarali foydalanish darajasi, ichki energiyasi, resurslari, imkoniyatlari va yondashuvlari har xil. Shuning uchun vaqt taqsimotidagi muhim qoidalaridan biri maktab direktorlarining vaqt oralig‘idagi ichki salohiyati, imkoniyati nimadan iborat ekanligini aniqlashdir. Chuning bilan birga xodimlarning ijrochilikda, fikrlashda, mulohaza yuritishda, innovatsiyada yoki bo‘lmasa biron-bir g‘oyalarni amaliy tushuntirib bera olishda qanshalik tezlikka, tajribaga ega. Shularni hisobga olgan holda vaqt taqsimoti davomiyligini ma‘lum bir saotlarda, kunlarda, ma‘lum bir davriylikka bo‘lishga ahamiyat berish kerak.

Ta’lim tizimida boshqaruvchi rahbar o‘quv-tarbiya tizimidan boshlab to maktabdan va sinfdan tashqari ishlargacha barcha maktab ishlarini vaqtni samarali boshqarishni yuksak darajada biladigan va natijalarni tahlil qila oladigan bo‘lishi zarur. Shuni nazarda tutishimiz kerakki, ta’lim muassasasida pedagoglar mehnati yaxshi tashkil etilsa, ta’lim-tarbiya samaradorligi ham shu darajada yuksak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богославец Л.Г. Тайм-менеджмент в работе образовательных учреждений: методическое пособие / Л. Г. Богославец, О. И. Давыдова. – Москва: Сфера, 2013. – 125 с.
2. Давыдова О.И. Тайм-менеджмент в работе руководителя /Л.Г. Богославец, О. И. Давыдова // Управление дошкольным образовательным учреждением. – 2012. – № 8. – С. 12–20.
3. Калинин С.И. Тайм-менеджмент: практикум по управлению временем / С.И. Калинин. – Санкт-Петербург: Речь, 2006. – 370 с. 34.
4. Кови С. Первое прежде всего / С. Кови. – Москва: Колибри, 2003. – 284 с.



5. Реунова М.А. Тайм-менеджмент студента университета [Электронный ресурс] / Реунова М.А. - ОГУ, 2012. – 103 с. – Режим доступа: <http://rucont.ru/efd/187888>.

6. Телегина Т.В. Тайм-менеджмент руководителей / Т.В.Телегина. – Москва : МФПУ «Синергия», 2013. – 86 с.

7. Тайм-менеджмент. Полный курс / Г.А.Архангельский, М.А.Лукашенко, Т.В.Телегина, С.В.Бехтерев; под ред. Г.А.Архангельского. – Москва: Альпина Паблишер, 2016. – 311 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=269985> – Библиогр. в кн. – ISBN 978-5-9614-1881-1.

TALABA KURASHCHILARNING MAXSUS JISMONIY VA TEXNIK TAYYORGARLIKLARINI PEDAGOGIK NAZORAT QILISH ASOSLARI

Xudayorov Doniyor Davlatyor o‘g‘li

Stajyor o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

doniyorbekxydayorov@gmail.uz

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda talaba kurashchilarning maxsus jismoniy va texnik tayyorgarliklarini pedagogik nazorat qilishning asosiy tamoyillari va usullari tahlil qilinadi. Kurash-bu jismoniy, texnik, taktik va psixologik jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab sport turi bo‘lib, talaba sportchilarning samarali tayyorgarligi uchun puxta pedagogik yondashuv zarur. Bunda, maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy komponentlari - kuch, chidamlilik, tezlik va moslashuvchanlikni rivojlantirishga e‘tibor qaratiladi. Texnik tayyorgarlik esa kurash uslublarini mukammal egallash va ularni tezkor va samarali amalga oshirishga qaratilgan. Pedagogik nazorat qilish jarayonida trener va murabbiylarning roli muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarni doimiy ravishda kuzatish, ularning tayyorgarlik darajasini baholash va individual yondashuvni amalga oshirish lozim. Nazorat jarayonida kurashchilarning jismoniy holati, texnik ko‘nikmalari va taktik strategiyalari ustida ishlash va ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Kalit so‘zlar: Talaba, kurashchilar, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, pedagogik nazorat, kurash sporti, jismoniy tarbiya.

Аннотация: В данной научной работе анализируются основные принципы и методы педагогического контроля специальной физической и технической подготовки студентов-курашистов. Борьба - это сложный вид спорта, включающий в себя физические, технические, тактические и



психологические аспекты, для эффективной подготовки студентов-спортсменов необходим тщательный педагогический подход. Техническая подготовка направлена на совершенное овладение приемами борьбы и их быструю и эффективную реализацию. В процессе педагогического контроля важна роль тренеров и наставников. При этом необходимо постоянно наблюдать за учащимися, оценивать уровень их подготовки и осуществлять индивидуальный подход. В процессе контроля необходимо работать над физическим состоянием, техническими навыками и тактическими стратегиями борцов и учитывать их индивидуальные особенности.

Ключевые слова: Студент, борцы, физическая подготовка, техническая подготовка, педагогический контроль, спорт кураш, физическое воспитание.

Abstract: This scientific work analyzes the basic principles and methods of pedagogical control of the special physical and technical training of student kurash wrestlers. Kurash is a complex sport that includes physical, technical, tactical, and psychological aspects, and a thorough pedagogical approach is necessary for the effective training of student athletes. At the same time, special attention is paid to the development of the main components of special physical training - strength, endurance, speed, and flexibility. Technical training is aimed at mastering wrestling techniques and implementing them quickly and effectively. In the process of pedagogical control, the role of coaches and mentors is of great importance. In this case, it is necessary to constantly monitor students, assess their level of preparedness, and implement an individual approach. In the control process, it is necessary to work on the physical condition, technical skills, and tactical strategies of the wrestlers and take into account their individual characteristics.

Key words: Student, wrestlers, physical training, technical training, pedagogical control, wrestling, physical education.

Kirish. Kurash sporti ko‘plab jismoniy va ruhiy ko‘nikmalarni talab qiladi. Talaba kurashchilari uchun samarali tayyorgarlik, ularning yuqori natijalarga erishishlariga yordam beradi. Maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlik, ularning jangda muvaffaqiyatga erishishlarini ta‘minlaydi. Biroq, bu jarayonni pedagogik nazorat qilish, ularning o‘qish jarayonini va mashq qilish tartibini muvofiqlashtirish uchun juda muhimdir. Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekistonning kurash sportiga bo‘lgan yuksak e‘tibori va rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ham muhim o‘rin tutadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan kurash sportini rivojlantirishga oid qarorlar, mamlakatimizda bu sport turining keng tarqalishiga, sportchilarni tayyorlash jarayonida samarali pedagogik metodlarning qo‘llanilishiga turtki bo‘ldi. 2020-yilda sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar, jismoniy tarbiya va sportni xalqaro miqyosda yangi darajaga ko‘tarish, kurash sportining o‘ziga xos talablariga javob beradigan pedagogik tizimni shakllantirishni ko‘zda tutadi.



Kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarliklarini samarali nazorat qilishda, zamonaviy o‘quv metodlari, yangi texnologiyalar va ilg‘or tajribalar asosida yondashuvlar kerak bo‘ladi. Bu, albatta, nafaqat jismoniy faollikni oshirishga, balki ularning psixologik holatini yaxshilashga, motivatsiyasini kuchaytirishga ham yordam beradi. O‘qitishning yangi usullari va pedagogik nazoratning samarali tizimi orqali talaba sportchilarining yuqori natijalarga erishishiga erishish mumkin.

Dolzarbli: Kurash - O‘zbekistonning tarixiy va madaniy merosiga ega bo‘lgan, shu bilan birga, bugungi kunda jahon miqyosida keng tarqalgan va yuksak sport turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston yoshlarini jismoniy va ma‘naviy rivojlantirishda kurash sporti muhim o‘rin tutadi. Talaba kurashchilarning maxsus jismoniy va texnik tayyorgarligi, o‘z navbatida, ularning muvaffaqiyatli ishtirok etishi, raqobatbardoshlikni oshirish va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan yondashuvni kuchaytiradi. Shu bois, talabalarni kurashga tayyorlashda pedagogik nazoratning samarali tizimi va usullari dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarliklarini nazorat qilish, ayniqsa, ta‘lim va sportni birlashtirgan talaba yoshlarining sport faoliyatida zarurdir. Pedagogik nazorat orqali talaba sportchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, o‘z maqsadlariga erishishda yordam berish, ularning ijtimoiy, jismoniy va psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, nazorat qilishning zamonaviy usullari orqali trening jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish, texnik ko‘nikmalarni oshirish va raqobatbardoshlikni yaxshilashga imkon beradi.

O‘zbekiston Prezidentining sportni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari va kurash sporti bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, jismoniy tarbiya va sportni xalqaro miqyosda yangi darajaga ko‘tarishni maqsad qilganligi bu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Davlat tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar va e‘tibor, sportchilarning tayyorgarligini mukammallashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, yosh kurashchilarning professional tayyorgarligi, sportda muvaffaqiyatga erishish va O‘zbekistonning jahon miqyosidagi obro‘sin oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, talaba kurashchilarning maxsus jismoniy va texnik tayyorgarliklarini pedagogik nazorat qilish, nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini ta‘minlash, balki mamlakatimizning sportdagi yutuqlarini kuchaytirish va kelajakdagi chempionlarni tayyorlashga xizmat qilishi bilan dolzarbdir.

Maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi talaba kurashchilarning maxsus jismoniy va texnik tayyorgarliklarini samarali pedagogik nazorat qilish usullari va tamoyillarini o‘rganishdir. Bu ishda, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik ko‘nikmalari, shuningdek, taktik va psixologik jihatlarini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar va nazorat tizimlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Maqsadga erishish uchun, talaba sportchilarining tayyorgarlik jarayonlarini doimiy nazorat qilish, individual yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini



optimallashtirish va kurash texnikasini mukammal egallashni ta'minlash usullari ishlab chiqiladi. Bu orqali kurashchilarning jismoniy va texnik salohiyatini oshirish, ularning muvaffaqiyatli sport faoliyatini tashkil etish va jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beriladi.

Tadqiqot usullari.

1. Teorik tahlil usuli:

Bu usulda tadqiqotchi mavjud ilmiy manbalar va adabiyotlarni o'rganadi, shu jumladan, jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, kurash texnikasi va pedagogik metodologiya sohalariga oid ilmiy ishlar, maqolalar, o'quv qo'llanmalari va boshqa nazariy materiallar tahlil qilinadi. Teorik tahlil yordamida, talabalar kurashchilarining maxsus tayyorgarlik jarayonlari uchun qanday pedagogik yondashuvlar samarali ekanligini aniqlash mumkin. Bu usulda kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarliklarini ta'minlashda pedagogik nazoratning o'rni, metod va tamoyillarining o'zgarishi tahlil qilinadi.

2. Empirik usuli:

Empirik usulda amaliy kuzatishlar va tajribalar yordamida talabalar kurashchilarining trening jarayonlari va natijalari to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi. Bu usulda kurashchilar bilan birgalikda treninglar o'tkaziladi va ularning jismoniy tayyorgarliklari, texnik ko'nikmalari, motivatsiyasi va umumiy yondashuvlari o'rganiladi. Shuningdek, sportchilarning pedagogik nazoratga bo'lgan munosabati ham kuzatiladi. Ushbu usul orqali olingan natijalar ilmiy jihatdan aniq va real sharoitda to'plangan bo'lib, trening jarayonining samaradorligini baholashda foydali bo'ladi.

3. Eksperiment usuli:

Eksperiment usuli orqali pedagogik nazoratning samaradorligini baholash mumkin. Tadqiqotchi trening jarayonini o'zgartirib yoki yangi pedagogik metodlarni joriy qilib, talabalar kurashchilarining jismoniy va texnik tayyorgarliklarini sinovdan o'tkazadi. Masalan, turli yondashuvlar bilan tayyorlangan guruhlar o'rtasida natijalar taqqoslanadi. Eksperiment davomida kurashchilarning jismoniy ko'rsatkichlari (kuch, chidamlilik, tezlik), texnik ko'nikmalari (uslublarni o'zlashtirish) va taktik rivojlanishi kuzatiladi. Tadqiqotchi olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, qanday pedagogik usullar va metodlarning eng samarali ekanligini aniqlaydi.

4. So'rovnoma va anketalar usuli:

Talaba kurashchilari va ularning trenerlari o'rtasida so'rovnoma va anketalar o'tkazish orqali ularning o'qitish metodlariga bo'lgan munosabati, pedagogik nazoratning samaradorligi, mavjud muammolar va o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojlari aniqlanadi. So'rovnomalar yordamida o'quvchilarning trening jarayonlaridagi hissiyotlari, shaxsiy motivatsiyasi, trening uslublari va pedagogik nazoratning ularning muvaffaqiyatlariga ta'siri haqida ma'lumot to'planadi. Bu usul



orqali kurashchilarning shaxsiy qarashlarini, ehtiyojlarini va treningni samarali o‘tishga bo‘lgan o‘z fikrlarini bilib olish mumkin.

5. Statistik tahlil usuli:

Tadqiqot natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish uchun statistik usullar qo‘llaniladi. Olingan empirik ma‘lumotlar (so‘rovnomalar, eksperiment natijalari) asosida statistika metodlari yordamida sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajalari, treninglar samaradorligi va pedagogik nazoratning ta’siri haqida aniq raqamli ma‘lumotlar olinadi. Misol uchun, talabalar kurashchilarining jismoniy ko‘rsatkichlari (masalan, chidamlilik, kuch, tezlik) va texnik ko‘nikmalarining o‘zgarishi tahlil qilinadi. Statistik tahlil yordamida trenerlar va murabbiylar tomonidan qo‘llanilayotgan metodlar va yondashuvlarning natijalari qiyoslanadi.

6. Qiyosiy tahlil usuli:

Qiyosiy tahlil usulida turli pedagogik yondashuvlar va metodlar o‘rganiladi. Tadqiqotchi turli guruhlariga yoki usullarga asoslangan metodlarni taqqoslab, ulardagi farqlarni va o‘xshashliklarni aniqlaydi. Misol uchun, ba’zi guruhlar uchun individual yondashuv usuli, boshqalariga esa umumiy metodlar qo‘llaniladi. Natijada, qaysi yondashuv talaba kurashchilarning tayyorgarligini yaxshilashga samarali bo‘lishini tahlil qilish mumkin. Bu usul, o‘quv jarayonining samaradorligini maksimal darajada oshirishga yordam beradi.

Bu usullarni qo‘llash orqali kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajalarini oshirish, pedagogik nazoratni samarali tashkil etish va trening jarayonining sifatini yaxshilash mumkin. Har bir usul o‘ziga xos afzalliklarga ega bo‘lib, ularning birgalikda qo‘llanilishi tadqiqotning to‘liq va aniq natijalarga erishishiga yordam beradi.

